

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Qayd raqami”

_____ 2018- yil
« ____ » _____

«TASDIQLAYMAN»

O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____ D.Q.Durdiyev
« ____ » _____ 2018- yil

Boshlang`ich ta`lim kafedrası

Ona tili o`qitish metodikasi fanidan

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

(3-KURS BT va STI yo`nalishi uchun)

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta`lim sohasi:	140000 –	Pedagogika
Ta`lim yo`nalishi:	5111700 -	Boshlang`ich ta`lim va sport- tarbiyaviy ish

BUXORO – 2018

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası 1-son yig'ilishining
Bayonnomasi

Buxoro shahri

2018-yil - avgust

Qatnashdilar: Kafedra mudiri M.H.Mahmudov, p.f.n.A.R.Hamroyev, dots. T.Choriyev dotsentlar; Y.Azimov, F.M.Qosimov, G'.Sayfullayev, B.Jamilova, N.Safarova, F.Safarov, G.Hasanova, L.Sharipova, katta o'qituvchilar M.Qosimova, o'qituvchilar B.Yo'ldoshov, Sh.Istamova, M.Ro'ziyeva, H.Nusratova, M.Hakimova, I.Davronov, Z.Umurov, N.Adizova, H.H.Raxmatov.

Kun tartibi:

2018-2019o'quv yiliga mo'ljalangan o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi.

Eshitildi:

M.H.Mahmudov (kafedra mudiri): Kafedra o'qituvchilari tomonidan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar tayyorlanganligini aytib o'tdi. Barcha o'quv-uslubiy majmualar uchun taqrizlar mavjud va ularni muhokama qilgan holda tasdiqlab berishlarini so'radi.

Yig'ilish kotibasi M.M.Qosimova va kafedra azolari muhokamasiga quyidagi o'quv-uslubiy majmualarni taqdim etdi.

1. Matematika 2-kurslar (BTU) – Tuzuvchilar. O'qituvchi: Qosimova M
2. Matematika o'qitish metodikasi 2-3-kurslar (BTU) – Tuzuvchi p.f.n. Qosimov F.M, M.Hakimova.
3. Mehnat o'qitish metodikasi 2-3-kurslar (BTU) - Tuzuvchilar: o'qituvchi M.M.Tilavova.
4. Matematika 2-kurs (BTU) - Tuzuvchi: Yo'ldoshov B.N.
5. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish III-kurs - Tuzuvchi: Umarova G.U.
6. Ona tili 1-2-3-4-kurslar (BTU) - tuzuvchilar: F.Safarov, M.Ro'ziyeva
7. Ona tili o'qitish metodikasi 2-3-kurslar (BTU) - tuzuvchilar: A.Hamroyev, N.Safarova, N.Adizova, R.Jumayev
8. Ona tili va adabiyoti 2-kurslar (BTU) – tuzuvchilar: B.Jamilova
9. O'qituvchi nutq madaniyati 3-kurs (BTU) – tuzuvchi: S.Avezov
10. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi 3-kurs (BTU) – tuzuvchi: G.Sayfullayev
11. Til va nutq o'stirish 3-kurs (MT) – tuzuvchi: S.Avezov
12. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi 3-kurs (BTU) – tuzuvchi G'.Sayfullayev
13. Umumiy pedagogika 1-2 kurs – (MT) Davronov I.
14. Pedagogika nazariyasi va tarixi 2MT 2BTU- Davronova.D,
15. Tarbiyaviy ishlar metodikasi BTU 2,3-4 kurs- Xo'jayeva S., Nigmatova M.
16. Milliy tarbiyaning ma'naviy asoslari 4 BTU- S.Xo'jayeva
17. Pedagogika fanlari o'qitish metodikasi 4 MT- I.Davronov
18. Bolalarni maktabgacha tayyorlash 4MT- M.Akramova
19. Qiyosiy pedagogika 2MT- N.Tosheva
20. Umumiy pedegogika 2MT- I.Davronov

Yuqoridagi o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi yuzasidan dotsentlar G'.Sayfullayev, F.Qosimov, Y.Azimov o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirdilar.

KAFEDRA YIG'ILISHI QAROR QILADI.

1. Kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2018-o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmualar tasdiqlansin.
2. Ushbu qarorning tasdig'i fakultet kengashidan so'ralsin.

Yig'ilish raisi:

M.H.Mahmudov

Yig'ilish kotibi:

H.Nusratova

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Ilmiy kengashining 1-yig'ilishi
bayonnomasidan ko'chirma

Buxoro Sh.

2018-yil -avgust

Qatnashdi: Ilmiy kengashning a'zolari va fakultet o'qituvchilari.

Kun tartibi

6. O'quv uslubiy majmualarni tasdiqlash.

A) "Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubiyoti " kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi.

Eshitildi:

B.J.Umarov (fakultet dekani). – Fakultet jamoasi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarni bajarishga katta etibor berib kelmoqdalar. Jumladan, o'quv usuliy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-marifiy ishlar salohiyatini yanada oshirish maqsadida ishchi o'quv rejalari, ma'ruzalar matni, tarqatma materallar, reyting ishlanmalarining yangi variantlarini ishlab chiqish; bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishlari sifat darajasini yanada o'stirish; pedagogik amaliyot mazmuni yangi materallar bilan boyitib, darslarni sifatli o'tishga erishish; talabalardan fanlar bo'yicha mantiqiy fikrlay olish malakasini o'stirib borish; aspirantlar ilmiy-tadqiqot ishlarni jonlashtirish; darslik, o'quv-qo'lanma, monografiya va ilmiy maqolalarning yangi avlodini yaratish yo'nalishida o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlash shu silsilani tashkil etishni ta'kidladi.

Hozirgi kunda "Boshlang'ich ta'lim " kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmua tayyorlanganligi hamda ushbu o'quv-uslubiy majmualar kafedraning 2018-yil ___ avgust 1-yig'ilishida muhokama qilinganligini aytib o'tib, fakultet ilmiy kengash a'zolari tomonidan ushbu majmualarni tasdiqlab berishlarini so'radi.

So'zga chiqdilar:

F.M.Qosimov (Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubiyoti kafedrasida dotsenti): - Chindan ham kafedramiz o'qituvchilari tomonidan o'quv-uslubiy majmualar tayyorlangan. Bu majmualardan o'quv jarayoniga kerak bo'ladigan barcha me'yoriy hujjatlar o'z aksini topgan bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda bevosita xizmat qiladi. Shu sababli yuqoridagi majmualarni tasdiqlab berishlaringizni so'rayman.

Qaror qilindi:

1. Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmualar tasdiqlansin.

2. Tasdiqlangan o'quv-uslubiy majmualar o'quv jarayoniga tadbiiq etilsin.

Yig'ilish raisi:

B.Umarov

Yig'ilish kotibi:

H.Nusratova

SILLABUS

Fanning qisqacha tavsifi					
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Buxoro davlat universiteti	Buxoro shahar, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy Veb sayti: www.buxdu.uz			
Kafedra:	Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubiyoti	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti tarkibida			
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	110000- pedagogika	5111700- Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish			
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	F.I.Sh. Hamroyev A.R.	e-mail:	omad1011@mail.ru alijon.h@umail.uz		
Dars vaqti va joyi:	214- auditoriya	Kursning davomiyligi:	3-kurs: 02.09. 2018 y-10.06.2018-y		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	Chorshanba kuni 10.00 dan 13.35 gacha				
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari				Mustaqil ta'lim:
	Ma'ruza	34	Amaliy	72	seminar 20
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi :	<p>“Ona tili o'qitish metodikasi” fani o'quv rejada 3- kursning 5-6- semestrlarida o'qitiladi.</p> <p>Fan o'quv rejasidagi o'zaro bog'liq barcha ishlar ruxshunoslik psixologiya, pedagogika, logika, hozirgi zamon o'zbek tili va bolalar adabiyoti kabi fanlar bilan uzviy aloqada o'rganiladi.</p>				
Fanning mazmuni					
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p>Fanning asosiy maqsadi – talabalarni boshlang'ich sinflarda ona tili fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifalari - ona tili ta'limi sohasi bo'yicha davlat ta'lim</p>				

	<p>standarti va o'quv dasturining mazmuni va talabalari, shuningdek, maktab darsliklari mazmuni va metodik qurilish bilan tanishtirish. Ona tilidan o'quv materiallari, bolalar kitoblarini, o'qish va yozishga o'rgatish uchun kerakli bo'lgan qo'shimsha materiallarni, imloviy mashqlarni, diktantlarni, grammatik tahlil, qayta hikoyalash va bayon uchun matnlarni, insho uchun mavzu va materialni tanlash va ulardan foydalanishga o'rgatish. O'quvchiarni turli mavzuda suhbat o'tkazishiga, qayta hikoyalash va hikoya qilishga, bayon va insho, ifodali o'qish, ijodiy ishlar, diktantlar, til materialini tahlil qilish kabi mashg'ulotlarga tayyorlash va uni o'tkazish, ko'rgazma va texnik vositalardan foydalanib, o'quvchiarning bilish faoliyatini va mustaqilligini ta'minlashga o'rgatish.</p> <p>Fanni o'zlashtirgan talabaning malakaviy darajalari</p> <p>Talabalar ona tili o'qitish metodikasi fanining bo'limlarini, ilmiy asoslarini, tamoyillarini, o'zaro bog'liq fanlarni, tekshirish metodlarini, ta'lim jarayonida qo'llanadigan metodlarni, dars tiplari va tarkibini, savod o'rgatish metodikasi, husnixat metodikasining shakllanish tarixini, husnixatga o'rgatishning shartlari va grafik asoslari, metodlari va tamoyillarini, boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish va ularga qo'yiladigan talabalar, o'qish metodikasi va sinfdan tashqari o'qish metodikasini, fonetika, so'z tarkibi va so'z yasallishini, orfografiya, sintaksis hamda punktuatsiya elementlarini, so'z turkumlarini o'qitish metodikasini, shuningdek, talaba ona tili o'qitish metodikasining bo'limlarini, ona tilining nazariy asoslari va ta'lim tamoyillarini, o'qitishning asosiy usullarini, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlarni va fanning muhim bo'lgan muammolarni, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning eng qulay foydali shakllari, usullari va vositalarini <i>bilishi kerak.</i></p> <p>Ona tili darslarida ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga amal qilish, o'quvchiarda ilmga qiziqish uyg'otish, aqliy sifatlarni rivojlantirish, darslarni mustaqil rejalashtirish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.</i></p> <p>Kichik yoshdagi o'quvchilarning tildan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini o'rganish va baholash, o'quvchiarning nutqiy, imloviy va boshqa xatolarini tahlil qilish, guruhlash va kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda xatolarning oldini olish va bartaraf qilish ustida ishlash <i>malakalariga ega bo'lishlari kerak.</i></p> <p>-</p>
<p>Talabalar uchun talablar</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Auditoriya mashg'ulotlariga muntazam qatnashish va darsga kechikmasdan kelish; • Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rgan holda kelish; • Mashg'ulotlar jarayonida faol ishtirok etish; • Sillabusda ko'rsatilgan mustaqil ish vazifalarini o'z vaqtida bajarish;

	<ul style="list-style-type: none"> • Ma'lum sabablarga ko'ra qoldirilgan mashg'ulotlarni qayta o'zlashtirishga faqat tibbiy ma'lumotnoma bo'lgandagina ruxsat beriladi; • Barcha turdagi nazoratlarda (joriy nazaorat, mustaqil ish nazorati, oraliq nazorat, yakuniy nazorat) muntazam ishtirok etish.
Elektron pochta orqali munosabatl ar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha

II. Asosiy qism

2.1. Nazariy mashg'ulotlarning mavzulari, maqsadlari va ularga ajratilgan soat

№	Mashg'ulot mavzulari	Mashg'ulotlar maqsadi	Ajratilgan soat
5-SEMESTR			
1.	So'z turkumlarini o'qitish metodikasi. Otni o'rgatish tizimi. Otning leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash. Otlarda son haqida tushunchani o'rganish metodikasi.	Talabalarga so'z turkumlarini o'qitish metodikas, otni o'rgatish tizimi, otning leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash. Otlarda son haqida tushunchani o'rganish metodikasi jarayoni haqida bilim berish.	2
2.	Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishini o'rganish. Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rgatish.	Talabalarga otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishi, otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rgatish haqida bilim berish.	2
3.	Boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganish tizimi. Mavzuni o'rganishning vazifalari. Sifatni o'rganish jarayonida leksik-stilistik ishlar.	Talabalarga boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganish tizimi, mavzuni o'rganishning vazifalari haqida bilim berish.	2
4.	Boshlang'ich sinflarda sonni o'rganish tizimi. Mavzuni o'rganishning vazifalari.	Talabalarga boshlang'ich sinflarda sonni o'rganish tizimi, mavzuni o'rganishning vazifalari haqida bilim berish.	2
5.	Olmosh, kishilik olmoshlarini o'rganish metodikasi.	Talabalarga boshlang'ich sinflarda kishilik olmoshini o'rganish haqida bilim berish.	2

6.	Boshlang'ich sinflarda fe'lni o'rganish tizimi. Fe'lni o'rganishning vazifalari. Fe'lni o'rganishda izchillik. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni o'rganish. Fe'llarda zamon mavzusini o'rganish.	Talabalarga boshlang'ich sinflarda fe'lni o'rganish tizimi, fe'lni o'rganishniig vazifalari, fe'lni o'rganishda izchillik, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni o'rganish, fe'llarda zamon mavzusini o'rganish haqida bilim berish.	2
7.	Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari. Fe'lni o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish.	Nutq va uni o'stirish tuchunshasi, nutq o'stirish ona tili o'qitishning vazifasi ekanligi, o'quvchilar nutqiga qo'yilgan talabalar, nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita ekanligi, o'quvchilar nutqini o'stirishning ona tilidan mashg'ulotlarning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liqligi haqida bilim berish.	2
8.	Boshlang'ich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlarini o'rganish Materiallarni sinflarga joylashtirish tizimi. O'quvchilarda asosiy sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shart-sharoitlari. Kichik yoshdagi o'quvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish.	O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida sintaktik ishlar, o'quvchilar egallaydigan sintaktik ko'nikmaning darajasi, boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi va nutq ustida ishlash, gap ustida ishlash mashqlarining turlari haqida bilim berish.	2
9.	Orfografiyani o'rganish metodikasi. To'g'ri yozishni o'rganish yo'nalishlari. Orfografik malakaning psixologik tabiati. Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. Imloviy mashqlar.	O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida sintaktik ishlar, o'quvchilar egallaydigan sintaktik ko'nikmaning darajasi, boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi va nutq ustida ishlash, gap ustida ishlash mashqlarining turlari haqida bilim berish.	2

10.	Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish. To'rt yillik boshlang'ich ta'lim "Ona tili" darslariga tavsifnoma. Ona tili darslari. Darsga umumiy tavsifnoma. Ona tili darslarining turlari va qurilishi.	Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish, ona tili darslarining turlari va qurilishi haqida bilim berish.	2
11.	Nutq o'stirish metodikasi Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari. Nutq va uni o'stirish tushunchasi. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talabalar. Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita.	Bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha berish, bog'lanishli nutqqa doir mashq turlari haqida bilim berish.	2
12.	Lug'at ustida ishlash. Maktabda lug'at ustida ishlashning asosiy yo'nalishlari. So'z ma'nosini tushuntirish metodikasi. O'qish, badiiy asarni qayta hikoyalash, materialni o'rganish, bayon va inshoga tayyorlanish bilan bog'liq holda o'quvchilar lug'atini faollashtirish yo'llari.	Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash va nutq o'stirish va ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish usullari haqida bilim berish.	2
6-SEMESTR			
13.	O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida sintaktik ishlar.	O'quvchilar egallaydigan sintaktik ko'nikmaning darajasi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi va nutq ustida ishlash. Gap ustida ishlash mashqlarining turlari.	2
14.	Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari. Bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha. Bog'lanishli nutqdan mashq turlari. Bog'lanishli nutqqa oid aniq ko'nikmalar. Matn turlari.	Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari, bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha, bog'lanishli nutqdan mashq turlari, bog'lanishli nutqqa oid aniq ko'nikmalar, matn turlari haqida bilim berish..	2
15.	Bog'lanishli nutq. Og'zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon. Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo'yilgan talabalar. Qayta hikoyalash va bayonning turlari.	O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish yo'llari, og'zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon, namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo'yilgan talabalar, qayta hikoyalash va bayonning turlari haqida bilim berish.	2
16.	Bog'lanishli nutq. Og'zaki hikoya va yozma insho. Og'zaki va yozma	Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'quvchilar yo'l	2

	insho turlari. O'quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'quvchilar yo'l qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rilash va oldini olish yo'llari.	qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rilash va oldini olish yo'llari haqida bilim berish.	
17.	Boshlang'ich sinf ona tilidan sinfdan tashqari ishlar Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar. Sinfdan tashqari ishlarining shakllari va vazifalari.	Talabalarni sinfdan tashqari ishlarining shakllari va vazifalari bilan tanishtirish.	2
	Jami		34

2.2. Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, maqsadlari va ularga ajratilgan soat

№	Mashg'ulotlar mavzusi	Mashg'ulotlar maqsadi	Ajratilgan soat
5-SEMESTR			
1.	So'z morfemik tarkibini o'rganish darslari rejasini va ishlanmasini tuzish.	Talabalarga so'z morfemik tarkibini o'rganish darslari rejasini va ishlanmasini tuzishga o'rgatish.	2
2.	Boshlang'ich sinflarda otni o'rgatish metodikasi.	Talabalarni dastur asosida ot so'z turkumi uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim reja tuza olishga, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'tish metodlarini to'g'ri tanlay bilishga, mustahkamlashda mashq materiallari ustida ishlash usullarini o'rgatish. Dastur asosida «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusini taqvimni tuzishga o'rgatish.	2
3.	«Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusini o'rgatish metodikasi.	Talabalarni dastur asosida ot so'z turkumi uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim reja tuza olishga, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'tish metodlarini to'g'ri tanlay bilishga, mustahkamlashda mashq materiallari ustida ishlash usullarini o'rgatish. Dastur asosida «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusini taqvimni tuzishga o'rgatish.	2
4.	«Otlarning kishilik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» o'rgatish metodikasi.	Talabalarni dastur asosida ot so'z turkumi uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim reja tuza olishga,	2

		otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'tish metodlarini to'g'g'ri tanlay bilishga, mustahkamlashda mashq materiallari ustida ishlash usullarini o'rgatish. Dastur asosida «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusini taqvimni tuzishga o'rgatish.	
5.	Otni o'rganish darslari rejasi va ishlanmasini tuzish.	Talabalarni dastur asosida ot so'z turkumi uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim reja tuza olishga, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'tish metodlarini to'g'g'ri tanlay bilishga, mustahkamlashda mashq materiallari ustida ishlash usullarini o'rgatish. Dastur asosida «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusini taqvimni tuzishga o'rgatish.	2
6.	Otni o'rganish dars ishlanmasini tuzish.	Talabalarni dastur asosida ot so'z turkumi uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim reja tuza olishga, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'tish metodlarini to'g'g'ri tanlay bilishga, mustahkamlashda mashq materiallari ustida ishlash usullarini o'rgatish. Dastur asosida «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusini taqvimni tuzishga o'rgatish.	2
7.	Sifatni o'rganish darslari rejasi va ishlanmasini tuzish.	Talabalarning sifat turkumini o'rganishi bo'yicha egallagan nazariy bilimlarni aniqlash. Ularni nazariy bilimlardan amalda foydalana olishga o'rgatish.	2
8.	Sifatni o'rganish dars ishlanmasini tuzish.	Talabalarning sifat turkumini o'rganishi bo'yicha egallagan nazariy bilimlarni aniqlash. Ularni nazariy bilimlardan amalda foydalana olishga o'rgatish.	2
9.	Sonni o'rganish darslari rejasi va ishlanmasini tuzish. Olmoshni o'rganish darslari rejasi va ishlanmasini tuzish	Talabalarning son va olmoshni o'tish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Son, olmoshni o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish.	2

		Son va olmosh turkumini o'rgatishda metodik adabiyotlar va darsliklar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.	
10.	Boshlang'ich sinflarda fe'lni o'rgatish metodikasi.	Talabalarni bo'lishli-bo'lishsiz fe'llar, fe'l zamonlarini o'tish bo'yicha metodik adabiyotlardagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish.	2
11.	Fe'l zamonlarini o'rgatish metodikasi.	Talabalarni bo'lishli-bo'lishsiz fe'llar, fe'l zamonlarini o'tish bo'yicha metodik adabiyotlardagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish.	2
12.	Fe'lni o'rganish darslari rejasi va ishlanmasini tuzish.	Talabalarni bo'lishli-bo'lishsiz fe'llar, fe'l zamonlarini o'tish bo'yicha metodik adabiyotlardagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish.	2
13.	Fe'lni o'rganish darslari rejasi va ishlanmasini tuzish.	Talabalarni bo'lishli-bo'lishsiz fe'llar, fe'l zamonlarini o'tish bo'yicha metodik adabiyotlardagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish.	2
14.	Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi darslari rejasi va ishlanmasini tuzish.	Fe'ning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini, fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'tishda o'quvchilarni faollashtiradigan ish turlarini ijod qilishga, ijodiy izlanishga yo'llash.	2
15.	Metodik adabiyotlardan foydalangan holda tinish belgilarining ishlatilishi bilan tanishtiriladigan darslar, mashq materiallari ustida ishlash.	Tinish belgilarining ishlatilishi bo'yicha metodik adabiyotlardagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish.	2
16.	Metodik adabiyotlardan foydalangan holda imlo ustida ishlash imkoniyati mavjud mashq materiallari ustida ishlash.	Darslikdagi mashqlar tizimi ustida amaliy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.	2
17.	Boshlang'ich sinflarda lug'at ustida ishlash.	Lug'at ustida ishlash nuqtai nazaridan mashq materiallarini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.	2
18.	Lug'at ustida ishlash nuqtai nazaridan mashq materiallarini tahlil qilish.	Lug'at ustida ishlash nuqtai nazaridan mashq materiallarini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.	2
19.	Boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlash.	Talabalarni dastur asosida boshlang'ich sinflarda sintaktik elementlari ustida ishlashni o'rganish	2

		uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim-reja tuza olishga, ega, kesim, undalma tushunchalarini hosil qilish metodlarini tanlay bilishga, mashqlar tizimini ishlab chiqishga til hodisalari bo'yicha o'yin mashqlar tanlay bilishiga o'rgatish. Talabalarning «Gap mavzusini o'tish. Gap ustida ishlash» mavzusidagi ma'ruzada egallangan nazariy bilimlarini aniqlash va mustahkamlash.	
20.	Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi ustida ishlash.	Talabalarni dastur asosida boshlang'ich sinflarda sintaktik elementlari ustida ishlashni o'rganish uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim-reja tuza olishga, ega, kesim, undalma tushunchalarini hosil qilish metodlarini tanlay bilishga, mashqlar tizimini ishlab chiqishga til hodisalari bo'yicha o'yin mashqlar tanlay bilishiga o'rgatish. Talabalarning «Gap mavzusini o'tish. Gap ustida ishlash» mavzusidagi ma'ruzada egallangan nazariy bilimlarini aniqlash va mustahkamlash.	2
21.	Gap ustida ishlash darslari ishlanmasini tuzish.	Talabalarni dastur asosida boshlang'ich sinflarda sintaktik elementlari ustida ishlashni o'rganish uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim-reja tuza olishga, ega, kesim, undalma tushunchalarini hosil qilish metodlarini tanlay bilishga, mashqlar tizimini ishlab chiqishga til hodisalari bo'yicha o'yin mashqlar tanlay bilishiga o'rgatish. Talabalarning «Gap mavzusini o'tish. Gap ustida ishlash» mavzusidagi ma'ruzada egallangan nazariy bilimlarini aniqlash va mustahkamlash.	2

22.	So'z birikmasi ustida ishlash darslari ishlanmasini tuzish.	Talabalarni dastur asosida boshlang'ich sinflarda sintaktik elementlari ustida ishlashni o'rganish uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim-reja tuza olishga, ega, kesim, undalma tushunchalarini hosil qilish metodlarini tanlay bilishga, mashqlar tizimini ishlab chiqishga til hodisalari bo'yicha o'yin mashqlar tanlay bilishiga o'rgatish. Talabalarning «Gap mavzusini o'tish. Gap ustida ishlash» mavzusidagi ma'ruzada egallangan nazariy bilimlarini aniqlash va mustahkamlash.	2
23.	2-, 3-, 4- sinfda bayon o'tkaziladigan darslar jadvali va ishlanmasini tuzish.	Talabalarning bayon yozishga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Bayon yozishga o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish.	2
24.	2-sinfda bayon o'tkaziladigan darslar jadvali va ishlanmasini tuzish.	Talabalarning bayon yozishga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Bayon yozishga o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish.	2
25.	3-sinfda bayon o'tkaziladigan darslar jadvali va ishlanmasini tuzish.	Talabalarning bayon yozishga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Bayon yozishga o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish.	2
6-SEMESTR			
26.	4-sinfda bayon o'tkaziladigan darslar jadvali va ishlanmasini tuzish.	Talabalarning bayon yozishga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Bayon yozishga o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish.	2
27.	3-, 4- sinfda insho yozishga o'rgatish metodikasi.	Talabalarning insho yozishga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Insho yozishga o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish. Insho yozishga o'rgatish bo'yicha metodik adabiyotlar va darsliklar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish	2

28.	3-sinfda insho o'tkaziladigan darslar jadvali va ishlanmasini tuzish.	Talabalarning insho yozishga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Insho yozishga o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish. Insho yozishga o'rgatish bo'yicha metodik adabiyotlar va darsliklar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish	2
29.	4-sinfda insho o'tkaziladigan darslar jadvali va ishlanmasini tuzish.	Talabalarning insho yozishga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarini aniqlash. Insho yozishga o'rgatish bo'yicha DTS va ona tili dasturi talabalarini anglashlariga erishish. Insho yozishga o'rgatish bo'yicha metodik adabiyotlar va darsliklar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish	2
30.	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida yozma ishlar xatosi ustida ishlash.	Talabalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida hosil qilinadigan imloviy malakalar, ular hosil qilishda grammatik mavzularga asoslanish, imloviy mashqlar va ularni tashkil etish usullarini amaliy qo'llashga o'rgatish. Talabalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish shakllari va usullarini amaliy qo'llashga o'rgatish.	2
31.	Yozma ishlar xatosi ustida ishlash darslari ishlanmasini tuzish.	Talabalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida hosil qilinadigan imloviy malakalar, ular hosil qilishda grammatik mavzularga asoslanish, imloviy mashqlar va ularni tashkil etish usullarini amaliy qo'llashga o'rgatish. Talabalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish shakllari va usullarini amaliy qo'llashga o'rgatish.	2
32.	Boshlang'ich sinf ona tilidan sinfdan tashqari ishlar.	Talabalarni boshlang'ich sinflarda namunaviy, konstruktiv, ijodiy mashqlar va ularning turlarini tashkil etish usullari bilan tanishtirish	2
33.	Boshlang'ich sinf ona tilidan sinfdan tashqari ishlar.	Talabalarni boshlang'ich sinflarda namunaviy, konstruktiv, ijodiy mashqlar va ularning turlarini tashkil etish usullari bilan tanishtirish	2

34.	To'garak rejasini tuzish va mashg'ulot ishlanmasini tuzish.	Talabalarni boshlang'ich sinflarda namunaviy, konstruktiv, ijodiy mashqlar va ularning turlarini tashkil etish usullari bilan tanishtirish	2
35.	Ona tilidan tanlovlar rejasini tuzish.	Talabalarni boshlang'ich sinflarda bog'lanishli nutqqa doir mashqlar tashkil etishga o'rgatish.	2
36.	Ona tilidan tanlovlar rejasini tuzish.	Talabalarni boshlang'ich sinflarda bog'lanishli nutqqa doir mashqlar tashkil etishga o'rgatish.	2
Jami			72

2.3. Seminar mashg'ulotlari mavzulari, maqsadlari va ularga ajratilgan soat

№	Mashg'ulotlar mavzusi	Mashg'ulotlar maqsadi	Ajratilgan soat
5-SEMESTR			
1.	Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini kuzatish va tahlil qilish.	Sintaktik darslarni o'rganish darslarini kuzatish va tahlil qilishga o'rgatish.	2
2.	Ona tilidan o'quvchilarga berilgan bilim, ular hosil qilgan ko'nikma va malakalarni tekshirishga oid darslarni kuzatish.	Sintaktik darslarni o'rganish darslarini kuzatish va tahlil qilishga o'rgatish.	2
3.	Kuzatilgan darslarni va o'quvchilar yozgan nazorat ishlarini tahlil qilish va bolalar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlash.	Ona tili va o'qish darslarini lug'at ustida ishlash yuzasidan qanday matn turlaridan foydalanilganligini belgilash maqsadida kuzatishga o'rgatish.	2
4.	Grammatik va imlo xatolarni ajratish.	Ona tili va o'qish darslarini lug'at ustida ishlash yuzasidan qanday matn turlaridan foydalanilganligini belgilash maqsadida kuzatishga o'rgatish.	2
5.	Ko'pchilik o'quvchilar yo'l qo'ygan umumiy va ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan xususiy xatolarni guruhlash.	Sintaktik mavzular o'rganiladigan darslarni kuzatish va tahlil qilishga o'rgatish.	2
6.	Xatolar ustida ishlash darsi yoki mashg'ulotiga material tayyorlash.	Sintaktik mavzular o'rganiladigan darslarni kuzatish va tahlil qilishga o'rgatish.	2
7.	Ona tili va o'qish darslarini lug'at ustida ishlash yuzasidan qanday matn turlaridan foydalanilganligini belgilash	Kuzatilgan bayon va insho yozish darslarini tahlil qilishga o'rgatish	2

	maqsadida kuzatish.		
6-SEMESTR			
8.	Sintaktik mavzular o`rganiladigan darslarni kuzatish va tahlil qilish.	Kuzatilgan bayon va insho yozish darslarini tahlil qilishga o`rgatish	2
9.	Kuzatilgan darslarni tahlil qilib, dasturga mosligini, shuningdek, metodik jihatdan to`g`ri o`tkazilganligini aniqlash.	Sintaktik mavzular o`rganiladigan darslarni kuzatish va tahlil qilishga o`rgatish.	2
10.	Bayon yozish va insho yozish darslarini kuzatish.	Kuzatilgan bayon va insho yozish darslarini tahlil qilishga o`rgatish	2
	Jami		20

MA'RUZALAR MATNI

So'z turkumlarini o'rganish metodikasi

Reja:

1. So'z turkumlari haqidagi ko'nikmalarning shakllantirilishi.
2. So'z turkumlarini shrganishdagi asosiy vazifalar.
3. Boshlang'ich sinflarda otni o'rganishdagi asosiy vazifalar.
4. Otni o'rganishdagi izchillik.

So'z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so'zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli gruppalarga ajratilishi – so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So'zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda 3 belgiga: 1)leksik ma'nosi (nimani ifodalashi, ya'ni predmet, harakat yo holat, belgi kabilarning umumlashitirilgan ma'nolari); 2)morfologik (so'zning turli shakl tizimi); 3)sintaktik (turli morfologik shakllarning sintaktik vazifa bajarishi) belgilariga asoslanadi. Demak, so'z turkumlari ustida ishlash o'quvchilarning muayyan guruhlardagi so'zlarning umumlashtirilgan ma'nolari, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlarga qaratilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z turkumi bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksik-grammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ular taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va bu bilan shakllantiradigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

1)so'z nima bildirishi (predmet, predmet belgisi, predmet sanog'i va tartibi, predmet harakati yoki holati);

2)qanday so'roqlarga javob bo'lishi;

3)o'zgarish-o'zgarmasliligi;

4)gapda, asosan, qanday bo'lak vazifasida kelishi. O'quvchilar mana shu o'rgangan bilimlari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydilar.

O'quvchilar nimani o'rganganlariga qarab, har bir so'z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta kengaya, chuqurlasha boradi.

Dasturga ko'ra, 1-2-sinflarda so'zlar javob bo'ladigan morfologik so'roqlarga qarab tasnif qilinadi. 3-sinfda "so'z turkumi" tushunchasi shakllantiriladi.

O'quvchilar har bir so'z turkumiga xos ayrim belgilar (so'z turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishi, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, ot, sifat, son va fe'lning gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi.

4-sinfda so'z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: o'quvchilar otlaning egalik va kelishiklar bilan o'zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasi, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, fe'llarda shaxs-son va zamonni o'rganadilar.

Quyidagi jadvalda boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z turkumlari yuzasidan bilimlarning hajmi ko'rsatilgan (1-jadval)

O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi.

Masalan, gul, guldor, guladi so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun 3-sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: nima? –gul, bu so'z predmet bildirayapti, ko'plikda qo'llanadi – gullar, bu ot; guldor so'zi qanday? So'rog'iga javob bo'layapti, predmet belgisini bildirayapti, bu sifat; gulladi so'zi nima qildi? So'rog'iga javob bo'layapti, predmet holatini bildirayapti, bo'lishsiz shaklda qo'llaniladi – gullamadi, bu fe'l.

Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsuslashtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar ot, sifat, son, olmosh, fe'l gap bo'lagi vazifasida kelishini, bog'lovchi gap bo'lagi bo'lmasligini biladilar.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllanitrish, atrof-muhit haqidagi bilimlarni boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasini ham amalga oshiriladi.

1-jadval

1.1 Ot	Sifat	1.2 Son	Fe'l
1.Predmet bildiradi.	1.Predmet belgisi bildiradi.	1.Predmetning sano-g'ini va tartibini bildiradi.	1.Predmet harakatini bildiradi.
2.Kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladi.	2. Qanday? qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi.	2. Necha? yoki nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi.	2. Nima qildi? Nima qiladi? Nima qilayapti? Nima qilmoqchi kabi so'roqlarga javob bo'ladi
3. Birlik va ko'p-likda qo'llanadi.	3. O'zgardi	3.Asosan o'zgarmaydi	3. Bo'lishli va bo'lishsiz shaklda qo'llaniladi.
4.Egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi.	4.Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifa-sida keladi.	4.Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifa-sida keladi.	4. Shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlanadi.

5.Kelishiklar bilan turlanadi.			5. Uch zamonni bildiradi.
6.Gapda ega yoki ikkinchi darajali bo‘lak vazifasi keladi.			6.Gapda kesim vazifasida keladi.

1.3 Otni o‘rganish metodikasi

Otni o‘rganishga tayyorlov bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda o‘quvchilar predmetlarni va ularni nomi bo‘lgan so‘zlarni farqlashga o‘rganadilar. So‘zning lekik ma‘nosi (har bir so‘z ma‘no bildirishi)ga e‘tibori oshiriladi, ma‘nolarni hisobga olgan holda so‘zlar (qushlar, meva va sabzavotlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni gruppalash ko‘nikmasi shakllantiriladi. So‘zlarni leksik ma‘nosi asosida gruppalash mashqlari otlarni taqqoslash, o‘xshash tomonlarini aniqlash, abstraklashtirish ko‘nikmasini o‘stiradi. Shunga qaramay, gramatik tushunchani shakllantirish uchun o‘quvchilar so‘zning aniq ma‘nosini bilmaydilar, so‘zning leksik ma‘nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o‘zlashtirish zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma‘nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi. (kim yoki nima so‘rog‘iga javob bo‘lishi, predmet bildirishi tushuntiriladi) O‘quvchilar kim? So‘rog‘iga javob bo‘lgan otlardan farqlashni o‘rganadilar. Bu bosqichda ular so‘zlarni so‘roq berish bilan farqlashni bilib oladilar, bolalarda mavxum grammatik tafakkur o‘sib boradi. Bolalarda ko‘pgina atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasi shaklanib boradi.

2-sinfda otlarning leksik ma‘nosi, atoqli va turdosh otlar haqidagi bilim chuqurlashtiriladi va sistemalashtiriladi bolalar otlarda son bilan tanishtiriladi.

“Ot” tushunchasini shakllantirish uchun shu so‘z turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik gruppalariga ajratish, barcha otlarga xos bo‘lgan belgilarni ko‘rsatish, ularning nutqimizdagi rolini ochish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi darslardayoq predmetlarni bildiradigan so‘zlar sistemaga solinadi. Shu so‘zlarning hammasi uchun umumiy bo‘lgan belgilar aniqlanadi. Bu so‘zlar predmetlarni bildirib, kim? Yoki nima? So‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Dasturga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sifat va boshqa so‘z turkumlaridan yasalgan mavxum ma‘nodagi (yaxshilik, go‘zallik, ishonch, o‘kinch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va o‘quvchilar qiziqib so‘rasalar, otlar bolalar o‘rgangan belgilari asosida nima so‘rog‘iga javob bo‘lishi, predmet nomini bildirishi tushuntiriladi.

Otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatish uchun o‘qituvchi o‘qish kitobidan matn shu so‘zlarsiz o‘qishni topshiradi. O‘quvchilar matn otlari tushirib qoldirilib o‘qiganda, matn mazmunini tushunib bo‘lmasligini anglaydilar. Xlosa chiqariladi: ot atrofimizni o‘rab olgan predmetlarning nomi, bu so‘zlarsiz bir-birimizga o‘z fikrimizni tushuntira olmaymiz.

1.4 Ot so‘z turkumini o‘rganish metodikasi

Reja:

1. Otlarda son mavzusini o‘rganish usuli.
2. Otlarda “Egalik qo‘shimchalari” mavzusini o‘rganish usuli.
3. Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishini o‘rganish usuli.

3-sinfda “Otlar son” mavzusi, ya’ni otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarda;

1) birlik va ko‘plikda qo‘llanilgan otlarni ma’nosi va qo‘shimcha orqali farqlash.

2) birlikdagi otdan ko‘plik sondagi ot va aksincha, ko‘plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish.

3) gapda so‘zlarning bog‘lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildiradigan otlar taqqoslanadi: Qalam-qalamlar, nok-noklar kabi. Suxbat asosida nok so‘zi nechta (1 ta) predmetni va noklar so‘zi nechta (2 va undan ortiq) predmetni bildirishni aniqlanadi. (boshqa so‘zlar bilan ham shunday ashlanadi) Oddiygina xulosa chiqariladi va umumlashtiriladi; agar otlar bir predmetni bildirsa birlikda, 2 va undan ortiq predmetni bildirsa ko‘plikda qo‘llaniladi. Ko‘plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga -lar qo‘shimchasi qo‘llaniladi. Birlikdagi otlar kim? Yoki nima? So‘rog‘iga, ko‘plikdagi otlar esa kimlar? Yoki nimalar? So‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Bu sinf o‘quvchilariga faqat birlikda qo‘llaniladigan otlar, birlik shaklida qo‘llangan armiya, qo‘shin, xalq kabi otlar ko‘plik ma’nosini anglatadigan ma’nosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar o‘quvchilar bu haqda savol bersalar, sodda shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanilishini kuzatish aslida so‘z formasi ustida ishlashning boshlang‘ich bosqich hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar otlarni ko‘plik qo‘shimchasi bilan o‘zgartirish, ya’ni otga forma yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan so‘zning leksik ma’nosi o‘zgarishiga ishonch hosil qiladilar.

“Otlarda egalik qo‘shimchalari” mavzusi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun murakkab hisoblanadi. Chunki bu mavzu o‘rganulgunga qadar, bolalar “shaxs” tushunchasi bilan xali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlari hali o‘rganmagan bo‘ladilar. O‘quvchilarga egalik qo‘shimchasi predmet birlik va ko‘plikdagi 3 shaxsdan biriga tegishli ekanini bildirishini tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, o‘quvchilarni otlarda egalik qo‘shimchalari bilan tanishtirishda o‘qituvchi ishni sarlavhadagi “Egalik” so‘zining leksik ma’nosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofiq: ega bo‘lish, qarashlilik, tegishlilik, oidlilik ma’nolarini bildiradi. Egalik qo‘shimchasi deyiaganda biror narsaga ega bo‘lishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qo‘shimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llaniladi. Otga qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi shu ot ifodalangan predmetning kimgadir qarashli

ekanini, shu predmetni egasi ekanini bildiradi; kecha o‘qigan kitobim juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlimi? Ra‘noning kitobi ham qiziqarli edi.

Kitobim, kitobing, kitobi so‘zlari so‘z tarkibiga ko‘ra taxlil qilinadi va o‘quvchilar kitob-o‘zak, -im, -ing, -i qo‘shimchalari qo‘shimcha ekanini aniqlaydilar.

O‘qituvchi kitobim va kitob so‘zlarini taqqoslashni, -im qo‘shimchasining ma‘nosi haqida o‘ylab ko‘rishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi. Bolalar qo‘shimchaning ma‘nosi haqida fikr yuritadi. Ammo kitobim so‘zining ma‘nosiga (mening kitobim –kitob meniki) tushunsalar ham, fikrlarini shakllantirib aytib berolmaydilar. O‘qituvchi qisqa tushuntiradi. Tilda 3 ta shaxs mavjud; so‘zlovchi yoki 1-shaxs, tinglovchi yoki 2-shaxs, o‘zga yoki 3-shaxs.

Hozir men sizga so‘zlayapman, tushuntirayapman, demak, men so‘zlovchi, hozir siz meni (tushuntirayotgan mavzuni) tinglayapsiz demak, siz (sen) tinglovchi, hozir tinglashga qatnashmayotganlar ham bor, u (ular) – o‘zga hisoblanadi. Siz otlar birlik va ko‘plik sonda qo‘llanilishini bilasiz. Ma‘lumki, biror narsa bir shaxsga yoki 2 va undan ortiq shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. Mana shu ma‘nolarni, ya‘ni biror predmetning birlik yoki ko‘plikdagi 3 shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qo‘shilgan egalik qo‘shimchalari bildiradi. Masalan, kitobim so‘ziga qo‘shilgan, siz aniqlangan –im qo‘shimchasi kitobning 1-shaxsga taalluqli ekanini, ya‘ni kitobning egasi 1-shaxs ekanini bildiradi. (-im, -ing, -i qo‘shimchalari ham shunday tushuntiriladi) Qisqa shunday xulosa chiqariladi; Otlarga qo‘shilgan mana shunday qo‘shimchalar egalik qo‘shimchalari deyiladi. Egalik qo‘shimchalari tegishlilik, egalik ma‘nosini bildiradi.

Egalik qo‘shimchalari otlarga 2 xil variantda qo‘shiladi. Oxiri unli bilan tugagan otlarga –m, -ng, -si, -miz, -ingiz, -si egalik qo‘shimchalari, oxiri undosh bilan tugagan otlarga –im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i egalik qo‘shimchalari qo‘shiladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar “O‘zbek tili” darsligidagi qoidani o‘qiydilar. Jadvalni taxlil qiladilar.

O‘quvchilarga egalik qo‘shimchalari haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun matndan egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan otni topish uni tarkibiga ko‘ra taxlil qilib, egalik qo‘shimcha shaxs sonini aniqlash, matnda berilgan otga tushirib qoldirilgan egalik qo‘shimchasini qo‘shish, predmet qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Egalik qo‘shimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi. Otlarning kelishiklar

bilan turlanishini o‘rganish jarayonida egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan ot qaratqich kelishigida kelgan boshqa ot bilan, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o‘rganish jarayonida esa egalik qo‘shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog‘lanib, so‘z birikmasi hosil qilishi haqida bilim beriladi.

Kelishiklar sintaktika kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlarining gapda boshqa so‘zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o‘rgatishda o‘quvchilarning gapda so‘zlarning bog‘lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o‘quvchilar gapda ma‘no va grammatik tomondan bog‘langan so‘zlarni (so‘z birikmalarini) ajratishga o‘rganganlaridan so‘ng

boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda soʻzlarning bogʻlanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun oʻquvchi ot gapda qaysi soʻz bilan bogʻlanishini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa soʻzlar bilan bogʻlanganda qoʻshimchalar bilan oʻzgarishi ancha oldindan kuzatilib boriladi. Aslida oʻquvchilar 1-sinfdayoq soʻz maʼnolarini oʻzgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular soʻz formasi nimaligini bilmaydilar. Bolalar keyingi sinfda forma yasovchi (soʻz oʻzgartiruvchi) qoʻshimchalar bilan tanishadilar. Bu qoʻshimchalar gapda soʻzlarni bogʻlashi uchun xizmat qilishini tushunadilar.

3-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalaridan ongli foydalanish va kelishik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozishga oʻrgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchillikda oʻrganiladi. 1. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida maʼlumot berish; 2. Koʻplikdagi otlarning turlanishini oʻrgatish; 3. Har bir kelishikning xususiyatlarini alohida oʻrganish va u bilan bogʻliq holda kelishik qoʻshimchalarini yozilishi haqida koʻnikma hosil qilish.

Otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan oʻzgarishi turlanishi haqida tushuncha berish bilan oʻquvchilarga kelishik qoʻshimchalari gapda soʻzlarni bogʻlash uchun xizmat qilishi, oʻzbek tilidagi 6 kelishik, ularning nomi, soʻroqlari, qoʻshimchalari va joylanish tartibi tushuntiriladi.

Oʻquvchilar oʻzlashtirgan grammatik bilimlarini imloni oʻzlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi. Oʻquvchilar avval gapda ot bogʻlangan soʻzdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar: keyin soʻroqqa qarab kelishikni aniqlaydilar, masalan, yashaydi (qayerda?) - qishloqda (oʻrin payt kelishigi) ular buni yaxshi oʻzlashtirgandan soʻng mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi.

Koʻplikdagi otlarning turlanishini oʻrganishda nutqda tkoʻplikdagi otlardan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini takomillashtirish maqsadi koʻzda tutiladi. Oʻquvchilar suxbat yordamida bosh kelishikdagi otning soʻrogʻini va batta predmetni bildirishini aytadilar. (nima? – kitob, kim? - oʻquvchi). Oʻqituvchi agar shu ot 2 va undan ortiq predmetni bildirsa, qanday soʻroqqa javob boʻlishini, qaysi kelishikni bildirishini soʻraydi, ular qiynalmay javob beradi (nimalar? - kitoblar, kimlar? - oʻquvchilar). Xulosa chiqariladi: koʻplikdagi otlar bosh kelishikda kimlar? yoki nimalar? Soʻrogʻiga javob boʻladi. Oʻquvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni koʻplikda turlaydilar va koʻplik qoʻshimchasi doim kelishik qoʻshimchasidan oldin qoʻshilishini, soʻroqlarini bilib oladilar.

Har bir kelishikning alohida oʻrganishning vazifasi kelishikni oʻrganish bilan bogʻliq holda kelishik qoʻshimchalarining yozilishi haqidagi malakani shakllantirish va oʻquvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi.

Kelishiklarni bilib olish maqsadida soʻroqlardan foydalaniladi. Buning uchun oʻquvchilar, birinchidan, soʻroqni otning yakka oʻziga emas, balki gapda ot maʼno tomondan bogʻlangan soʻzdan shu otga berishni oʻrganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning soʻroqlarini yaxshi bilishlari zarur.

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish maqsadga muvofiq: 1. Kelishiklarning grammatik asosi. 2. So'roqlari. 3. Qo'shimchasi. 4. Gapdagi vazifasi. Kelishiklarni shu tarzda o'rganish ularni o'zaro taqqoslashni yengillashtiradi va ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Bir kelishik o'zining muhim belgilari bilan boshqa kelishiklardan farqlanadi. Muayyn bir kelishikdagi otdar ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish uchun o'quvchilar kelishiklarning muhim belgilarini puxta o'zlashtirishi talab etiladi. Shuning uchun ham kelishiklarning muhim belgilarini o'zlashtirib, bir kelishikni ikkinchisidan farqlash ko'nikmasini shakllantirishga katta o'rin beriladi.

O'quvchilar qaratqich va tushum kelishigini farqlashga qiynaladilar, bir qo'shimcha o'rniga ikkinchisini ishlatadi. Buning oldini olish uchun ikki kelishikning ma'nosi, qo'shimchasi, so'roqlari va gapdagi vazifasi taqqoslanadi, suxbat asosida xulosa chiqariladi.

Boshlang'ich sinf dasturiga ko'ra o'quvchilarni qaratqich va tushum kelishigida otning belgisiz qo'llanishi bilan tanishtirish tavsiya etilmaydi.

O'quvchilar jo'nalish kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining yozilishi tushuntiriladi: a) oxiri jarangsiz undosh bilan so'zlarga jo'nalish kelishik qo'shimchasi –ga qo'shilganda talaffuzda –ka eshitilishi, ammo aslicha yozilishi tovush harf tomonidan taxlil qilish bilan tushuntiriladi. b) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi oxiri k undosh bilan tugagan otlarga –ka shaklida qo'shiladi, oxiri q undosh bilan tugagan -qa tarzida qo'shiladi.

O'quvchilar o'rin-payt kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, kelishik qo'shimchasida –da ning –ta bo'lib eshitilsa ham da shaklida yoziladi.

O'quvchilar chiqish kelishigining xususiyatlar bilan ham reja asosida tanishtirilib, ularga kelishik qo'shimchasining yozilishi tushuntiriladi.

Kelishiklar haqidagi malakani shakllantirish ustida ishlashning samaradorligini ta'minlaydigan shartlar maqsadga muvofiq mashq tanlash, mashq materialini asta murakkablashtira borish bilan o'quvchilarning mustaqilligini oshirish, imloni grammatik bilimni takomillashtira borish, o'quvchilarning nutqini o'stirish bilan bog'lab o'rgatishdir.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ot kompleks ravishda o'rganiladi va uni o'rganish o'quvchilar shu so'z turkumining belgilarini, funktsiyasini o'zlashtirishiga, shuningdek ularda kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

1.5 Sifatni o'rganish metodikasi

Reja:

1. Sifatni o'rganish izchilligi.
2. Sifatni o'rganishga tayyorgarlik bosqichi.
3. Sifat tushunchasini shakllantirish bosqichi.
4. Sifatning ma'no turlari bilan tanishtirish.

5. Sifatlarning imlosini o'rgatish.

Sifatni o'rganish sistemasi materiali leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borish ko'zda tutadi. O'quvchilar 1-sinfda sifatning leksik ma'noni ko'zatadilar, sifatga qanday? qanaqa? So'rog'ini berib o'rganadilar; 2-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rgangan 3-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda –roq qo'shimchasi bilan yasalgan qiyosiy va ortirma darajadagi sifatning yozilishi o'rgatiladi (termin aytilmaydi). Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi sifatlar bilan boyitiladi, oldindan ma'lum bo'lgan sifatning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat, predmetning belgisi (rangi, shakli, hajmi, ko'rinishi, maza, ta'mi, hidi, o'rni va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi. Sifatni tushunish uchun 1-sinfdayoq bolalar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (termin aytilmaydi).

. Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning simantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashning leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) rejada olib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda "sifat" mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1. Sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-sinf). 2. Sifat haqida tushuncha berish. (2-sinf). 3. Shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatning yozilishini o'zlashtirish (3-sinf).

Sifat bilan dastlabki tanishtirish. (1-bosqich) sifatining leksik ma'nosi va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib uni rangi mazasi, shakli, xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi. O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, qanday? Olma-qizil, shirin, yumaloq olma. Suhbat asosida o'quvchilar olma so'zni nima? So'rog'iga javob bo'lib predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so'zlar qanday? So'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisini bildirishini aniqlaydilar, xulosa chiqariladi. Qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi rolini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatning tushurib qoldirib, so'ngra sifatleri bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Bu darslarda ko'rgazmalaridan keng foydalanadi.

O'quvchilar qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zlashtirishlari uchun quyidagi mashqlardan foydalaniladi: 1. So'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash. 2. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish. 3. Matndan kim? Yoki nima? So'rog'iga javob bo'lgan so'zni tanlab aytish va yozish. 4. Tayanch so'zlar va rasm asosida gap va hikoyacha tuzish.

2-bosqichda asosan 2 vazifa: "Sifat" tushunchasini shakllantirish hamda

o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi.

Sifatlarning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilaruning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ko'rsatadilar. a) predmet belgisini bildiradi. b) qanday yoki qanaqa? So'rog'iga javob bo'ladi v) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun: 1. Berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish. 2. Berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash; ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi (tulki) 3. Predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi fikrini aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta o'zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonimlar ustida ishlash, o'qish darslarida o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardang ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

3-bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda –roq qo'shimchasi bilan qo'llanilgan sifatlarni va ko'm-ko'k, yam-yashil sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilarning nutqini o'stirishga qaratiladi. Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda tanlab qo'yish, gapda sifat bilan bog'lanish otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda –roq qo'shimchasi bilan qo'llanilgan yaxshiroq, aqilliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariqiq kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi oshgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish asoslaniladi.

Fe'lni o'rganish metodikasi

Reja:

1. "Fe'l" mavzusini o'rganishdagi asosiy vazifalar.
2. Fe'lni o'rganishdagi izchillik:
 - a) 1-sinfda fe'l ustida ishlash;
 - b) 2-sinfda fe'lni o'rganish;
 - v) 3-sinfda fe'lni o'rganish;
 - g) 4-sinfda fe'lni o'rganish.

Fe'l ustida izchillik bo'limlar orasidagi bog'lanish, programma materialining hajmi, uni har bir sinfda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

“Fe'l” mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'ldan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim orfografik qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bog'liq holda hal etiladi.

Fe'lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligini hisobga olinadi.

Fe'lni o'rganishda izchillik. 1-sinfda fe'l ustida ishlash o'rganish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilarning diqqati fe'lning leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig'iladi. Fe'l ustida ishlash mashqlarini “Alifbe”dagi so'z va mashqlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmunga mos so'zlar bilan to'ldiradilar nima qiladi?... (etiladi), daraxt barglari nima qiladi?... (sarg'aya boshlaydi), bolalar nima qilayaptilar?... (dam olayaptilar)... (o'ynayaptilar)... (ishlayaptilar).

Fe'lni o'rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so'zlar mavzusini o'rganishdan boshlanadi. (1-sinf, o'quv yilining 2-yarmi), fe'l leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qilayapti?) yugurayapti, arralayapti, sakrayapti, (nima qildi?) yugurdi, arraladi, sakradi, (nima qiladi?) yuguradi, arralaydi, sakraydi kabi misollardan foydalanish bilan o'quvchilar o'zlari bajargan harakatlarni aytishni so'rab, ular bergan javobni (fe'lni) so'roqlari bilan doskaga yozib, suhbat o'tkazish bilan tushuntiriladi. Bolalarni so'roq berish bilan holat bildiradigan uxlayapti, o'ynayapti, faxrlanadi kabi fe'llarning ham tanlashga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o'quvchilarda predmet harakatini keng ma'noda tushunish ko'nikmasini shakllana borishiga yordam beradi.

Dastur o'quvchilarda so'zlarga so'roq berib, ularni bir-biridan farqlash ko'nikmasini shakllantirishni talab etadi. Buning uchun o'quvchi fe'lning har xil formalaridan foydalanib, maxsus mashqlar o'tkazadi. Nima? So'rog'iga javob bo'lgan so'z bilan nima qildi? (nima qilayapti? Nima qiladi?) so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar taqqoslanadi: nima? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlar esa predmet bildirishi, nima qildi? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlar esa predmet harakatini bildirishi aniqlanadi. Taqqoslash ot va fe'lni ajratishga o'rgatadi. Ularning nutqda bir-biriga ta'sir etishini aniqlashga imkon beradi.

Fe'lga so'roq berishga o'rgatish yuzaki bo'lmasligi o'quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, nima qildi? Nima qilayapti? Nima qilmoqchi? So'roqlarini berishni bilishlari zarur. Bunday so'roqlarga javob berishga o'rgatish o'z navbatida, fe'l zamonlarini o'rgatishga tayyorlash demakdir.

1-sinfda morfologik so'roq so'z nimani bildirishini aniqlash maqsadida beriladi. O'quvchilarni so'zga so'roq berishga, o'qituvchi bergan so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni tanlashga so'zni so'roqda mos ravishda o'rgatishga (nima qildi? –o'qidi, nima qilamiz? –o'qiymiz, nima qilmoqchi? –o'qimoqchi) kabi o'rgatiladi.

2-sinfda fe'lni o'rganish.

3-sinfda fe'lni o'rganish.

Bu bosqichning asosiy vazifasi “fe'l –so'z turkumi” degan tushunchani shakllantirish, bo'lishliva bo'lishsiz fe'llarning ma'nosi va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasining talaffuzi va imlosini o'rgatish hisoblanadi.

Fe'lning harakat bildirishi yuzasidan o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni bolalarning o'zlari bajaryotgan ish-harakatni aytishni so'raydi, suhbat o'tkazadi. Suhbatda “O'qituvchi nima qildi? O'quvchilar nima qildilar? Hozir o'qituvchi nima qilayapti? O'quvchilar nima qilayaptilar? Endi o'quvchilar nima qiladilar? O'qituvchi nima qiladi?” kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o'qituvchilar o'qituvchi rahbarligida fe'llarni so'rog'i bilan yozib boradilar. Masalan, nima qildi? So'zladi, tushuntirdi; nima qildilar? Tingladilar, yozdilar; nima qilayapti? Tushuntirayapti, so'rayapti, tinglayapti, nima qilayaptilar? Javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? Tekshiradi, ko'radi; nima qiladilar? Ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.

Suhbat va o'quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo'lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi? Nima qilayapti? Nima qiladi? Kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlar fe'l deyiladi.

Fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Mavzu yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish uchun so'roq berib fe'lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe'lni tanlab qo'yish, aralash berilgan so'zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Dasturga ko'ra bu sinfda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar o'rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat o'qish darsida kimlar o'qidi? Rahim ham o'qidimi? Kim so'zladi? Ravshan so'zladimi? Ra'no kutubxonaga boradimi? Abdulla-chi? U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Halima gapirayaptimi? Savollaridan ham foydalaniladi. O'quvchilar so'roq berib fe'llarni topadilar, ma'nosini qiyoslaydila va o'qituvchi rahbarligida tushuntiradilar. Xulosa chiqariladi: fe'l harakatning yuzaa chiqqanini, ya'ni bajarilganligini (o'qidi, so'zladi, hozir bajarilayotganini (tushuntirayapti), endi bajarilishini (boradi) bildiradi. Bu fe'llar bo'lishli fe'llar deyiladi. Ayrim fe'llar harakatning bajarilmaganligini (o'qimadi, so'zlamadi), hozir bajarilmayotganini (o'qimayapti), keyin ham bajarilmasligini (bormaydi) bildiradi. Bunday fe'llar bo'lishsiz fe'llar

deyiladi.

O'quvchilar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni so'roqlari bilan ikki ustun shaklida yozadilar va so'roqlarini bo'lishsiz fe'l qanday hosil bo'lganini aytadilar. O'quvchilar bilimli mashqlar bilan mutahkamlanadi, bo'lishsizlik qo'shimchasi – ma, -mi shaklida talaffuz qilinsa ham, doim aslicha –ma, -mi shaklida yozilishi tushuntiriladi. O'quvchilarda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ma'nolarga qarab farqlash ko'nikmasini o'stirish uchun bo'lishli fe'ldan bo'lishsiz fe'l hosil qilish, bo'lishsiz fe'llarning talaffuz va yozilishini qiyoslash, bo'lishsiz fe'llar bilan gaplar tuzish mashqlaridan foydalaniladi.

4-sinfda fe'lni o'rganish.

Bu sinfda fe'lni o'rganishning vazifasi:

1. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamon qo'shimchasi bilan o'zgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikma hosil qilish fe'lning leksik ma'nolari, bo'lishli va bo'lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2. Nutqda fe'ldan ongli foydalanish masalasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda sinonim va antonim fe'llarning matn bilan bog'liq holda va ko'chma ma'noda ishlatilgan fe'llar bilan tanishtirib borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.

3. O'tgan zamon qo'shimchasining talaqquzi va yozilishi haqidagi ko'nikmani hosil qilish.

4. Qo'shma fe'llar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikmani hosil qilish hisoblanadi.

Fe'l zamoni formasining mohiyati ish-harakat qachon bajarilishini, ya'ni ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda, undan oldin va keyingi bajarilishini taqqoslash asosida ochiladi. O'quvchilar o'zlari bajargan yoki bajarayotgan harakatlarni kuzatadilar, shuningdek, keyin nima qilishlarini muhokama etadilar. Xuddi shunga o'xshash kuzatishni tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar yuzasidan ham o'tkazadilar. Bu mavzu bahorda o'tiladi. Shuning uchun bolalar kuzatish asosida Bahor keldi. O'rik, olcha gulladi. Gullar ochilayapti. Endi gilos pishadi. Bahordan so'ng yoz keldi. Yozda u lagerga bormoqchi kabi gaplar tuzadilar.

Gapdagi fe'llarga so'roq berib, ish-harakatining bajarilishi payti, ya'ni ish-harakat bajarilayotganini (nima qilyapti? o'qiyapti, ochilyapti), oldin bajarilganini (nima qildi? o'qidi, keldi, gulladi) va keyin bajarilishi (nima qilmoqchi? Yodlamoqchi, bormoqchi) aniqlanadi. Aniq kuzatish asosida yig'ilgan bu leksik materiallar o'qituvchi rahbarligida umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi.

1. Fe'llar zamon bilan o'zgaradi. Fe'l uch zamonnini bildiradi: hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon.

2. Hozirgi zamon fe'llari nima qilyapti? so'rog'iga javob bo'ladi, hozirning o'zida, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtda bajarilayotgan harakatni bildiradi.

3. O'tgan zamon fe'li nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning oldin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bajarilganini bildiradi.

4. Kelasi zamon fe'li nima qilmoqchi? so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning keyin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi. boshlang'ich sinf o'quvchilari fe'l zamonlarini unga beriladigan so'roqdan bilib oladilar.

So‘roqdan uning leksik ma‘nosi ham bilinib turadi.

Fe‘lning zamon formasini yasash va bilib olish uchun o‘quvchilarni so‘roqlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish uchun avval kollektiv ravishda ishlanadi va o‘quvchilar e‘tibori so‘roq bilan fe‘l zamonining bog‘lanishini aniqlashga qaratiladi. Zamon formasini hosil qilish uchun fe‘lning ikkinchi shaxs-birlik formasi asos qilib olinadi (Boshlang‘ich sinflarda fe‘lning bosh formasi o‘rganilmaydi).

Fe‘lga so‘roq berish bilan fe‘l zamoni hosil qilinadi.

Bir fe‘ldan uch zamoni hosil qilib, ularni taqqoslash mashqi fe‘lning zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun “Fe‘l” mavzusini o‘rganish jarayonida fe‘lni zamon qo‘shimchasi bilan o‘zgartirish mashqi muntazam o‘tkazib boriladi.

O‘quvchilarni fe‘l zamonlarini ongli qo‘llashga o‘rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe‘l zamonini aniqlash va biror fe‘l formasidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe‘l zamonini o‘zgartirish, fe‘llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi.

Dasturga ko‘ra, bu sinfda fe‘llarda shaxs-son haqida tushuncha beriladi. O‘quvchilarda o‘zbek tilida 3 shaxs: so‘zlovchi (1-shaxs), tinglovchi (2-shaxs), o‘zga (3-shaxs) mavjudligi haqida dastlabki ko‘nikma “Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi” va “Kishilik olmoshlari” mavzulari o‘rganilayotganda hosil qilingan. “Fe‘llarda shaxs-son” mavzusi shu ko‘nikmaga asoslangan holda tushuntiriladi.

Suhbat asosida kishilik olmoshlari 3 shaxsni, birlik va ko‘plikni bildirishi eslatilgach, o‘quvchilarga men olmoshini qatnashtirib gap tuzish topshiriladi. Ular tuzgan gap o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi (Men kitobni o‘qidim). O‘quvchilar men 1-shaxs birlikda kishilik olmoshi ekanini aytadilar; o‘qidim fe‘lini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qilib, o‘qi- o‘zak- di- o‘tgan zamon qo‘shimchasi, -m – ham qo‘shimcha ekanini aniqlaydilar. O‘qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: ish-harakat so‘zlovchi (1-shaxs), tinglovchi (2-shaxs), o‘zga (3-shaxs) tomonidan bajarilishi mumkin; ikkinchidan, ish-harakat yakka (bir) yoki bir necha shaxs tomonidan bajarilishi ham mumkin. Fe‘llarga qo‘shilib, ish-harakatni bajargan shaxsni va sonni (ko‘plik va birlikni ham bildiradigan qo‘shimchalar bor. Masalan, o‘qidim fe‘lidagi –m qo‘shimchasi shunday ma‘noni bildiradi, u shaxs-son qo‘shimchasidir. Chunki –m o‘qish harakatini bajara shaxsni (1-shaxsni) va sonini (bir kishi bajarganini) bildiriyapti, ya‘ni ham shaxsni, ham sonni ifodalayapti. O‘qituvchi (xattataxtaga yozilgan gaplarni ko‘rsatib) “Nuqtalar o‘rniga gapning mazmuniga mos bo‘lgan fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchasini topib qo‘yib, gaplarni o‘qish” vazifasini topshiradi. Mashq o‘qituvchi rahbarligida birgalikda bajariladi.

Suhbat asosida xulosa chiqariladi: Fe‘llar shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanadi. Shaxs-son qo‘shimchalari zamon qo‘shimchalaridan keyin qo‘shiladi.

Fe‘llarda shaxs-son haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun mazmunga mos shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘yish, berilgan fe‘llarni hozirgi, o‘tgan, kelasi zamonda shaxs-son qo‘shimchasi bilan tuslash, fe‘llarni so‘z turkumi jihatdan tahlil qilish mashqlaridan foydalanadi.

Bu sinfda qo'shma fe'llar va ularning yozilishi haqida ham ko'nikma hosil qilinadi. Mavzuni tushuntirish uchun qo'shma fe'llar ko'proq bo'lgan matn tanlanib, matnni o'qish, so'roq berib fe'llarni topish, nechta so'zdan tuzilganini va qanday yozilganini aytish topshiriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida vazifani bajaradilar. Suhbat yordamida xulosa chiqariladi: ba'zi fe'llar ikki va undan ortiq so'zdan tuziladi, bitta so'roqqa javob bo'ladi (nima qildi? ko'rib qoldi, olib chiqdi kabi). Bunday fe'llar qo'shma fe'llar deyiladi. Qo'shma fe'llar alohida yoziladi.

Qo'shma fe'llar va ularning yozilishi haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun matndagi qo'shma fe'llarni topish va yozilishini tushuntirish, berilgan fe'llardan qo'shma fe'llar yasash, qo'shma fe'llar bilan gap tuzish mashqlaridan foydalaniladi.

Tayanch so'zlar: bo'lishli fe'l, bo'lishsiz fe'l, kesim, o'tgan zamon, qo'shma fe'l, kelasi zamon, shaxs-son qo'shimchasi tuslanish.

Olmoshni o'tish metodikasi

Reja:

1. Kishilik olmoshlari haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish.
2. Kishilik olmoshlarining turlanishini o'tish.
3. Kishilik olmoshlarini imlosi ustida ishlash.
4. Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash.

Boshlang'ich ta'limda faqat kishilik olmoshlarini o'rganiladi. 4-sinfda kishilik olmoshlari haqidagi dastlabki umumiy tushuncha beriladi; ularning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi va imlosi o'rgatiladi.

Kishilik olmoshlari bilan o'quvchilarni tushuntirishda predmetni nomlamasligi, ular faqat ko'rsatish uchun xizmat qilishi bilan tanishtiriladi. Boshlang'ich sinfda kishilik olmoshlarini ot bilan almashinib qo'llanishiga alohida to'xtalinmaydi. Chunki men, sen olmoshlari hech qachon ot bilan almashinib qo'llanmaydi: men o'qiyapman, sen o'qiyapsan deyish mumkin, lekin Salima chiqyapman, Salima o'qiyapsan, qiz tikiyapman tarzida qo'llanmaydi. Lekin III shaxs kishilik olmoshi ot bilan almashinib qo'llanmaydi: qiz tikiyapti – u tikiyapti. O'qituvchi kishilik olmoshlari bilan tanishtirayotganda shunga diqqat qaratish lozim. Kishilik olmoshi haqidagi dastlabki ma'lumot badiiy asardan keltirilgan og'zaki nutqqa doir misollarni kuzatish va tahlil qilish orqali beriladi.

Kishilik olmoshlarini o'rgatish jarayonida o'quvchilarda quyidagi bilim va ko'nikmalar hosil qilinadi; va men, sen, u, biz, siz, ular kishilik olmoshlari, ular kim so'rog'iga javob bo'ladi; kishilik olmoshlari so'z turkumi; kishilik olmoshlari 3ta shaxsni birlik va ko'plikda ifodalaydi; -ni,-ning, qo'shimchalari men, sen olmoshiga qo'shilganda o'zakdagi n tushib qoladi; u olmoshiga –ga, -da, -dan, qo'shimchalari qo'shilsa bir n tovushi orttiriladi kabi bilimlar; olmoshlarni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash, ularni kelishikli holatda to'g'ri yozish, so'roqlar yordamida aniqlash va farqlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

Olmosh so'z turkumi suhbat, yarim izlanishli muammoli metod, induktiv metodlarda tushuntiriladi. Bu metodlarning qaysi birida tushuntirilsa, shunga mos

usul va ish turlari tanlanadi. O'quvchilar olmoshlarning kelishik bilan qo'llanishini hali o'rganmagani uchun dastlabki tanishtirishda bosh kelishikdagi olmoshlar qatnashgan gap tanlanadi.

Kishilik olmoshlarini o'rgatish uchun quyidagi misollar asosida suhbat o'tkazish mumkin.

Men o'rtoqlarim bilan suhbatlashdim.

Sen kelsang, men shu yerdaman, deb qo'y...

U kela qolsa, gaplarimni aytsam!

Birinchi gap o'qitiladi.

-Bu gap kimga tegishli? (Yayraga)

-Kim suhbatlashdi? (Yayra)

-Men so'zi o'rniga Yayra so'zini qo'yib aytish mumkinmi? (Yo'q.. Bolalar qo'yib o'qib ko'radi va ishonch hosil qiladi). Harakatni kim bajaryapti? (Men). Men so'zi qaysi so'roqqa javob bo'ladi? (Kim?) U gapda qaysi bo'lak vazifasida kelyapti? (Ega)

Ikkinchi gap o'qitiladi:

-Bu gapni kim aytyapti? (Yayra) U kimga murojaat qilyapti? (O'rtog'iga) Qaysi so'z o'rtog'i so'zini bildiriyapti? (Sen) Sen so'zi qachon qo'llanar ekan? (Biror murojaat qilganda qo'llanadi). Sen qaysi suroqqa javob bo'ladi? (Kim?) Uqaysi gap bo'lagi vazifasida kelyapti? (Ega).

Uchinchi gap yuzasidan taxminan quyidagicha savollar beriladi: -Bu gap kimga tegishli? (Bolaga) Bu predmetning nomi aytilyaptimi? (Yo'q) Bola so'zi o'rnida qaysi so'z kelyapti?(U) Bu so'z qachon qullanar ekan?(Fikr biror shaxs haqida (kim haqida) borsa qo'llanadi) Demak, bu gapda shaxs nomi qo'llanmayapti, uni, ko'rsatuvchi so'z qo'llanayapti.

Shundan so'ng suhbat quyidagicha umumlashtiriladi: Predmetni nomlamay uni ko'rsatayotgan so'zlarni sanang (Men, sen, u) Ular qanday so'roqqa javob bo'lyapti? (Kim?) U qaysi gap bo'lagi vazifasida kelyapti? (Ega)

O'quvchilar javobiga aniqlik kiritiladi: Men, sen, u –so'z turkumi. Bu so'z turkumining nomi olmosh deb yuritiladi. Men, sen, u –kishilik olmoshlari. Men –I shaxsni, sen- II shaxsni, u- III shaxsni ko'rsatadi. Shundan so'ng biz, siz, ular olmoshlari yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Kishilik olmoshlarining birlik va ko'pligi taqqoslash orqali tushuntiriladi va qachon men, sen, u, qachon biz, siz ular ishlatilishi ustida ishlanadi. Egalik qo'shimchalari ifodalaydigan 3 ta shaxs: so'zlovchi(men), tinglovchi (sen), o'zga (u) eslatiladi va u kishilik olmoshlari bilan bog'lanadi. Olmoshning gapda ega vazifasida kelishi aytiladi.

Kishilik olmoshlarining ko'pligini tushuntirishda” biz Vatan haqida ko'p maqollar bilamiz? Siz ham shunday maqollardan bilasizmi? Tarzidagi gaplardan foydalanish mumkin. O'quvchilarning kishilik olmoshlari yuzasidan olgan tushunchalari bir necha dars davomida mustahkamlanadi. Bunda kishilik olmoshlariga so'roq berish, qaysi so'roqlarga javob bo'layotganini aniqlash, matndan kishilik olmoshlarini topish, ularni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirish, kishilik olmoshlari ishtirokida gap tuzish, ularni gapda qanday bo'lak bo'lib kelayotganini aniqlash, kishilik olmoshlarining shaxs-sonini aytish, berilgan fe'llarga mos kishilik olmoshlarini tanlash va gap tuzish. (Onamga yordam berdim.

Onangga yordam berdingmi? Onasiga yordam berdimi?) kabi topshiriqli mashqlar bajariladi. Ayrim matnlar shaxsini o‘zgartirib ijodiy qayta hikoyalatiladi.

1.5.1 Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o‘tish

Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o‘tishdan oldin shu mavzuni o‘quvchilar ongli o‘zlashtirishlari uchun doskaga kelishiklarga doir jadval osib qo‘yiladi.

№	Kelishiklar nomi	Qo‘shimchasi	So‘roqlari
1	Bosh kelishik	-	kim? nima?
2	Qaratqich kelishigi	-ning	kimning? nimaning?
3	Tushum kelishigi	-ni	kimni? nimani?
4	Jo‘nalish kelishigi	-ga,-ka,-qa,	kimga? nimaga?
5	O‘rin-payt kelishigi	-da	kimda? nimada?
6	Chiqish kelishigi	-dan	kimdan? nimadan?

Jadval asosida suhbat metodida kelishiklar haqidagi o‘quvchilar bilimi eslatiladi va ularning yangi mavzuni o‘rganishlarigazamin tayyorlanadi: Nechta kelishik bor? Nomini, qo‘shimchasi va so‘rog‘ini ayting. Kelishiklar qaysi so‘z turkumiga qo‘shiladi? Kelishik qo‘shimchalari qanday vazifa bajaradi? Misollar bilan tushuntiring. O‘quvchilar aytgan bitta gap doskaga yozdiriladi va tahlil qilinadi:

Bilim davlatdan qimmat. (Maqol.)

Davlatdan-ot, chiqish kelishigi qo‘shimchasini olgan, bu-dan qo‘shimchasi otni qimmat so‘ziga bog‘lagan. O‘quvchilar javobi umumlashtiriladi.

Shundan so‘ng oldindan doskaga yozib qo‘yilgan darslikdagi 270-mashq ustida ishlanadi:

-O‘qing. Tagiga chizilgan so‘z qaysi turkumga kiradi? Shu so‘z qaysi shaxsni bildiradi? Bizni olmoshi qaysi qo‘shimcha bilan qo‘llangan? Bu qo‘shimcha biz olmoshini qaysi so‘zga bog‘lagan? Ularni birlikda yozing: Bizni olib bordilar. Kelishik qo‘shimchasini va bog‘lanishini tegishlicha belgilang. Kelishik nomini qisqartirib tepasiga yozing.

Ikkinchi gapni o‘qing. Olmoshni qaysi qo‘shimcha olganini ayting. Qaratqich kelishigi otni qaysi so‘zga bog‘lagan? Ularni birikma tarzida yozing: Bizning ko‘z o‘ngimizda va qo‘shimchani, so‘zlarni bog‘lanishini belgilang.

Qolgan gaplar ham shu tahlitda bajariladi. Doskaning bir tomonida quyidagi birikmalar yuzaga keladi:

- Bizni olib bordilar
- Bizni ko‘z o‘ngimizda
- Bizga gapirib berdi
- Biz tingladik
- Bizda qoldirdi

O‘quvchilar javobi yana suhbat yo‘li bilan umumlashtiriladi: Kishilik olmoshlari

qaysi qo‘shimchalarni oladi? Qaysi kelishik qo‘shimchalari olmoshga qo‘shilib keladi? Bu qo‘shimchalar olmoshlarni qaysi so‘zlarga bog‘laydi? (boshqa so‘zlarga) Kelishik qo‘shimchasini olgan bizni, bizning, bizga, bizda qaysi so‘roqlarga javob bo‘lyapti? Ular gapda qaysi bo‘lak bo‘ladi? (2-darajali bo‘lak) Biz olmoshiga so‘roq bering, u qaysi kelishikda? Gapda qaysi bo‘lak bo‘lib kelyapti? (Ega)

O‘quvchilar javobi aniqlashtiriladi; Kishilik olmoshlari ham kelishik qo‘shimchalarini oladi. Kelishik qo‘shimchalarini olganda olmoshlar turlanadi. Tushum, qaratqich, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigidagi olmoshlar 2-darajali bo‘lak bo‘lib keladi. Bosh kelishikda esa ega vazifasini bajaradi: Biz mehnatni sevamiz.

Kishilik olmoshining kelishiklar bilan turlanishi haqidagi tushuncha mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Bunda kishilik olmoshlarini qaysi kelishikda ekanligi, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chirish, shaxs-sonini aniqlash, chiziqchalar o‘rniga topshiriqqa mos olmoshlar qo‘yish (El II shaxs, birlik, jonalish, k.) chozsa qol (III shaxs, birl, jon. k) doim sodiq bol.) ot o‘rnida qo‘llangan olmoshlarni aniqlash., ijodiy matnlar tuzish kabi topshiriqli mashqlar bajariladi.

Keyingi daoslarda o‘quvchilarning kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi paytidagi imlosini o‘zlashtirishlariga, ijodiy yozma ishlar uyushtirishga va ularda kishilik olmoshlaridan to‘g‘ri foydalanib nutqni uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashlariga, shuningdek, nutqda kishilik olmoshlaridan o‘rinsiz va tinimsiz foydalanishlarini bartaraf etishlariga qaratiladi. Kishilik olmoshlarini o‘rinsiz ko‘p ishlatishlarini bartaraf etish uchun o‘quvchilarning ijodiy yozma ishlari: bayon va insholari o‘qib berilib, tahlil qilinadi.

O‘quvchilar nutqida kishilik olmoshlarini man, san tarzida sheva ta’siriga berilib talaffuz qilish holatlari uchraydi, kishilik olmoshlariga ajratilgan darslarini yana bir vazifasi shu kabi kamchiliklarni yo‘qotishdir.

O‘quvchilar kishilik olmoshlaridan nutqda to‘g‘ri foydlalanishga o‘rgatish nutqiy g‘alazlikni, talaffuzdagi yoqimsizlikni bartaraf etadi.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash.

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish. Bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o‘rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug‘aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o‘rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til aloqa vositasi – so‘zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ruyobga chiqqan fikrni anglatadi.

Ona tili fani o‘qituvchilarni fikr bayon qilish va uni o‘qib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ruyobga chiqar ekan, har bir kishi tilni va undan

foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik – qonun qoidalarini, ta’rifini o’zlashtirishgina emas, balki ona tilning boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilishdir, ya’ni fikrini og’zaki va yozma shaklda to’g’ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili dasrlarida lug’at ustida ishlashga alohida e’tibor qaratish lozim.

Lug’at ishida so’zning ma’nosi talaffuzi va imlosi e’tiborda tutiladi. Shular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o’quvchilarning nutqda foydalanishlariga erishish, o’zgalar nutqini anglashlarini ta’minlashdir. Buning uchun o’qituvchi ona tili dasrlarida qo’llangan har bir so’zning, ta’limiy jarayonlarda: ekskursiya, o’zaro suhbat, turli tadbirlarda, ishlatilgan so’zlarning ma’nosiga e’tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olish kerak.

Tilning lug’at boyligini o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi uchun ona tili dasrlarida so’zlarning quyidagi ma’nolari bilan tanishtiriladi.

1. O’quvchilarni notanish so’z va iboralar bilan tanishtirish.

O’quvchilar darslikdagi so’z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo’lishi mumkin. Bu so’z yangi paydo tbo’lgan so’z bo’lmasa ham o’quvchi uning ma’nosini bilmaydi, demak, o’quvchi uchun yangi so’z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf “Ona tili” darsligida xabib (do’st) darparda (oyna o’rniga shaffof qog’oz yopishtirilgan deraza parda), (mag’rur (kekkaygan, mag’rur-kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, to’kis, kamol topmoq-xazon bo’lmoq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do’st, birodar, qarindosh-urug’), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), xavza (daryo va ko’llarga qo’yiladigan, uni tashkil etadigan irmoqlar yoki majmui rasm ko’rsatiladi), sarkarda (qo’mondon, lashkarboshi), zeb (bezak, ko’rk, husn), ziynat (go’zallik uchun xizmat qiluvchi buyum), qasr (xashamatli saroy, ko’shk) kabi so’zlarga duch keladilar. Bunday so’zlarning ma’nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo’li bilan qarshi ma’noli so’zlar bilan izoh berish, gap tuzish orqali ma’nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish mumkin. Bunday ishlash o’quvchilarda so’z ma’nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O’quvchilarni so’zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish. O’quvchilar ko’p ma’noli so’zlarning bir ma’nosini tushunsa, boshqa ma’nosini bildirmasliklari mumkin. Bolalar so’zlarning hamma ma’nolarini birdaniga o’zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma’nosini o’zlashtirish bosqichma bosqich amalga oshiriladi. 1-2 sinfda ko’p ma’noli so’zning bir-ikki ma’nosi bilan tanishsa, 3-4-sinflarda yana boshqa ma’nolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlarini: fonetika, leksika, so’z tarkibi, morfologiya, sintaksis (boshlang’ich sinfda bu bo’limlar “Tovushlar va harflar”, “So’z”, “Gap”, “Bog’lanishli nutq” deb nomlanadi)ni o’rganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, ma’nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma’noli so’zlarning ma’nolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. 1-sinf ona tili darsligida fikr buzuq-ko’chma ma’noli ibora berilgan, uni soat buzuq birikmasi bilan taqqoslang. Qaysi birikma boshqa ma’noda qo’llanayapti? (soat buzuq) Qaysi birikma boshqa ma’noda qo’llanayapti? (fikri buzuq). Fikri buzuq birikmasi qanday ma’noni ifodalayapti? Bolalar o’ylab, niyati yomon kishilarni fikri buzuq deyishadi deb izoh beriladilar. Ko’rinadiki, taqqoslash usuli so’z

ma'nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. Quloch otib, tanbeh yedi, ko'zi o'ynar, qalbi olov, til topishdi, rohatini totdi iboralarining ma'nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

T. G'afforova va b. "Ona tili", T., "O'qituvchi", 2001 yilgi nashr.

1-sinf darsligida Xiva ona tarix tilmochi, ...bilan egachi, urush yo'lini taqqa bektidik, biz ma'nosiga zeb bersak, rediskaga akaman, karvon bo'lib kelamiz (Turnalar), chehrasiga tabassum yugurdi, bahor oq bulutni yetaklab ketdi, 2-sinf darsligida dov-daraxtning soch-soqolini qirishdi. Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o'quvchini til zar, uni tilida qo'llovchi zargar bo'lishiga undaydi.

3. O'quvchilar tilida kam qo'llaniladigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash. Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llaniladi. Bu so'zning ma'nosini o'quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o'rnida oddiy so'zlarni qo'llaydi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqida qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirish zarur. Masalan, jim –tinch, -osuda-osoyishta, yurakdan-dildan, soat strelkasi-soat millari, -garmdori-qalampir, minut-daqiqa, rayon-tuman kabi.

So'zlarning qo'llanishini faolashtirish uchun yozma ishlar o'tkazilayotganda ham o'quvchilar e'tiborini ayrim so'zlarni boshqasi bilan almashtirishlari ta'kidlandi. Masalan, 1-sinfda rasmlar asosida og'zaki hikoya tuzayotgan o'quvchilarning nutq elementlari biri-biridan farqli bo'lishi –biri ikkinchisining so'zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, shirinsuxan so'zi o'rnida shirinso'z, nasim-tonggi yel (shamol), tanbeh berdi –dashnom berdi, zilol suv-tiniq suv, kichik mo'jaz, tik-adl, nafis-nozik, ishbilarmon –ishning ko'zini biladigan kabi...

Yozma bayon yozishga tayyorlanish jarayonida ham (2-sinf) so'zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so'zlar tanlashga e'tibor berish lozim.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta'sir qiluvchi ko'chma ma'nodagi badiiy ifodalar ko'p qo'llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishlash o'quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqiy adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash. Bunday so'zlar darslikda kam qo'llaniladi. Bunday so'zlarning bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lganlarini ajratib olib "Bilib qo'ygan yaxshi" rubrikasi ostida ishlansa o'quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

5. Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish. Grammatik atamalarning avvalo to'g'ri talaffuzi, imlosi o'rgatiladi. Shundan so'ng misollar asosida uni mazmuni ochiladi. Qoidani o'qitish va mashqlar bajarish orqali atama ma'nosini to'laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug'at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakli bir xil so'zlar ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi. Urush-urush: ikki kishining janjallashib qolishi –urish; ikki xalq, ikki davlat orasidagi jang-urush. Bu so'zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So'zlarning kuzatish usuli orqali so'zlarning imlosini, ma'nosini va talaffuzini o'rgatish. Bu usul o'zakdosh so'zlarni o'rganish jarayonida, ko'm-ko'k, oppoq, qip-qizil sifatlarining (qizil, oq, ko'k) ma'no nozikliklari, imlosi, talaffuzini

o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan: Gul: guldon, gulchi, gulzor, gulli, gulsiz, gulla so'zlarning tarkibini kuzatadilar. Bu so'zlar ma'nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so'zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shunday o'rinda o'qituvchi so'zlarni o'z so'ziga aylantirishi orqali aniq fikr yuritishga o'rganish o'quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o'zgarayotgan so'zlarning imlosini o'rganishda ham qo'llaniladi: og'iz+im –og'zim, singil+im-singlim, u+ga-unga.

3. So'zlarni belgilariga ko'ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo'lib, u ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so'zlarning anglatayotgan ma'nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog'liq. So'zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so'ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi: Masalan, qavm-qarindoshlik bo'yicha guruhlash:

1. Ota urug'i: ota, amaki, amma, dada, oppoqdada, buvi, buva.

2. Ona urug'i: ona, xola, tog'a, oyi, buvi, buva.

Sifatlarda a)xususiyat bildiruvchi sifat: sho'x, og'ir, bosiq, aqli, aqlsiz, xayoli, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va h. b)ta'm bildiruvchi sifat: shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r, mazali, bemaza, chuchmal va h.

Guruhlash musobaqa tarzida uyushtirilishi mumkin.

Ma'lum bir gurug'dagi so'zlar ro'yxatini tuzish ishini alfavit asosida yozdirish ham mumkin. Guruhlashda quyidagi topshirqlardan foydalanish mumkin.

1. Bolalar o'yinlari nomining lug'atini tuzing.

2. O'zingiz bilgan shoir nomlari ro'yxatini tuzing.

3. Ertak nomlari ro'yxatini tuzing.

4. Joy nomlari ro'yxatini tuzing.

5. Ohangdosh so'zlar ro'yxatini tuzing.

6. Ma'nodosh so'zlar ro'yxatini tuzing.

Bular o'rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog'liq holda tashkil etiladi.

So'zlarning izohli lug'atini sinf va maktab matnlariga bog'liq holda tashkil etiladi.

So'zlarning izohli lug'atini sinf va maktab miqyosida tuzib, osib, umumiste'molga kiritish mumkin.

“O'quvchilar pochtasi” tashkil etiladi. O'quvchilar qaysi so'zning ma'nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so'zni yozib yashikka tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so'zlar ma'nosi, imlosi izohi o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda sintaksis elementlari ustida ishlash metodikasi.

Reja:

1. Boshlang'ich sinflarda sintaksisga oid materiallarning berilish tizimi,
2. Gap ustida ishlash.

3. So‘z birikmasi ustida ishlash.
4. Gap bo‘laklari ustida ishlash.

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar:1) amaliy o‘rganiladigan; 2) nazariy o‘rganiladigan turlarga bo‘linadi. Sintaksis bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi va to‘rtinchi sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinfda “Bog‘lovsiz”, “Gap”, “Darak gap”, o‘quvchilarda “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Qo‘shma gap”, “Gap bo‘laklari”, “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “Undalma” mavzulari nazariy o‘rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o‘zlashtirilgani uchun tilni o‘rganishda gap ustida ishlash markaziy o‘rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ularning muhim kategoriyalarning tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O‘quvchilar ona tili leksikasi ham gap negizida egallaydilar. So‘zning leksik ma‘nosi va uning qo‘llanish xususiyatlari so‘z birikmasi yoki gapda ma‘lum bo‘ladi. So‘z gapda bir ma‘noli bo‘ladi (gapdan tashqari bir necha ma‘no ifodalash mumkin).

Metodist olim T. G. Ramzayeva boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlashni o‘artli ravishda besh yo‘nalishga bo‘ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo‘lgan napning muhim belgilarini o‘rgatish).

2. Gap strukturasi o‘rgatish (so‘z birikmasida so‘zlarning bog‘lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarining xususiyatlari, yopiq va yig‘iq gaplar ustida ishlash).

3. O‘quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko‘ra turlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so‘zlarni aniq qo‘llash ko‘nikmasini o‘stirish.

5. Yozma nutqda gapni to‘g‘ri tuzib yozish, (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo‘yish) ko‘nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo‘nalishi bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o‘rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi.

Gapni o‘rganish va nutqda undan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi.

O‘quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug‘iladi. U o‘z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap“ mavzusi barcha sinflarda o‘rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O‘quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi-gap xaqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gapning uyushiq bo‘laklarini o‘rganishga o‘tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikir ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmuning asosini tashkil etadi.

Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazish ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda, gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko'ra 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan kim yoki nima haqida aytilganini va u hakda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlash yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadi. Ular gapning muhim belgilarini bilib oladilar. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim terminlari kiritiladi.

Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim) ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'zni)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishini bilib oladilar.

4-sinfda uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilimlar kengaytiriladi.

Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birichidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklar)ga bo'linishini o'zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarning aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyatini ochish uchun o'quvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap bo'lagiga bog'lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyati gapni yoyish (yig'iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko'rinadi. Masalan, o'quvchilar

Qaldirg'ochlar uchib keldi gapini yozadilar. Fikrni to'liq ifodalash uchun gapga qayerga? va qachon? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni qo'yish topshiriladi. O'quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo'lagi (ikkinchi darajali bo'lak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladilar.

O'quvchilarda gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko'nikmalar qatoriga kiradi. So'z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang'ich sinflarni uning muhim belgilari idrok qilinadi. "So'z birikmasi" atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta'rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur:

1. So'z birikmasi mazmun va grammatik tomondan bog'langan ikki so'z. Masalan, Dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadilar gapida ikki so'z birikmasi bor:

1) dunyo xalqlari; 2) tinchlik uchun kurashadilar.

2. So'z birikmasida bir so'z hokim ikkinchi so'z tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, tobe so'z shu so'roqqa javob bo'lgan so'zdir. Masalan, (qanday?) iqtidorli o'quvchilar (qayerga?) to'garakka a'zo bo'ldilar. Ega va kesim so'z birikmasi emas, ular gapning asosini tashkil qiladi.

Gap tarkibida so'z birikmalarni ajratish ko'nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun o'quvchilarning so'z birikmasidan bir so'zning boshqa so'zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi.

1. Gaplarni yoyish. Buning uchun gapning qaysi bo'lagi yoyishni talab qilishini aniqlash. Masalan, Daraxtlar gullabdi gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi, daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qanday so'zni qo'shish kerak? Bu so'z gapning qaysi bo'lagi bo'ladi? (Ikkinchi darajali bo'lak). U gapning qaysi bo'lagiga bog'lanadi? (tobelanadi?) (Kesimga bog'lanadi) Qachon gullaydi? (aprelda gullaydi) Gapga egani izohlaydigan yana bitta so'z qo'ying. Qanday gap hosil bo'ldi? (Mevali daraxtlar apreldv gullaydi).

2. So'zlar aralash berilgan gapni qayta tiklash. Avval gapning asoslari (ega va kesim) tiklandi (aniqlanadi), so'ng so'roqdar yordamida ikkinchi darajali bo'laklar (so'z birikmalari) "topiladi", tiklanadi. Masalan, Mashinada terimchi, teradi, paxtani.

-Gap kim haqida aytilgan?

(Terimchi haqida, Kim? terimchi)

U haqda nima deyilgan? (Teradi. Terimchi teradi-bosh bo'laklar).

-so'roqlar yordamida so'z birikmasini toping. Nimani teradi?(Paxtani teradi) Nimada teradi? (Mashinada teradi).

Keyin gapda so'zlarning qo'lay tartibi aniqlanadi. (Terimchi paxtani mashinada teradi). Gap ohangi ustida ishlanadi.

3. U zluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish. Mashqning bu turi ongli bo'lishi uchun har bir gapning bosh bo'laklarini va so'z birikmalarini ajratish lozim.

4. Gapni tahlil qilish va sxemani tuzish. Gap tahlil qilinayotganda dastlab

uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak, kesimni izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak, boshqa ikkinchi darajali bo‘lakni izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekin so‘z birikmalari aniqlana boradi.

5. O‘qituvchi bergan sxema yoki so‘roqlar asosida gap tuzish: kim? kimlarni? Nima qiladi? (Shifokorlar kasallarni davolaydi).

So‘z birikmasi ikki yo‘nalishda olib boriladi:

- 1) So‘z birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaraladi;
- 2) So‘z birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, soat-so‘z, oltinsoat, qo‘l soat, osma soat, elektron soat-so‘z birikmalari.

Quyida gapning bosh bo‘laklarini o‘rganish mavzusi namunasini keltiramiz.

II sinf.

MAVZU: Gap (gap asosini aniqlash)

Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilarda gap kim yoki nima haqida aytilganini (egani) va u haqda nima deyilgan so‘zni (kesimni) gapdan topish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. Nutqdan –gapni ajratish ko‘nikmasini o‘stirish.

Darsning borishi.

1. Uy vazifasi tekshiriladi.

2. Gap mavzusi esga tushiriladi.

O‘quvchilar diqqatiga quyidagi gaplar havola qilinadi.

1. O‘qituvchi bolalarni o‘qitadi.
2. Kuzda har xil mevalar pishadi.
3. Tikuvchi kiyimlarni tikadi.
4. O‘quvchilar kitoblarni sevib o‘qiydilar.

Matnda nechta gap berilgan?

1. Gap nimalardan tashkil topadi?

2. Og‘zaki nutqda biz bir gapni ikkinchisidan qanday ajratamiz?

3. Yozuvda gapni boshi va oxiri qanday belgilanadi?

O‘qituvchi yuqoridagi savol-javobdan so‘ng, o‘quvchilar javobini umumlashtiradi.

Demak, gap tugallangan mazmun bildiradi. Gap oxiriga uning mazmuniga qarab nuqta, so‘roq va undov belgisi qo‘yiladi. Gap so‘zlardan tuzilib, uning birinchi so‘zi bosh harfi bilan yoziladi.

3. O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini jadvalga qaratadi. Har bir gap quyidagicha tahlil qilinadi:

-Birinchi gapda kim haqida aytilgan?

-O‘qituvchi so‘ziga savol bering? (kim?) uning tagiga bir chiziq chizamiz. (O‘qituvchi flomaster yordamida jadvalga chizadi.);

-O'qituvchi haqida nima deyilgan?

-O'qitadi so'ziga savol bering (nima qiladi?) Uning tagiga ikki chiziq chizamiz (o'qituvchi chizadi).

-Ikkinchi gap nima haqida aytilganini qaysi so'z bildiriyapti? (Mevalar)-savol bering (nimalar?) tagiga chizamiz.

-Mevalar haqida nima deyilgan? (pishadi) tagiga chiziladi.

Shu tariqa keyingi gaplar ham tahlil qilinadi.

Shundan so'ng o'qituvchi tagiga chizilgan so'zlar gapning asosiy mazmunini bildirishini, yana shunday so'zlar ishtirokisiz so'zlardan loaqal bittasi ham gapda ishtirok etmasa, gap mazmuni jihatdan yakunlanmay qolishi yoki noaniq bo'lib qolishi tushuntiriladi. Uni misollar bilan ko'rsatadi.

Masalan, o'quvchilar maktabga boradilar gapida gapning asoslaridan biri o'quvchilar so'zi tushib qolsa, gapimiz noaniq bo'lib qoladi, o'quvchilar haqida nima deyilgan so'z tushib qolsa (boradilar), gap mazmuni ifodalanmaydi.

Darslikda qoida o'qitiladi.

3. Darslik bilan ishlash;

261-mashq yozma bajariladi.

O'quvchilar matnda nechta gap mavjudligini, gapning grammatik asoslarini o'qituvchi yordamida topadilar va ularning tagiga chizadilar.

262-mashq yuqoridagi mashq asosida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladi.(Bunda o'quvchilar ushbu mashqni maxsus mustaqil ish daftarlariga yozib o'qituvchiga topshiradilar.

4. Jadval asosida og'zaki mashq.

Kim?	bemorlarni davolaydi.
Nima?	sichqonlarni tutadi.
Nima?	yuk tashiydi.

O'qituvchi xattaxtaga qo'yish uchun kerakli bo'lgan so'zlarning rasmlarini qo'yadi (shifokor, mushuk, tuya).

O'quvchilar tayanch so'zlar yordamida gaplarni o'qiydilar va gaplar og'zaki tahlil qilinadi.

5. Taxminiy tayyorgarlik ko'rib bog'lanishli gap tuzib va uni yozish.

Video orqali "Bog'bonlarga yordam" lavhalari ko'rsatilib, hikoya yozish topshiriladi. Gap tuzishda har bir so'zni takroriy ishlatishning oldini olish uchun ma'nosi yaqin so'zlardan foydalanish tushuntiriladi, masalan, bolalar, qizlar, o'quvchilar, o'rtoqlar. Bu so'zlar doskaga katta harf bilan yoziladi.

6. Uyga vazifa 263-mashq. O'qituvchi uyga vazifani qanday bajarishni tushuntirib beradi. O'qituvchi tavsiya qilgan mavzu ("Paxta terimida", "Oila davrasida", "Onamga yordam" kabi) yuzasidan ikkita gap tuzadilar. Uning grammatik asoslarini topadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini puntuaktsiya bilan tanishtirish.

Ma'lumki, puntuaktsiya tinish belgilarni ishlatishi haqidagi qoidalar yig'indisi. "Puntuaktsiya ham yozuv kabi, kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi". Boshlang'ich sinflarda to'rtta tinish belgi: gap oxirida nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda puntuaktsiya ustida muntazam ish olib borishi zarur, chunki tinish belgilari fikrni aniq va tez o'qib olishga hamda o'zgalarga uqtirishga beradi".

Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilar bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi.

Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Puntuaktsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir etadi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi.

1-sinf o'quvchilariga savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar hali "Alifbe" o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuziladi.

O'qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida pasayishini tushuntiradi.

Bolalar, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, 3-5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o'rtasidagi to'xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to'g'ri talaffuz qilishini o'rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o'qishga oldindan tayyorlash uchun grafik sxemadan foydalaniladi. Masalan, bolalar gap tuzadilar, undagi so'zni sanaydilar va o'qituvchi rahbarligida chiziqcha bilan belgilaydilar: Biz ertakni sevamiz (). Yana boshqa gap tuzib, uni ham chiziqcha bilan belgilaydilar:

Qovun pishdi (-----). O'qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: Og'zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza bilan ajratamiz. (har bir gapni talaffuz qilib ko'rsatadi).

Kitoblarda, gazetalarda gapning tugaganini, ovozni pasaytirish va pauza qilish kerakligini ko'rsatish uchun alohida belgi-nuqta ishlatiladi.

Bir necha darsdan so'ng o'quvchilar gaplarni o'qiy boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda albatta nuqtali kartochkadan foydalaniladi. O'quvchilar gapni yozganda, o'qituvchi nuqta qo'yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo'yilmasa, xato hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo'yish lozimligini tushuntiradilar. Shunday yo'l bilan gapning oxiriga nuqta qo'yish ko'nikmasi shakllantiriladi.

So'roq va undov belgilari bilan ham savod o'rgatish davrida tanishtiriladi.

Bolalar so‘rash mazmunini bildirgan gaplarni o‘qiydilar. O‘quvchilar bunday gaplarni ohanggi rioya qilgan holda, ya’ni gapning oxirida ovozni ko‘tarish bilan o‘qishga o‘rgatiladi.

Gapning mazmuni va ohangi so‘roq belgisini qo‘yishni talab etadi.

Undov belgisini qo‘yishni o‘quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o‘qilishi bilan bog‘laydilar.

O‘quvchilar II-sinfda «Gap» bo‘limi mavzularini o‘rganish jarayonida nuqta, so‘roq belgisi va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladilar.

III-sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi. Shu vaqtdan boshlab ular o‘quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo‘yilishini anglay boshlaydilar.

“Darak gap” mavzusini o‘rganish bilan bog‘liq holda nuqta qo‘yilishi, “So‘roq gap” mavzusi bilan bog‘liq holda so‘roq belgisi va “Undov gap” mavzusini o‘rganish bilan bog‘liq holda undov belgisining qo‘yilishi o‘rgatiladi.

IV-sinfda o‘quvchilar “Gapning uyushiq bo‘laklari” mavzusi o‘rganilganda sanash ohangi bilan bog‘langan bo‘laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O‘qituvchi ikki gapni o‘qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko‘rsatadi. Masalan, biz o‘z ona tilimizni sevib o‘rganamiz.

(Gap oxirida ovoz pasayadi. Pauza qilinadi.) Toza, tiniq, kumush suv orom berar barchaga (Toza, tiniq so‘zlaridan so‘ng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi).

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar har xil mashqlarni ishlash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o‘rgatish davridayoq o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o‘qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o‘rgatadi. Masalan, olma, olcha, non-meva. Kitob –bilim bulog‘i, o‘quvchining o‘rtog‘i.

Ona tili darslarida so‘zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o‘qituvchi I-cinf o‘quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo‘yilishi bilan amliy tanishtiradi. O‘qituvchi aniq misollar bilan sanab ko‘rsatilgan so‘zlardan oldin ikki nuqta qo‘yilishini har bir so‘zning vergul bilan ajratilishini ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o‘qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin puntuaksion xatoning ham oldi olinadi. Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarda puntuaksion ziyraklikni o‘stirib boradi.

Dasturga ko‘ra bu sinfda o‘quvchilar qo‘shma gap bilan ham tanishtiriladi, elementar o‘rgatiladi. Buning uchun sodda gap bilan qo‘shma gap taqqoslanadi va bolalar qo‘shma gapning ayrim xususiyatlari, xususan, bunday gaplarda ikki qism mavjudligi bilan tanishadilar: 1) qo‘shma gap ikki mustaqil qism (sodda gap) dan tuziladi: Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar. (Maqol). Tong hali yorishmagan, lekin yulduzlar ancha siyraklashgan edi. (Oybek); 2) Qo‘shma gapda bir qism ikkinchisiga ergashadi (tobelanadi): Hamma ahil bo‘lib ishladi, shuning uchun ish tez bitdi.

O‘quvchilar qo‘shma gap tarkibidagi har bir gapning ega va kesimini topadilar hamda qo‘shma gap ikki gapdan tuzilishiga ishonch hosil qiladilar. O‘quvchilarga qo‘shma gapni o‘rgatish bilan bog‘liq holda, ammo, lekin, biroq

bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gaplarda, shuning uchun bog'lovchisi yordamida bog'langan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda (atamalar berilmaydi) vergulning ishlatilishi tushuntiriladi.

O'quvchilarga puntuaktsion qoidalarining to'la singdirish ularni tinish belgilarini o'z o'rnida ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik-puntuaktsion tahlil, tinish belgalari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi.

Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va puntuaktsiya elementlari ustida ishlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bu darslarda sintaksis sohadagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o'qish, so'zni aniq ishlatish, o'z fikrlarini grammatik to'g'ri shakllantirishga o'rganadilar. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda ongli foydalanishni ta'minlaydi.

Orfografiya o'qitish metodikasi

Reja:

1. Orfografik malaka.
2. Imlo qoidalari ustida ishlash.
3. Imloviy mashqlar.

O'qituvchi orfografik malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Orfografik malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv –maxsus nutq faoliyati; yozuvning har bir akti murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Orfografik malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik tomondan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Orfografik malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan orfografik qoidaning oson-qiyinligiga bog'liq. Orfografik malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq-to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejimli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning strukturasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi.) bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash

faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tadbiq etiladi. Bunda grammatik va orfografik hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan sistemaga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'zningina emas balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan qoidaga muvofiq, butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengilashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasashga oid materiallarini ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar "Ot", "Sifat", "Son", "Kishilik olmoshlari", "Fe'l" mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika va orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi. Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. "Sifat" mavzusini o'rganish – roq, qo'shimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, "Fe'l" mavzusini o'rganish bo'lishsizlik (-ma) va o'tgan zamon (-di) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidaning yozuv tajribasiga tadbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish qoida so'zning qaysi qismini, qaysi so'z turkumi yoki grammatik shaklini yozishni boshqarishni, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O'quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o'qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi. Masalan, oxiri yumshatish belgisi () bilan tugagan so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda, yumshatish belgisi yozilmasligi haqidagi qoidaning (2-sinf) mohiyatini ochishda o'quvchilar oxiri yumshatish belgisi bilan tugagan so'z aytadilar, keyin o'qituvchi rahbarligida shu so'z bilan gap tuzadilar. O'qituvchi doskaga yozib boradi: lager, royal. Men lagerda bo'ldim. Yulduz royalni yaxshi chaladi. Lager – lagerda, royal – royalni so'zlarini taqqoslaydilar; lagerda va royal –o'zak, -da va –ni qo'shimcha ekanini aytadilar. O'qituvchi o'quvchilarga bu so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda,

qanday o'zgarish yaratiladi. O'quvchilar bunday vaziyatni 1-sinfda ham kuzatganlar, shuning uchun fahmlab aytib berishlari mumkin. Suhbat xulosalanadi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo'yicha ishlanadi. Bunda o'quvchilarning qoida strukturasi anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo'linadi. (Aslida o'quvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qo'yadilar) O'quvchilar o'rganilgan qoidaga misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo'li bilan uni yangi til materialiga, ya'ni yozuv tajribasiga tadbiiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma)ning yozilishini deduktiv yo'l bilan o'rgatish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) ning oxiri -q bilan tugagan otlarga -qa, -k bilan tugagan otlarga -ka shaklida qo'shilishi haqida induktiv yo'l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish xiyla qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim tomonlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy aktivligini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida kollektiv ishlash bilan birga darslikdan foydalanib, mustaqfil ishlash usulini qo'llash ham mumkin.

Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishi o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratqich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otning fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi.

Qoidani bilib olish o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog'liq. Qoida asosida hosil bo'lgan aniq tasavvur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni to'g'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

Orfografik malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomotlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Orfografik mashqlar orfografik ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga tegishli o'rinda qoidani tadbiiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy yagona faoliyat sistemasiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tadbiiq qilish davridagina uning mazmunini chuqurroq o'zlashtiriladi.

Metodika orfografik mashqlarga: 1) grammatik – orfografik tahlil; 2) ko'chirib yozuv; 3) diktantlar; 4) leksik – grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik – orfografik va leksik – orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika

yoki leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l – harakat o'quvi, diktantda eshituv o'quvi hisobga olinadi.

Ko'chirib yozuv ko'rib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozma shaklda berishdir. Boshlang'ich sinflarni husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo'l qo'ymay va tartibli, harflarning tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ko'chirib, yozuv ko'nikmasi shakllantirishi kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmani hosil qilish maqsadida o'qituvchi alifbe davridan boshlab, ularga ko'chirib yozuvni izchillik bilan o'rgatib boradi.

O'quvchilardan ko'chirib yozuv ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarda quyidagilar kiradi: 1. Ko'chirib yozishdan oldin, ko'chiriladigani yaxlit o'qib chiq. 2. Har bir gapdagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, ichda bo'g'inlab ayt. 3. Ko'chirib yozganingni asliga solishtir.

Ko'chirib yozuv uchun so'z, alohida gap va kichik matndan foydalanish mumkin.

O'qituvchi qo'ygan maqsadga muvofiq holda, ko'chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko'riladi; bunda imlosi qiyin so'zlarni izohlab o'qish, so'z nima uchun shunday yozilishini asoslash, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko'nikmalar qanchalik shakllanganligini aniqlash maqsadida kontrol (tekshiruv) ko'chirib yozuv o'tkaziladi.

Ko'chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so'z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasining tadbiiq etishning yaxshi bilib olish imkonini beradi, chunki vazifaning xarakteri orfografik malakani shakllantirishga nazariy asos bo'ladigan grammatik, fonetik bilimlarni aktivlashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o'stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misollar:

1. Ko'chirish. O'zakdosh so'zlarni aniqlab, o'zakni ajratish.
2. Tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib ko'chirish, qanday qo'shimcha ekanligini aytish; yozilishini tushuntirish.
3. Matn mazmuniga mos so'zni qavs ichida berilgan so'zlardan topib qo'yib ko'chirish. Shu so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.
4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish va yozish.
5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzish.
6. Tanlab ko'chirish. (berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so'z turkumi; ot va fe'ldan yo ot va otdan yoki sifat va otdan tuzilgan so'z birikmalarni ko'chiring).

Diktant eshitib, idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir. Orfografik mashq sifatidan diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Ta'kidiy diktantdan qoidani tadbiiq etish usullarini yaxshi bilib olish uchun foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini

tushuntiradilar.

O‘z diktant yoki yoddan yozuvda o‘rganilgan orfografik qoida asosida yoziladigan so‘zlar bo‘lgan matnni o‘quvchilar o‘zlari o‘qib yodlaydilar (ko‘rib idrok qiladilar) yoki o‘qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin mustaqil ravishda o‘zlari-o‘zlariga diktovka qilib yozadilar.

Izohli diktantda o‘quvchilar gaplar yoki yaxlit matnni diktovka bilan yozganlaridan so‘ng kerakli qoidalarni eslab, ayrim so‘zlarning yozilishini tushuntirib, isbotlab beradilar. Diktantning bu turida o‘quvchilar yozganlarini kollektiv bo‘lib tekshiradilar, bu o‘rganilgan orfografik qoidalarga ularning diqqat e‘tiborini jalb etadi. Matnni yozish jarayonida ular tekshiriladigan qoida asosida yozilgan so‘zlarning tagiga chizadilar; diktantni yozib bo‘lgach, belgilangan so‘zlarning to‘g‘ri yozilganini tekshiradilar.

Saylanma diktantda o‘quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar, balki o‘qituvchi topshirig‘iga mos qisminigina (o‘rganilgan qoida asosida yoziladigan so‘zlarni. So‘z birikmalarinigina) yozadilar. Masalan, bosh harflar bilan yoziladigan so‘zlarnigana yozish (1-sinf), qaratqich kelishigidagi so‘zni u bog‘langan fe‘l bilan birga yozish (3-sinf) kabi. Saylanma diktant o‘quvchilarda orfografik ziyraklikni o‘stiradi.

Erkin diktant uchun uncha katta bo‘lmagan 3-5 qismli (abzatsli) matn tanlanadi. O‘qituvchi avval matnni bir marta ifodali o‘qib beradi. (matn mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkazilishi, ayrim qoidalar eslatilishi ham mumkin); so‘ngra matnning birinchi qismi qayta o‘qib berilgach, o‘quvchilar uning mazmunini yozadilar. Bunda ularga mazmunini buzmay, gap tuzilishini o‘zgartirish, bir so‘zni unga yaqin ma‘noli so‘z bilan qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o‘quvchilar nutqini o‘stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o‘zini ko‘rsatib o‘tkaziladi: predmet rasmi ko‘rsatiladi, o‘quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo‘yadilar, ish shunday davom etadi. (Birinchi so‘z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko‘ra yozilishi eslatiladi.) Rasm diktantda o‘rganilgan qoidani, ayniqsa, o‘quv yili davomida o‘rganiladigan imlosi qiyin so‘zlarni to‘g‘ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini sinash maqsadida ko‘zda tutiladi.

Tekshiruv yoki kontrol diktant yaqinda o‘rganilgan va ilgari o‘rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Avval matn bir marta o‘qib beriladi, keyin gaplar agar gap 5-6 so‘zli bo‘lsa, 2-3 so‘z diktovka qilib yozdiriladi.

O‘qituvchi dlarsning maqsadi va malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalaniladi.

Bayon o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o‘rganishning yakunlovchi bosqichida, o‘quvchilar qoidalarini bilib olib, uni tadbiq qilishga o‘rganganlaridan so‘ng o‘tkaziladi. Bayon yozganda o‘rganilgan orfografik qoidalarni to‘g‘ri tadbiq etish ularni ongli o‘zlashtirilganini ko‘rsatadi.

O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH METODIKASI

Kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llari va vazifalari

Reja:

1. Nutq va uni o‘stirish tushunchasi
2. Nutq turlari
3. O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan talablar
4. Nutq o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vositadir.
5. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning mashg‘ulotning boshqa turlari bilan bog‘liqligi.

Nutq va uni o‘stirish tushunchasi. Nutq-kishi faoliyatining turi, titl vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar funksiyasini, o‘zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’limolish qurolidir.

Nutq –ustirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi, bog‘lanishli nutqni) aktiv amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va priyomlarni qo‘llash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalasagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti –nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o‘zlashtirish.
2. Jamiyatimizning har bir a‘zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish.
3. O‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Nutq o‘stirishda uch yunalish aniq ajraladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazelogiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog‘lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab

sintaktik butunlik lingvistikaga asoslanadi.

Nutq o‘stirishda izchyaillik to‘rt shartni, ya‘ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo‘ysundirish ko‘nikmasini amalga oshirish bilan ta‘minlanadi.

Nutq turlari. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o‘z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o‘ylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan “o‘ylangan” (fikrlangan) nutqdir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir.

Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi.

Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi.

Og‘zaki nutq ko‘pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo‘ladi.

O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan talablar. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin.
2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin.
3. Nutq aniq bo‘lsin.
4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin.
5. Nutq tushunarli bo‘lsin.
6. Nutq ifodali bo‘lsin.
7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin.

Nutq o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vositadir. Nutq fikrini bayon etish vositasigina bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvafaqqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvafaqqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi.”Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi”.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchining fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchilarning barcha predmetlaridan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr

yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildiradigan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z, so'z yasovchi, forma yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap; turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi terminlarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinfdagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va terminlar bilan o'z nutqlarini boyitadilar.

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan predmetlarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurini o'stiradi.

Mehnat va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya, ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga imkon beradi.

O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, ham doim o'quvchi daftariga barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalari rioya qilgan holda yozishi zarur.

Lug'at ustida ishlash

Reja:

1. Lug'at ustida ishlashning lingvistik asosi, vazifalari.

2. So‘z ma‘nosini tushuntirish yo‘llari.
3. Sinimlar ustida ishlash.
4. Antonimlar ustida ishlash.
5. Omonimlar ustida ishlash.
6. Ko‘p ma‘noli so‘zlar ustida ishlash.
7. Mantiqiy mashqlar.

So‘z tilning ma‘no bildiradigan asosiy birligi. Tildagi so‘zlar yig‘indisi tilning lug‘at boyligini tashkil etadi. So‘zning ikki tomoni: tovush tomoni va ichki - ma‘no tomoni bo‘lib uning ma‘nosi leksikada o‘rganiladi. So‘z aniq predmetini ham, mavxum tushunchalarni ham bildiradi. Tilning lug‘at tarkibi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda o‘zgarib, rivojlanib, boyib boradi. Bularni leksikologiya tekshirib boradi. Shuning uchun ham leksika lug‘at ustidan ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Tilning lug‘ati qancha ko‘p bo‘lsa, fikr shuncha aniq ifodalanadi. Jumladan, aniq bir shaxning ham o‘z lug‘ati boyligi bo‘ladi. Nutqi lug‘atga boy kishining nutqi aniq, ravon bo‘ladi, shuning uchun boshlang‘ich ta‘lim oldiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri ham o‘quvchilar nutqini so‘z bilan boyitishdir.

Metodika lug‘at ishlarini yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, o‘quvchilar lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Boshlang‘ich ta‘lim lug‘at ustida ishlash metodikasi 4 yo‘nalishda ish olib boradi;

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish. O‘qituvchilarga so‘zlarning ma‘nolarini tushuntirish orqali har kuni 8-10 ta so‘z bilan, jumladan, ona tili darsida 4-6 so‘z bilan lug‘atini boyitishni ko‘zda tutadi.

2. Lug‘atiga aniqlik kiritish: a) o‘qituvchilar ma‘nosini yaxshi bilmaydigan so‘zlar ma‘nosini izohlash orqali;

b) kinoyali, ko‘p ma‘noli so‘z ma‘nolarini izohlash orqali;

v) sinonim so‘zlarning ma‘no ottenkalarini izohlash orqali;

g) iboralarning ma‘nosini izohlash orqali;

3. Lug‘atni faollashtirish, kam ishlatadigan so‘zlarni ishlatish uchun sharoit yaratish: diologlar, suhbat uyushtirish, bayon, insho yozdirish.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni passiv lug‘atiga o‘tkazish.

Lug‘at ustida ishlashda so‘zning adabiy orfoepik talaffuzi, imlosi ustida ham ishlanadi.

O‘quvchilar nutqi muayyan manbalar asosida boyitiladi.

a) tabiatni, kishilar hayoti, mehnati, bolalar o‘yin va o‘qish faoliyatini kuzatish orqali;

b) badiiy asarlar orqali;

v) gazeta va jurnal materiallari orqali;

g) radio va teleko‘rsatuvlar orqali;

d) ona tili darslaridagi mashqlar orqali;

e) lug‘atlar orqali.

So‘z ma‘nosini tushuntirish juda kam vaqtni olish kerak. O‘qituvchi darsga

tayyorlanish jarayonida qaysi soʻzlarning maʼnosi ustida ishlashi zarurligini, qay tarzda ishlashini belgilab olishi kerak.

Oʻqish darslarida 1 marta uchragan, bolalar maʼnosi tushunmaydigan soʻzlarning maʼnosini asarni oʻqimasdan oldin tushuntirishi kerak.

Koʻchma maʼnodagi soʻzlarni, obrazli ifodalarni, umuman, asarning badiiy tiliga doir nutq birliklari asarni oʻqib boʻlgach tushuntiriladi.

Soʻz maʼnolarini tushuntirishda qoʻyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Soʻzni matn asosida tushuntirish
2. Soʻz maʼnosini lugʻatdan, kitobdagi izohdan foydalanib tushuntirish.
3. Sinonimlarini keltirib tushuntirish.
4. Antonimiga taqqoslab tushuntirish.

Koʻchma maʼnoli soʻz, tasviriy ifodalarni, maqollarni ham taqqoslash usuli yordamida tushuntirish mumkin.

5. Birikmalar, gaplar yordamida tushuntirish.

6. Soʻzni predmetning asosiy belgilarini aytish orqali tushuntirish.

7. Axloqiy mavxum tushunchalarni bildiradigan soʻzlar maʼnosini misollar yordamida tushuntirish.

Bir umumiy tushuncha bildiradigan soʻzlar sinonim soʻzlar deb yuritiladi.

Ular qoʻshimcha maʼnolarni uslubiy qoʻllanishi bilan oʻzaro farq qiladi. Oʻquvchi nutqi sinonimlarga boy boʻlsa, nutqning ifodaliligi shuncha ortadi.

Sinonim soʻzlar bilan ishlash elementlar ravishda 1-sinf dan boshlanadi, lekin maxsus soat ajratilmaydi.

Boshlangʻich sinfda sinonim soʻzlar ustida quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi.

- 1) berilgan sinonimlarni guruhlash;
- 2) berilgan soʻzga sinonim tanlash;
- 3) tushurib qoldirilgan sinonim soʻzlarni oʻrniga qoʻyib matnni koʻchirish;
- 4) sinonimlardan mosini qoʻyib gaplarni koʻchirish;
- 5) sinonim soʻzlar vositasida didaktik material tanlash.

Zid maʼno munosabatidagi soʻzlar antonim soʻzlar deyiladiyu antonimik munosabat soʻz va iboralar orasida ham boʻladi. Antonimlar bilan ham boshlangʻich sinfda amaliy tanishtiriladi. Maxsus mashqlar uyushtiriladi:

1. Berilgan soʻzga antonim tanlash.
2. Antonim soʻzlar bilan gap tuzish.
3. Berilgan gapga antonim qoʻyib koʻchirish.

Omonim soʻzlar ustida ishlashda ham yuqoridagi kabi ishlar amalga oshiriladi.

Koʻp maʼnoli soʻzlar ustida ishlash. Darsliklarda koʻp maʼnoli soʻzlar uchrab turadi, lekin oʻquvchilar uning koʻp maʼnoli soʻzlar uchrab turadi, lekin oʻquvchilar uning koʻp maʼnoli soʻz ekanini bilmaydilar. Ular soʻz birikmalari, gap ichia taqqoslab tushuntiriladi.

Oʻquvchilarga koʻp maʼnoli soʻz gap ichida ajratilib koʻrsatilib, uning maʼnosini tushuntirish soʻraladi, soʻng oʻzlariga koʻp maʼnoli soʻzlarni turli maʼnolarda qoʻllab birikma, gap tuzdiriladi.

Oʻquvchilar nutqini boyitishdabadiiy asardagi tasviriy vositalarni,

maqollarni yod oldirish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mantiqiy mashqlar. So'zlarnig biror mavzuga doir guruhini tuzish: Dorivor o'simliklar: qoqi o't, otqloq, kiyik o't va h.

Bir guruhdagi so'zlarni umumlashtirib nomlash; olma, olcha, behi –mevali daraxtlar.

Ortiqcha so'zni top: chumchuq, kaptar, musicha, mushuk, (mushuk ortiqcha).

Predmet bildirgan so'zlar bilan belgi bildirgan so'zlarni aniqlash.

Belgi bildirgan so'zlarni ma'nosiga ko'ra guruhlash.

Yaxshi hislatlarni bildirgan so'zlarni guruhlash va h.

Bunday mashqlar savod o'rgatish, ona tili, o'qish darslarida qo'llaniladi. Mavzu bilan bog'liq holda takomillashtirib, mukammallashtirib boriladi. Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bilan bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda –roq qo'shimchasi bilan qo'llangan yaxshiroq, aqilliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mstaqilligi oshgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishga asoslanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish sistemasida sintaktik ishlar

Reja:

1. So'z birikmasi ustida ishlash.
2. Gap ustida ishlash.

So'z birikmasi ustida ishlash. Tilda leksik (so'z), sintaktik (so'z birikmasi va gap) va bog'lanishli nutq saviyalari ajratiladi. Shu mazmunda so'z birikmasiga leksiksaviyadan sintaktik saviyaga o'tish halqasi sifatida qaraladi.

So'z birikmasi leksik-grammatik birlik bo'lib, tugallangan fikr ifodalanmaydi va bu bilan gapdan farqlanadi. So'z birikmasi nutqda gap ichida ishlatiladi. Bolalarga so'z birikmasini o'rgatish fikr elementi ustida ishlash hisoblanadi (Fomicheva G. A). Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi ustida ishlashda qo'yidagi mashq turlaridan foydalaniladi:

Bosh so'zdan ergash so'zga so'roq berish, so'zlarning o'zaro bog'lanishi aniqlash.

Matnda uchragan so'z birikmasining ma'nosini tushuntirish. Matnda yoki faoliyat jarayonida uchragan yangi so'z bilan so'z birikmasi tuzish.

So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'z birikmasi tuzishdir.

So'z birikmasi tuzishda yo'l qo'yilgan xato gap tuzishda ham xatoga olib keladi.

So'z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to'g'ri bajarishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun so'z birkmasi ustida o'zni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog'lanishli nutq

tuzishga oid nutqiy mashqlarga o'tish lozim.

Gap ustida ishlash. Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchi, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga ham tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan jips bog'liq bo'lib, gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir: uchinchidan, gap mazmun birligi bo'lib, tugallanganlik mazmunini bildiriadi.

Boshlang'ich sinf dasturining "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan.

Analiq yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo'linadi:

1)analitik mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;

2)sintetik mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin bo'lib xizmat qiladi, ular parallel yoki sintetik mashqdan so'ng analitik mashq o'tkaziladi.

O'quvchilarning mustaqilligi va bilish faoliyatining aktivligi darajasiga ko'ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo'linadi: 1)namuna asosida mashqlar; 2)konstruktiv mashqlar; 3)ijodiy mashqlar.

Namuna asosidagi mashq aniq, to'g'ri tuzilgan sintaktik konstruktsiyalarni amaliy o'zlashtirishni, ularning ichki bog'lanishini, mazmunini tushunishni ko'zda tutadi. Bunday mashqlar ichida analitik mashqlarga shuningdek, gapni kuzatish va eshitish, uni o'qishga muhim o'rin beriladi. Namuna asosidaga mashqlarga quyidagilar kiradi:

1.Gap ustida ishlashning eng oddiy, boshlang'ich, shu bilan birga, eng zaruriy shakli namunani o'qish (yozish), intonatsiyasi, ifodaliligi ustidav ishlash, gapning asosini va mazmunini tushuntirish, ba'zan esa gapni yodda saqlash, yodlash hisoblanadi.

2. Savol asosida gap tuzish. Bunda berilgan savol javob (gap tuzish) uchun asos bo'ladi va "namuna" rolini bajaradi. Savolda uning asosiy mazmuniga emas, balki barcha so'zlar va sintaktik qurilishning jadvali ham beriladi.

Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi; bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari:

1. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish.

2. Nuqtalar qo'yilmagan bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini ajratish.

3. Berilgan sodda gapni so'roqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi. Masalan: Qushlar uchib keldi. Qayerdan uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan uchib keldi.

4. Berilgan gapga o'xshash, masalan, uyushiq egali yoki kesimli, sodda

yoyiq gap tuzish.

5. Ikki-uch sodda gapdan bitta uyushiq bo‘lakli sodda gap tuzish.

Ijodiy mashqlar o‘quvchilar o‘zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o‘quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: daryo yo quyoshli kunda bizning dala, yoki quyon va tipratikan haqida gap tuzish.

2. Predmetrasmi yoki syujetli rasm beriladi, o‘quvchilar rasm asosida bir gap yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta “tayanch” so‘z beriladi, o‘quvchilar shu so‘zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so‘z sifatida bolalarning aktiv lug‘atiga aylantirish zarur bo‘lgan so‘zlar olinadi.

Boshlang‘ich nutq va uni o‘stirish vazifalari

Reja:

1. Bog‘lanishli nutq va uni maktabda egallash.

2. Bog‘lanishli nuqqa oid asosiy ko‘nikmalar.

3. Bayon va insho janrlari.

Bog‘lanishli nutq va uni maktabda egallash. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tushgallangan va o‘zaro bog‘langan ma’noli qismlarga bo‘linadigan nutq bog‘lanishli nutq deyiladi.

Bog‘lanishli nutq birligi deb hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o‘qituvchi bergan savolga o‘quvchilarning keng, mukammal og‘zaki javobini, yozma bayon va inshoni hisoblash mumkin.

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqdan mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1)berilgan savolga keng, mukammal javob; 2)o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish; o‘quvchilar lug‘atini aktivlashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar; 3)muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish; 4)o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki hikoyalash; 5)berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosid o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi; 6)badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o‘quvchilar saviyamsiga mos matnlarni yoddan yozish; 7)ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she’r, hikoya tuzish; 8)namunasi berilgan badiiy, ilmiy-ommabop matn asosida bayon yozish; 9)o‘qituvchi bergan matnni og‘zaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyasini sahnalashtirish kabilari); 10)har xil turdagi yozma insho.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi.

Bog‘lanishli nutqqa oid asosiy ko‘nikmalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil mashq sifatida bog‘lanishli nutqni o‘stirishdan quyidagi ko‘nikmalarni bilib oladilar:

Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to‘liq yoritish

ko‘nikmasi.

Inshoni asosiy fikrga bo‘ysundirish ko‘nikmasi.

Hikoya, insho uchun mavzuga taaluqli, uni yoritishga zarur bo‘lgan materialni yig‘ish.

Materialni sistemaga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu yeja asosida yozish ko‘nikmasi.

Fikrni adabiy til qoidalariga rioya qilgan holda to‘g‘ri ifodalay olish ko‘nikmasi.

Matnni og‘zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya‘ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko‘nikmasi.

Yozilgan matnni takomillashtirish ko‘nikmasi. Bu ko‘nikma o‘z ijodiga tanqidiy munosabatda bo‘lish asosida tarbiyalanadi.

Shuning uchun o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o‘quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

Bayon va insho janrlari. Matnli mashqlar, metodik traditsiyaga ko‘ra, tasvirlash, hikoya qilish va muhokamaga bo‘linadi. Boshlang‘ich sinflarda bular, asosan. Tasvir yoki muhokama elementlari bo‘lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalanilgan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlash ham o‘z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o‘qituvchi (yoki o‘quvchi) matnning janr xususiyatlarini hg‘isobga oladi.

Hikoya boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi.

Tasvirda syujet, qatnashuvi shaxslar bo‘lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi.

Muhokama bog‘lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang‘ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o‘quvchilar inshoda muhokama elementlaridangina foydalanadilar. Masalan, “Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas”, “Paxta – bizning boyligimiz” mavzularida og‘zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo‘ladi.

O‘qituvchi bog‘lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilinishi ko‘zda tutadi va o‘quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o‘rgata boradi.

Bog‘lanishli nutq, og‘zaki qayta hikoyalash va yozma bayon

Reja:

1. Og‘zaki va yozma qayta hikoyalash qo‘yiladigan talablar.
2. To‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayon.
3. Tanlab qayta hikoyalash va bayon.
4. Qisqartirib qayta hikoyalash va bayon.
5. Ijodiy qayta hikoyalash va bayon.

Bayon o‘qib berilgan namunaviy matnni, matn mazmunini ma’lum tayyorgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalashdir.

Namunaviy matn og‘zaki va yozma hikoya qilinadi. Bayon yozishga tayyorgarlik o‘qish darslarida o‘qilgan asar matnini qayta hikoyalash, savollarga javob berish, rejatuzish, reja asosida qayta hikoyalash jarayonida boshlanadi. Ona tili darslarida mashq ishlash jarayonida tayyorgarlik yozma shalda oshiriladi. Har qanday qayta hikoyalash asosida bayon yozish mumkin. Bayon bu kikich hajmdagi tuzilishi sodda matn tanlanadi. Keyin u murakkablashtirilib boriladi. Hikoya shaklidagi matnda asta-sekin tasvir muhokama elementlari bor matn tanlanadi. Qatnashuvchilari soni ko‘paytirib boriladi. Bayon asta-sekin ijodiy xarakter kasb etib boradi. Boshlang‘ich sinf dasturiga ikkinchi sinfda o‘ttiz bir so‘zli matn tanlanadi. So‘roqlar yordamida bayonlar yoziladi. Uchinchi sinfda qirq oltmish so‘zli matn to‘rtinchi 70-90 so‘zli mustaqil tuzilgan reja asosida bayon yoziladi.

Bayonning ahamiyati:

- bolalarda adabiy nutq to‘g‘ri shakllanadi
- nutq madaniyati egallanadi
- badiiy uslub singdiriladi
- badiiy tilga sezgirlik oshiriladi

Bayonning mavzulari:

- kishilarning hayoti, mehnati, yutuqlari ifodalangan matn
- tabiat bilan bog‘langan matn
- fan-texnika madaniyat yutuqlarga oid matn

Bayon mavzusi o‘quvchilarni bilimni kengaytiradi. Dunyo qarashini shakllantiradi. Qayta hikoyalashda til materiallaridan nutq aborotlaridan sintaktik qurilishdan foydalani olish zarur. Qayta hikoyalashda maxsus tayyorgarlikda quyidagi talablarga rioya qilinadi.

1) Qayta hikoyalash turi haqida o‘quvchilarni ogohlantiradi. Matnga yaqinlashtirilib, tanlab, qisqartirilib, ijodiy qayta hikoyalaniadi.

2) Suhbat, mtn mazmuni tahlil qilinadi. Tili oborotlari gaplari aniqlanadi

3) Qayta hikoyalaniishni puxtalash uchun ifodali o‘qish.

4) Matnni kompozitsiyali qismlarga bo‘lish sarlavha, reja tuzish.

5) Matnni qayta hikoyalash kamchiliklarni tuzatish.

6) Qayta hikoyalashni bolalar hayoti bilan bog‘lash.

To‘liq qayta hikoyalash uchun hikoya tanlanadi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘p o‘tkaziladi. Bir kishining hikoya tarzidagi matn bo‘ladi. Matnda keyinchalik qahramonlarni tabiat tasvirini muhokama elementlarini bo‘lishi zarur.

Qayta hikoyalash uchun tuzilgan savollar har bir gapga qaratilmasdan umumlashtiruvchi harakterda bo‘lishi kerak.

To‘liq bayonga tayyorgarlik:

2-sinf ona tili: 49,57,147,146,172,187 mashqlar.

To‘liq bayonda uchraydigan kamchiliklar:

a) hikoyani to‘g‘r boshlashni bilmaslik

172 mashq. O‘ktam qizchani suvdan qutqarib oldi. (davom ettirishning endi iloji yo‘q)

b) Matn mazmunini davom ettira olmaslik:

v) Tushunmasdan noto'g'ri bayon qilish

g) Bayon qilishda til kambag'illigi

Bu kamchiliklarni yo'qotish uchun:

a) Matnni qismlarga bo'lish

b) Qismlarga sarlavha topish

v) Reja tuzish

g) Reja asosida qayta hikoyalash

Til kambag'al bo'lmasligi uchun til materiallari ustida ishlash. Bayon yozish quyidagicha uyushtiriladi.

1) Bolalarga bir ikki marta o'qib beriladi.

2) Suhbat: qislarga bo'lish, mazmuniy bog'lanishlarni aniqlab reja tuzish.

3) Lug'at ishi (so'z ma'nosi va imlosi)

4) Muhim til birliklariga diqqat qilish.

5) Gaplar tuzdirish.

6) Qayta hikoyalash.

7) yozish.

Tanlab qayta hikoyalash matnning tor mavzusi, kichikroq so'roqqa oid qism tanlanadi. Masalan: o'qilgan matndagi qahramonlarning ko'rinishi, ikki qahramonning to'qnashuvi, tabiat tasviri tanlanadi.

Tanlab hikoyalash turlari:

1) qahramonning tashqi ko'rinishini tanlab qayta hikoyalash, masalan, Odinaning qo'y boqib kelgandan so'ng boyning uni jazolashi;

2) tabiat tasvir. Matnning bir qismini unga chizilgan rasm asosida qayta hikoyalash;

3) O'qituvchining topshirig'i bilan hikoyaning bir epizodini qayta hikoyalash;

4) Berilgan mavzua asarning turli o'rinlaridan parchalar olib qayta hikoyalash.

5) Qisqartirib qayta hikoyalashda quyidagi savollardan foydalaniladi:

6) Har bir qimni bir gap bilan aytish, 1-qismdan asosiy gap qaysi?

7) Ijodiy qayta hikoyalashning bir necha turi bor:

1) shaxsni o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon;

2) hikoyadagi biror qahramon tilidan qayta hikoyalash va bayon;

3) matnni ijodiy to'ldirib qayta hikoyalash va bayon;

4) so'z bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish.

Bunda quyidagi topshriqlar bajariladi: "Siz shunday holatda o'zingizni qanday sezasiz? Bular rasmlarda tasvirlangan deb o'ylang. Shu voqealar ko'z oldingizdan o'tayaptimi? Siz ko'rgansiz, eshityapsiz o'zingiz tasvirladim deb o'ylang".

Qahramonning tashqi ko'rinishini o'ylashingiz mumkin. Suhbat orqali asosiy joylari ajratib olinadi. Reja tuziladi. Reja asosiy o'rinlarni ifodalashi zarur.

1.6 Tekshiruv bayoni

Reja:

1. Tekshiruv bayonining maqsad va vazifalari

2. Tekshiruv bayonining o‘ziga xos tomonlari
3. Tekshiruv bayonini o‘tkazish tartibi.

Tekshiruv bayoni asosan o‘quvchilarni bilimini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘quvchi bilimidagi sayoz o‘rinlarni belgilab olish, xato kamchiliklarni bartaraf etish choralarini rejalashtirish. Tekshiruv bayoni bir o‘quv yilida 2-3 marta o‘tkaziladi. Uning turi to‘liq ta’limiy bayonniki kabi o‘tkazilish tartibi ham bayon turidan kelib chiqib, ta’limiy bayon kabi uyushtiriladi. Farqi shundaki, yozish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga yordam ko‘rsatmaydi, bu bayon turi 3-4 sinflarda chorak oxirida yoki biror katta bo‘lim o‘tib bo‘lingach o‘tkaziladi. Masalan: ona tilidan so‘z turkumlaridan ot, sifat, son, olmosh, fe‘l o‘tib bo‘lingach, ularga doir bilimlarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

1.6.1 Bog‘lanishli nutq, og‘zaki hikoya va yozma insho

Reja:

1. Og‘zaki va yozma insho turlari.
2. O‘quvchilarni tarbiyalashda inshoning roli.
3. Insho mavzusi, uni yoritish.
4. Reja tuzish.
5. Insho yozishga tayyorlash.
6. Insho tahlili.

Insho ijodiy ishning yuqori shakli. U og‘zaki va yozma shaklda o‘tkaziladi. Og‘zaki shakli savod o‘rgatish jarayoniga to‘g‘ri keladi, ona tili darslarida ham davom etadi. Umuman, og‘zaki insho- o‘quvchining o‘qituvchi bergan biror savoliga javob berishi, biror voqea haqida axboroti, rasm mazmunini hikoyalab berishi. Bu insho shakli erkin. Demak, turli mazmundagi mashqlar inshoga bo‘ysunadi. Yozma insho 1-sinfning 2-yarmidan boshlanib, darslikda rasm yuzasidan berilgan savolga javob yozish shaklida amalga oshiriladi. Lekin bu paytda insho atamasi ishlatilmaydi. Og‘zaki insho ko‘p o‘tkaziladi.

Insho o‘quvchini aqliy mustahkamlikka, fikrlashga, ko‘rgan, eshitgan, kuzatganlarni baholashga, kuzatuvchanlikka, voqealarni qiyoslashga, xulosa chiqarishga, munosabat ildirishga o‘rgatadi, fikrni tartibli ifodalash orqali o‘z kuchiga ishonch uyg‘otadi. Matn ustida ishlash jarayonida voqealarning sabab natija bog‘lanishini belgilaydi, reja haqida o‘ylaydi, so‘z tanlaydi, birikma va gap tuzadi, imlosini o‘ylaydi-bu aqliy faoliyatni talab etadi.

Og‘zaki va yozma inshoga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, material to‘plash, tartibga solish, joylashtirish, reja tuzish, reja asosida yozish, mazmunga xos til vositalarini tanlash, ulardan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko‘nikmasi hosil qilinadi.

Bulardan tashqari, texnik vositalarni –husnixatga, xat boshiga, hoshiyaga rioya qilinadi.

Og‘zaki va yozma insho:

1. Material manbaiga ko‘ra 3 xil:
 - a) o‘quvchilarning ko‘rgan-bilganlari, eshitganlari, mehnat kuzatishlari,

ekskursiya, o‘yinlari asosidagi insho;

b) kitob materiali, rasmlar, filmlar, spektakillar, o‘qituvchi hikoyasi asosidagi insho;

v) turli manba materiallari asosidagi insho;

2. Mustaqillik darajasiga ko‘ra 2 xil:

a) Umumiy mavzu asosida umumiy tayyorgarlikdan so‘ng yoziladigan kollektiv insho;

b) alohida mavzu asosida yoziladigan individual insho.

3. Janrga ko‘ra uch xil:

a) hikoya tarzidagi insho;

b) tasvir insho;

v) muhokama elementli insho

Boshlang‘ich sinfda shaxsiy hayotiy tarjiba asosidagi insho ko‘p o‘tkaziladi.

Rasm asosidagi insho tez-tez o‘tkaziladi.

Rasm asosidagi insho 3 xil:

1. rasmlar seriyasi yoki rasmlari reja asosidagi insho;

2. mazmunli (bir syujet) rasm asosida insho;

3. rasmni tasvirlash- tasviriy insho.

Bularni o‘tkazish ham shu berilgan tartibda o‘tkaziladi.

2-sinfda seriyali rasmlar bolalar mehnati, o‘yiniga asoslanadi. 3-4-sinfda seriyali, syujet, rasmni tasvirlash xarakteridagi insho o‘tkaziladi. 1-sinf Gafforova darsligida insho yozish hisobiga olinmagan. Boshlang‘ich sinfda insho ta’limiy xarakterda bo‘ladi. 3-sinfda teukshiruv insho o‘tkaziladi. Ta’limiy insho baholanadi, lekin salbiy baho qo‘yilmaydi.

Insho bola shaxsini shakllantirish vositasi. Bolalar voqea –hodisalarni sinchiklab kuzatishni o‘rganadi, fikrini izchil yoritishga o‘rganadi. Adabiy tilni egallaydi.

Insho mavzusi: qahramonlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, maktab, ilm-xosiyati, ota-onalarga munosabat, kattalarga hurmat, tabiat, bayramlar, hayvonot dunyosi, yaxshilik, yomonlik, odob-ahloq mavzularida bo‘lishi o‘quvchilarning shunday ahloqiy xulqqa ega bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga amal qilish. Inshoni muntazam o‘tkazib borilsa, o‘quvchilarda mustaqillikni tarbiyalaydi.

2. Inshoni hayot bilan bog‘lash. Kuzatishlar, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan hisobot, xat, maqola, taqriz shaklida yozishning ahamiyati katta.

3. Insho uchun maktab va o‘qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos mavzu tanlash. Mehnat, vatan, ahloqiy muammolar haqidagi mavzular kiradi.

4. Insho ustida ishlashda ishning emotsional darajasini oshirish. Tabiatni qiziqarli, obrazli, ta’sirli qilib tasvirlash.

Mavzular:”Bizning qishloq”,”Jamoamiz dalasida”,”Paxta boyligimiz”,”Daraxt o‘tqazish”,”Polizda”,”Bizning gulzor”,”Varrak”,”Kim bo‘lsam ekan?”,”Onam o‘qituvchi”,”Bu mening bobom”.

Eng yaxshi insho sinfda o‘qib beriladi. Konkurs e’lon qilinadi. Mavzu

inshoning predmeti, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab material to‘planadi, faktlar yig‘iladi. Insho mavzusini to‘liq yoritish uchun uni tushunishga bog‘liq. Eng asosiy narsa insho uchun mavzu tanlash. Mavzu tartiblangan, chegaralangan bo‘lishi lozim. Mavzular: “Karam uzish”, “Uzumzorda”, “Paxta terimi”, “Kuz kunlarining birida”, “Kech kuzda kolxoz bog‘i”, “Qorbo‘ron o‘ynadik”, “Yozgi ta‘tilning bir kunida”...

Mavzuni yoritish uchun o‘quvchilarga topshiriqlar beriladi. M: “Uzumzorda” mavzusida insho yozish uchun: Uzumzor qishloqning qayerida joylashgan? Uerda kim bog‘bon bo‘lib ishlaydi? Qanday uzum turlari bor? Siz u yerga borganda nima qildingiz?

Uzumzorni tasvirlovchi so‘z, birikmalar to‘plang. Gaplar tuzing. Boqqa o‘zingizning munosabatingizni bildiring. Topshiriqlar yozdiriladi, material to‘planadi. To‘plangan materiallar og‘zka savol-javob yo‘li bilan aniqlanadi, kamchiliklar tuzatiladi, reja tuziladi, so‘zlatiladi, so‘ng yozishga ruxsat beriladi. Reja-bu loyiha. Har bir og‘zaki va yozma hikoya qilishning zaruriy pog‘onasi – reja.

1-sinfda reja so‘roq gap shaklida, o‘qituvchi tomonidan tuzib beriladi. 2-sinfda o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar bilan jamoa bo‘lib tuziladi. Unda ham asosan so‘roq gap shaklida bo‘ladi. 3-sinfda jamoa bo‘lib tuziladi, darak gap shaklida bo‘ladi. 4- sinfda mustaqil tuziladi, darak gap, atov gap (ba‘zi qismi) shaklida bo‘ladi.

Reja 2,3,5 qisimli bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qigan hikoyasiga reja tuzib, qayta hikoyalaydilar. So‘ng insho rejasini tuzadilar. So‘ng seriyali rasm asosida reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. So‘ng syujetli rasm va kuzatishlar asosida reja tuzishga o‘tadilar.

Reja tuzishga o‘rganishdan oldin nima to‘xtatiladi; keyin qanday davom ettiriladi, so‘ng nima haqida gapiriladi, nima bilan tugatiladi deb yo‘l-yo‘riq beriladi.

Reja insho yozishga tayyorgarlik davrida tuziladi.

Mavzu e‘lon qilingach, ekskursiya kuzatishdan oldin tuzib olinsa, insho muvaffaqiyatli yoziladi.

Inshoga tayyorgarlikni o‘qituvchi boshqaradi.

Tayyorgarlik davrida:

- 1) hikoya qilishga talab uyg‘otadigan vaziyat yaratish;
- 2) insho uchun material yig‘ish;
- 3) til vositalarini tanlash.

Tayyorgarlik insho yozilishidan bir necha kun oldin boshlanadi. Darsdan tashqari vaqtlarda, boshqa dars jarayonida ham tayyorgarlik ko‘riladi. Insho ustida ishlash 3 bosqichda:

1) material to‘plash; kuzatish, ekskursiya, rasmni ko‘rib chiqish, kinofilm, spektakl ko‘rish, badiiy adabiyotlar o‘qish;

2) mavzuga dor mos materiallar tanlash, sistema solish joylashtirish, suhbat, muhokama qilish, zarur materiallarni ajratish, reja tuzish, lug‘at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorgarlik ko‘rish

3) inshoni nutqiy shakllantirish; insho matni tuzish, yozish

takomillashtirish, xatolarini to'g'rilash, tekshirish.

1-2-bosqichlardagi ilar darsdan tashqari paytlarda bajariladi.

Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho sifatli bo'ladi. Darsda yig'ilgan materiallar yodiga tushirilsa, yozishga qiziqish uyg'otiladi.

1-sinfda insho yozish bir dars, 2-sinfda bir dars keyingi soatdan 15-20 daqiqa, 3-4 sinfda bir-bir yarim, ba'zan 2 dars ajratiladi.

Xatolar ustida ishlashga 20-25 daqiqa ajratiladi.

1) mavzuni e'lon qilish, uni o'quvchilar bilan muhokama qilish
2) to'plangan materiallarni sistemaga solish, rasm asosida bo'lsa, rasmni ko'rish, suxbat o'tkazish.

3) reja tuzish yoki oldin tuzilgan rejaga aniqlik kiritish

4) Matnni nutqiy tayyorlash, zarur so'zlarni yozish, birikma gap, bog'lanishli nutq tuzish, imlosi qiyin so'zlarni tushuntirish;

5) Inshoni yozish, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga individual yordam beradi.

6) Insho tekshiriladi, o'quvchilar tuzatishlari bo'lsa, baho pasaytirilmaydi (o'quvchilar tekshiradi).

7) O'qituvchi 2 kun ichida inshoni tekshiradi.

Inshoni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1) mavzuning yoritilishi
2) reja, kompozitsiya, izchillik, xulosa chiqarilganmi?
3) Janri, uslubi: tasvir muhokama elementlari bormi? Badiiy elementlari bormi?

4) Insho hajmi

5) Leksikasi

6) Sintaksisi

7) Imloviy, ishoraviy savodxonligi

8) Husnixat, xati, xat boshi, hoshiya.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	adabiyotning ARM dagi shifri	adabiyotning ARM dagi inventar raqami
1.	Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.	Ona tili o'qitish metodikasi (Darslik)	Toshkent, Noshir, 2009	74.261.4 O-56	Y-7000 32 ta
2.	G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H.	Husnixat va uni o'qitish metodikasi.	-T.: TDPU,2009. - 70 b.		
3	Рахматуллаева Л.И.	Методика преподавания	-Т.: Учебное		

		родного языка	пособие. Молия Иктисод, 2007.		
--	--	------------------	--	--	--

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti. –T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2010.– 42- 46 b.
2. Uzviylashtirilgan o‘quv dasturi. –T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2010. – 46-68 b.
3. Abdullayeva Q. va boshq. O‘qish kitobi (2-sinf uchun darslik). –T.: O‘qituvchi, 2010. – 192 b.
4. Abdullayeva Q. va boshq. 2-sinfda o‘qish darslari. –T.: O‘qituvchi, 2009. – 266 b.
5. Matchonov S. va boshq. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2009. – 266 b.
6. Umarova M., Sh.Hakimova. O‘qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: Cho‘lpon, 2014. – 240 b.
7. Umarova M, Sh.Hakimova. O‘qish darslari (3-sinf uchun). –T.: Cho‘lpon, 2014. – 126 b.
8. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. -T.: O‘qituvchi, 2003.
9. Qosimova Q. “2-sinflarda ona tili darslari”, T. “O‘qituvchi”, 1998- yil.
- 10.G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2014. – 127 b.
- 11.G‘afforova T., G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish darslari. –T.: Sharq, 2003. – 126 b.
- 12.Qosimova K., Fuzailov S., Ne‘matova A. Ona tili (2-sinf uchun darslik). – T.:Cho‘lpon, 2013. -127 b.
- 13.Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili (3-sinf uchun darslik). – T.:O‘qituvchi, 2013. -143 b.
- 14.Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. (4-sinf uchun darslik). –T.:O‘qituvchi, 2013. -190 b.
15. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremumpress”, 2014. -119 b.
16. Safarova R., G‘ulomov M., Inoyatova m. Savod o‘rgatish drslari. 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Tafakkur”, 2012.-141 b.
17. U.Masharipova va b. “Ona tili” 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Sharq”, 2014.-120 b.
18. G.Boymurodova va b. “O‘qish” 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Sharq”, 2014.-120 b.
19. A.Hamroyev. 1-sinfda o‘qish darslari. Buxoro, 2002. -48 b.
20. A.Hamroyev. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. 216 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1 - MAVZU	So'z turkumlarini o'rganish metodikasi. Otlarda son va egalik kategoriyasini o'rganish
----------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti: 2 soat	Talabalar soni: 123 ta
Mashg'ulot shakli	Kirish ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. So'zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratish tamoyillari 2. Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganish aspekti <li style="padding-left: 20px;">Z. Ot so'z turkumi yuzasidan o'quvchilarga beriladigan bilim va hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar <li style="padding-left: 20px;">4. Otni o'rganishda izchillik. <li style="padding-left: 20px;">5. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'rganish <li style="padding-left: 20px;">6. Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rganish
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalarni boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini, ot va otning birlik – ko'plikda, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish usullari bilan tanishtirish
O'qituvchining vazifasi: <ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarining so'z turkumlari haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash . 2. Talabalarda so'z turkumlarini o'rganishning ahamiyati va ular ustida ishlash bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilish 3. Talabalarni boshlang'ich sinflarda ot turkumini o'rganish izchilligi, dastur talablari, son va egalik 	O'quv faoliyatining natijasi Talabalar bilishi kerak <ol style="list-style-type: none"> 1. So'z turkumlarini o'rganishning maqsad va vazifalarini. 2. So'z turkumlarini, jumladan, ot, otning ko'plik va birlikda, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish usullaridan foydalana olishni, mashqlar tizimini qo'llay bilishni egallashi. 3. otning ko'plik va birlikda, egalik

<p>kategoriyalarini o'rganish usullari, mashqlar tizimi bilan tanishtirish.</p> <p>4. Ma'ruza davomida talabalarning faoliyatini kuzatish va baholash (5 ball asosida).</p>		<p>qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda ko'rgazmali qurollar, ta'limiy o'yinlardan foydalana bilishni.</p>
<p>Ta'lim metodi va texnikasi</p>		<p>Suhbat, muammoli izlanish, mustaqil ish metodi. Komp'yuter texnologiyasidan foydalanish: slaydlar.</p>
<p>Ta'lim vositasi</p>		<p>Proektor</p>
<p>Ta'lim shakli</p>		<p>Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash</p>
<p>Ta'lim sharti</p>		<p>Auditoriya, TSOdan foydalanish</p>
<p>Dars bosqichlari va vaqti</p>	<p>O'qituvchi</p>	<p>Talaba</p>
<p>1- bosqich Kirish (5 daqiqa)</p>	<p>1. Ma'ruza mavzusini (So'z turkumlarini o'rganish metodikasi. Otlarda son va egalik kategoriyasini o'rganish)</p> <p>2. Ma'ruza maqsadini</p> <p>3. Ma'ruza rejasini e'lon qilish.</p>	<p>Eshitadi, yozadi, javob beradi.</p>
<p>2- bosqich Bilimlarni aktallashtirish (5 daqiqa)</p>	<p>1. So'zlar qaysi tamoyillar asosida turkumlarga ajratiladi?</p> <p>2. So'z turkumi deganda nimani tushunasiz?</p> <p>3. Boshlang'ich sinflarda dastur talablariga ko'ra qaysi so'z turkumlari o'rganiladi?</p> <p>4. So'z turkumini o'rganishning ta'limiy va amaliy ahamiyati nimada?</p> <p>5. So'z turkumlarini o'rganishda qaysi metodlarni samarali deb hisoblaysiz?</p>	<p>Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalarning javobi</p>

<p>3- bosqich Axborot berish (65 daqiqa)</p>	<p>1. Ma'ruza: 20 daqiqa 2. Topshiriq.. 1. K.Qosimovanning "Ona tili o'qitish metodikasi"da so'z turkumlarining qaysi belgilari o'rganiladi deyilgan? 2. Boshlang'ich sinflarda otlar qanday izchillikda o'rganiladi? 3.Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'rgatishning eng maqbul usulini misollar bilan tushuntiring. 4.Otlarning son va egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda o'quvchilarda q.anday imloviy ko'nikmalar hosil bo'ladi? 5.Egalik qo'shimchalari bilan otlarning qo'llanishini o'rgatish usullarini misollar bilan yoritib bering. Uning mahokamasi: 10 daqiqa 3. Taqdimot: 5 daqiqa</p>	
<p>4- bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)</p>	<p>1.Otlarning birlik va ko'plikda qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarni namoyish qilish. 2.Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarga misollar ko'rsatish. 3. Otlarning birlik va ko'plikda , egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlardan namunalar</p>	

	namoyish qilish. 4.Blits texnologiyasi asosida mavzu yuzasidan talabalar bilimini aniqlash	
--	---	--

1-ilova

SO'Z TURKUMLARI				
OT	SIFAT	SON	OLMOSH	FE'L
1. Shaxs, narsa va joy nomini bildiradi	1. Shaxs va narsaning belgisini bildiradi	1. Shaxs, narsaning sanog'i va tartibini bildiradi	1. Kishilik olmoshlari Shaxsni bildiradi va ot o'rnida qo'llaniladi	1. Shaxs, narsaning harakatini bildiradi
2. Kim?, nima?, qaer? so'roqlariga javob bo'ladi	2. Qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi	2. Necha? yoki nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi	2. Kishilik olmoshlari kim? so'rog'iga javob bo'ladi	2. Nima qil-di?, Nima qiladi?, Nima qilyapti? Nima qilmoqchi kabi so'roqlarga javob bo'ladi
3. Birlik va ko'plikda qo'llanadi	3.O'zgarmaydi	3. Asosan o'zgarmaydi	3. Ular birlik va ko'plikda bo'ladi	3. Bo'lishli va bo'lishsiz shaklda qo'llanadi
4. Egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi	4. Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi	4. Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi	4. Kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi	4. Shaxs-son qo'shimchala i bilan tuslanadi
5.Kelishiklar bilan turlanadi	5. Sifatlar yasaladi	5. Sonlar yasalmaydi	5. Ular gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida keladi	5. Uch zamonni bildiradi
6. Gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak			6. Olmoshlar yasalmaydi	6. Gapda kesim vazifasida

vazifasida keladi				keladi
7. Otlar yasaladi				7. Fe'llar yasaladi

2 -ilova

Otni o'rganish boqichlari

- Savod o'rgatish davri – tayyorlov bosqichi:
 - Shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni harakat, belgi bildirgan so'zlardan farqlashga o'rganadilar.
- 1-2-sinf ona tili darslari – amaliy bosqich:
 - Shaxs-narsa nomlarini ma'nolari va so'roqlari asosida farqlashga o'rganadilar.
- 3-4-sinf ona tili darslari – nazariy bosqich:
 - ot so'z turkumi tushunchasi hosil qilinadi;
 - otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi bilan tanishtiriladi: bu jarayonida o'quvchilarda: 1) birlik va ko'plikda qo'llangan otlarning ma'nosi va qo'shimcha orqali farqlash, 2) birlikdagi otdan ko'plik shaklidagi va, aksincha, ko'plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish, 3) gapda so'zlarning bog'lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi;
 - otlarning egalik qo'shimchalarini bilan o'zgarishi o'rgatiladi: bunda: “egalik” so'zining leksik ma'nosi; Shaxs va son tushunchasi; so'zlovchi, tinglovchi, o'zga so'zlarini ma'nosi; egalik qo'shimchalarining ikki varianti bilan tanishtiriladi;
 - grammatik mavzular bilan bog'liq holda lug'at zahirasi boyitiladi, nutqi o'stiriladi, imloviy malaka hosil qilinadi.

3 -ilova

Blits-o'yin

No	Savollar	Yakk a javob	To'g' 'ri javob	Sizning harakatingiz
1.	Boshlang'ich sinflarda qaysi so'z turkumlari o'rganiladi?			Nimani bildirish, so'roqlari, o'zgarish-o'zgarmasligi, gapdagi vazifasi
2.	O'quvchilar so'z turkumlarining qaysi xususiyatlari bilan tanishtiriladi?			So'zlarni leksik-semantik, morfologik, sintaktik guruhlanishi
3.	So'z turkumlari			Ot, sifat, son, kishilik olmoshlari, fe'l
4.	Otni o'rganishning amaliy			Taqqoslash

	ahamiyati			
5.	Otlarning birlik-ko'plikda qo'llanishi qaysi usulda o'rganiladi?			Lug'at zahirasi boyiydi, nutqi o'sadi, imloviy malaka hosil bo'ladi
6	Otlarning birlik-ko'plikda qo'llanishi qaysi usulda o'rganiladi?			Muammoli

4- ilova

BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. So'z turkumlarini o'rganishdagi metodlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, so'zlardan to'g'ri foydalanish malakasini o'stirish, til dalillarini kuzatish, savol-javob

B) Ot, sifat, son, fe'l haqida tushuncha berish, bu so'z turkumlariga oid so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yoza olish, suhbat, darslik bilan ishlash

C) So'z turkumlari: ot, sifat, son, fe'l, ravish haqida tushuncha berish, bu so'z turkumlariga oid so'zlardan nutqda to'g'ri foydalana olish, ko'rgazmadan foydalanish

D) Evristik metod, yarim izlanishli muammoli metod, tarmoqlash metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktik metodlar

2. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?

A) 3-sinf davriga

B) 2-sinf davriga

C) savod o'rgatish davriga

D) A, V, S

2-ma'ruza

1 - MAVZU	Otlarning kelishik kategoriyasini va ot yasovchi qo'shimchalarni o'rganish
----------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 123 ta
Mashg'ulot shakli	Anjuman ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. So'zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratish tamoyillari 2. Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganish aspekti Z. Ot so'z turkumi yuzasidan o'quvchilarga beriladigan bilim va hosil

	qilinadigan ko'nikma va malakalar 4. Otni o'rganishda izchillik. 5. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'rganish 6. Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rganish	
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalarni boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini, ot va otning birlik – ko'plikda, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish usullari bilan tanishtirish	
O'qituvchining vazifasi: 1. Talabalarning so'z turkumlari haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash . 2. Talabalarda so'z turkumlarini o'rganishning ahamiyati va ular ustida ishlash bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilish 3. Talabalarni boshlang'ich sinflarda ot turkumini o'rganish izchilligi, dastur talablari, son va egalik kategoriyalarini o'rganish usullari, mashqlar tizimi bilan tanishtirish. 4. Ma'ruza davomida talabalarning faoliyatini kuzatish va baholash (5 ball asosida).	O'quv faoliyatining natijasi Talabalar bilishi kerak 1. So'z turkumlarini o'rganishning maqsad va vazifalarini. 2. So'z turkumlarini, jumladan, ot, otning ko'plik va birlikda, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish usullaridan foydalana olishni, mashqlar tizimini qo'llay bilishni egallashi. 3. otning ko'plik va birlikda, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda ko'rgazmali qurollar, ta'limiy o'yinlardan foydalana bilishni.	
Ta'lim metodi va texnikasi	Suhbat, muammoli izlanish, mustaqil ish metodi. Komp'yuter texnologiyasidan foydalanish: slaydlar.	
Ta'lim vositasi	Proektor	
Ta'lim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash	
Ta'lim sharti	Auditoriya, TSOdan foydalanish	
Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (5 daqiqa)	1. Ma'ruza mavzusini (So'z turkumlarini o'rganish metodikasi. Otlarda son va egalik kategoriyasini o'rganish)	Eshitadi, yozadi, javob beradi.

	<p>2. Ma'ruza maqsadini 3.Ma'ruza rejasini e'lon qilish.</p>	
<p>2-bosqich Bilimlarni aktallashtirish (5 daqiqa)</p>	<p>1.So'zlar qaysi tamoyillar asosida turkumlarga ajratiladi? 2. So'z turkumi deganda nimani tushunasiz? 3. Boshlang'ich sinflarda dastur talablariga ko'ra qaysi so'z turkumlari o'rganiladi? (1-ilova) 4. So'z turkumini o'rganishning ta'limiy va amaliy ahamiyati nimada? 5.So'z turkumlarini o'rganishda qaysi metodlarni samarali deb hisoblaysiz?</p>	<p>Muhokama uchun savol- topshiriqlarga talabalarning javobi</p>
<p>3-bosqich Axborot berish (65 daqiqa)</p>	<p>1. Ma'ruza: 20 daqiqa 2. Topshiriq.. 1. K.Qosimovanning "Ona tili o'qitish metodikasi"da so'z turkumlarining qaysi belgilari o'rganiladi deyilgan?(2-ilova) 2. Boshlang'ich sinflarda otlar qanday izchillikda o'rganiladi?(-ilova) 3.Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini o'rgatishning eng maqbul usulini misollar bilan tushuntiring.(-ilova) 4.Otlarning son va egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda o'quvchilarda q.anday imloviy ko'nikmalar hosil bo'ladi? (-ilova) 5.Egalik qo'shimchalari</p>	

	<p>bilan otlarning qo'llanishini o'rgatish usullarini misollar bilan yoritib bering.</p> <p>Uning mahokamasi: 10 daqiqa</p> <p>3. Taqdimot: 5 daqiqa</p>	
<p>4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)</p>	<p>1.Otlarning birlik va ko'plikda qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarni namoyish qilish. 2.Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarga misollar ko'rsatish.</p> <p>3. Otlarning birlik va ko'plikda , egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlardan namunalar namoyish qilish.</p> <p>4.Blits texnologiyasi asosida mavzu yuzasidan talabalar bilimini aniqlash</p>	

3-ma'ruza

MAVZU	Sifat so'z turkumini o'tish metodikas
--------------	---------------------------------------

1.16.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 123 ta
Mashg'ulot shakli	Anjuman ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Boshlang'ich sinflarda sifat turkumi yuzasidan o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim, ko'nikma, malaka. 2. Boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganish bosqichlari va izchilligi. 3. Sifatni o'rganishda qo'llanadigan

	<p>metodlar.</p> <p>4. Sifat soʻz turkumini oʻrganishda qoʻllaniladigan mashqlar tizimi.</p>	
Oʻquv mashgʻulotning maqsadi	Talabalarni boshlangʻich sinflarda soʻz turkumlarini, ot va otning birlik – koʻplikda, egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishini oʻrgatish usullari bilan tanishtirish	
<p>Oʻqituvchining vazifasi:</p> <p>5. Talabalarining soʻz turkumini oʻrganish yuzasidan bilimlarini aniqlash.</p> <p>6. Boshlangʻich sinfda sifat soʻz turkumini oʻrganish boʻyicha dastur talablari bilan tanishtirish.</p> <p>7. Boshlangʻich taʼlimda sifatni oʻrganish izchilligi bilan tanishtirish.</p> <p>8. Boshlangʻich sinflarda sifatni oʻrganishda qoʻllanadigan metod va usullarni oʻrgatish.</p> <p>9. Sifatni oʻtidsha mashqlar tizimidan toʻgʻri foydalana olishga oʻrgatish.</p> <p>10. Maʼruza davomida talabalarining faoliyatini kuzatish va baholash (5 ball asosida).</p>	<p>Oʻquv faoliyatining natijasi</p> <p>Talabalar bilishi kerak</p> <p>3. Sifat turkumini oʻrganish boʻyicha davlat taʼlim standarti va ona tili dasturi talablarini bilib olish.</p> <p>4. Sifatni oʻrganish bosqichlari va ularda qoʻllanadigan metodlarni egallashlari.</p> <p>5. Sifatni oʻtishda mashqlardan toʻgʻri foydalana olish.</p> <p>6. Sifat soʻz turkumini oʻrganishda koʻrgazmali qurollardan foydalana bilish.</p> <p>7. Darsda faol ishtirok etish.</p>	
Taʼlim metodi va texnikasi	suhbat, izlanish, mustaqil ish, AKTdan foydalanish, “CHarxpalak metodi“, Blits metodi.	
Taʼlim vositasi	Proektor	
Taʼlim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash	
Taʼlim sharti	Auditoriya, TSOdan foydalanish	
Dars bosqichlari va vaqti	Oʻqituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish. (5 daqiqa)	<p>1. Maʼruza mavzusini</p> <p>(Sifat soʻz turkumini oʻtish metodikasi)</p> <p>2. Maʼruza maqsadini</p>	Eshitadi, yozadi, javob beradi.

	3.Ma'ruza rejasini e'lon qilish.	
2-bosqich Bilimlarni aktuallashtirish (5 daqiqa)	<p>1.So'zlar qaysi tamoyillar asosida turkumlarga ajratiladi?</p> <p>2. So'z turkumi deganda nimani tushunasiz?</p> <p>3. Boshlang'ich sinflarda dastur talablariga ko'ra qaysison so'z turkumining qaysi grammatik xususiyatlari o'rganiladi? (1-ilova)</p> <p>4. Sifat so'z turkumini o'rganishning ta'limiy va amaliy ahamiyati nimada?</p> <p>5.Sifat so'z turkumini o'rganishda qaysi metodlarni samarali deb hisoblaysiz?</p>	Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalarning javobi
3-bosqich Axborot berish (65 daqiqa)	<p>1. Ma'ruza: 20 daqiqa</p> <p>2. Topshiriq.. 1. K.Qosimovanning "Ona tili o'qitish metodikasi"da sifat so'z turkumining qaysi belgilari o'rganiladi deyilgan?</p> <p>2. Boshlang'ich sinflarda sifatlar qanday izchillikda o'rganiladi?</p> <p>3.Sifatni o'rganish bo'yicha DTS va dastur talablari ayting.</p> <p>4.Boshlang'ich sinfda sifat so'z turkumini suhbat, yarim izlanish; muammoli metod, analitik, sintetik, induktiv metodlardan qaysi birida o'rganish yaxshi samara beradi?</p> <p>5.Sifatni o'rganish necha</p>	

	<p>bosqichga bo'linadi? Bu bosqichlarning vazifalari nimalardan iborat?</p> <p>6. Sifatni o'rganishdagi mashqlar tizimi misollar bilan yoriting.</p> <p>Uning mahokamasi: 10 daqiqa</p> <p>3. Taqdimot: 5 daqiqa</p>	
<p>4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)</p>	<p>1.Sifatning ma'no turlarini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarni namoyish qilish.</p> <p>2.Rang(hajm, shakl, hid, maza, xil-xususiyat) bildiruvchi sifatlarga doir mashqlar tizimini ishlab chiqing.</p> <p>3. Sifatlarni o'rgatishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlardan namunalar namoyish qilish.</p> <p>4.Blits texnologiyasi va test asosida mavzu yuzasidan talabalar bilimini aniqlash</p>	

1 -ilova

Sifat yuzasidan o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim:

Bilim:

- 1.Sifat, sifatning ma'no turlari;
- 2.Qanday?, qanaqa? So'roqlariga javob bo'lishi;
- 3.Ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi;
4. Ohang yordamida bog'lanishi;
5. SHakldosh, ma'nodosh sifatlari.

Ko'nikma:

- 1.Sifatning ma'no turlarini farqlashi.
- 2.Sifatga qanday? so'rog'ini bera bilishi.
3. Gap va matn tarkibidan sifatni so'roqlari orqali aniqlay bilishi.
4. Sifatlarni belgi bildiruvchi boshqa so'zlardan farqlay bilishi.
5. Sifat bog'lanib kelgan so'z orqali unga so'roq bera olishi. Sifatning otga bog'lanib kelishini bilishi.
- 6.Sifatning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishini, uni to'lqinli chiziq orqali belgilay olishi.

-
7. Sifatlarni to'g'ri talaffuz qila olishi.
 8. Sifatlardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri va o'rinli foydalana olishi.
 9. Sifatlarga shakldosh so'zlar, ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli sifatlar topa olishi.

Malaka:

1. Sifatlarning ma'nosini izohlay olishi.
2. Sifatlarning talaffuzi va yozilishini izohlay olishi.
3. Imlo lug'atdan foydalana olishi.
4. Sifatlarni o'qilgan asar matnidan topa olishi
5. Berilgan sifat ishtirokida birikma va gap tuza olishi.
7. O'qiganlari, kuzatganlari va rasm asosida sifatlarni qatnashtirib kichik hikoyacha tuza olishi.
8. Matndagi sifatlarni boshqa ma'nodosh sifatlar bilan almashtirisha bilishi.

4 - ilova

Sifatni o'rgatishda quyidagi metodlarni qo'llang va ularning eng samaradorini ajratib, izoh bering.

Suhbat metodi

Induktiv metod

Analitik metod

Aqliy hujum

Tarmoqlash metodi

Deduktiv metod

Sintetik metod

Yarim izlanishli muammoli metod

Mustaqil ish metodi va hokazo.

5 -ilova

Mashqlar tizimi

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga qanday?, qanaqa? so'roqlarini bering. Bu so'zlar qanday ma'no bildirayotganini ayting.
2. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ular qanday ma'noni bildiriyapti?
3. Qanday? so'rog'i yordamida sifatlarni toping.
4. Rang, shakl, maza bildirgan sifatlarni narsa va Shaxs bildirgan so'zlar bilan birikma tarzida yozing.
5. Qanday? so'rog'iga javob bo'lgan sifatlarni toping. Ular kimning yoki nimaning belgisini bildirayotganini ayting.
6. Sifatlarga narsa va Shaxs bildirgan so'zlar orqali so'roq bering va ularni birikma tarzida yozing.
7. Sifatlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birikma tarzida yozing.
8. Sifatlarni aniq lab, o'zi bog'langan so'zlar bilan birikma tarzida yozing. Ularning tagiga to'lqinli chiziq chizing. Ma'no turini qavs ichida ko'rsating.
9. CHiziqchalar o'rniga sifatning ma'no turlaridan mosini qo'yib yozing.
10. Sifatlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birikma tarzida yozing. Ularning

gapdagi vazifasini ayting.

11. Sifatlariga ma'nodosh (shakldosh, qarama-qarshi) ma'noli sifatlar toping.

Ular ishtirokida gaplar tuzing. SHakldosh so'zlarning turkumini ayting.

12. Rasm asosida "Oltin kuz" mavzusida hikoyacha tuzing. Hikoyangizda sifatlardan foydalaning.

MAVZU	Son so'z turkumini o'tish metodikasi
--------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 123 ta
Mashg'ulot shakli	Anjuman ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 5. Boshlang'ich sinflarda son turkumi yuzasidan o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim, ko'nikma, malaka. 6. Boshlang'ich sinflarda sonni o'rganish bosqichlari va izchilligi. 7. Sonni o'rganishda qo'llanadigan metodlar. 8. Son so'z turkumini o'rganishda qo'llaniladigan mashqlar tizimi.
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalarni boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini, ot va otning birlik – ko'plikda, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish usullari bilan tanishtirish
O'qituvchining vazifasi: <ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarining so'z turkumini o'rganish yuzasidan bilimlarini aniqlash. 2. Boshlang'ich sinfda son so'z turkumini o'rganish bo'yicha dastur talablari bilan tanishtirish. 3. Boshlang'ich ta'limda sonni o'rganish izchilligi bilan tanishtirish. 4. Boshlang'ich sinflarda sonni 	O'quv faoliyatining natijasi Talabalar bilishi kerak <ol style="list-style-type: none"> 8. Son turkumini o'rganish bo'yicha davlat ta'lim standarti va ona tili dasturi talablarini bilib olish. 9. Sonni o'rganish bosqichlari va ularda qo'llanadigan metodilarni egallashlari. 10. Sonni o'tishda mashqlardan to'g'ri foydalana olish. 11. Son so'z turkumini o'rganishda

o'rganishda qo'llanadigan metod va usullarni o'rgatish. 5. Sonni o'tidsha mashqlar tizimidan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish. 6. Ma'ruza davomida talabalarning faoliyatini kuzatish va baholash (5 ball asosida).		ko'rgazmali qurollardan foydalana bilish. 12. Darsda faol ishtirok etish.
Ta'lim metodi va texnikasi		suhbat, izlanish, mustaqil ish, AKTdan foydalanish, "CHarxpalak metodi", Blits metodi.
Ta'lim vositasi		Proektor
Ta'lim shakli		Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash
Ta'lim sharti		Auditoriya, TSOdan foydalanish
Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish. (5 daqiqa)	1. Ma'ruza mavzusini (Son so'z turkumini metodikasi) 2. Ma'ruza maqsadini 3. Ma'ruza rejasini e'lon qilish.	Eshitadi, yozadi, javob beradi.
2-bosqich Bilimlarni aktallashtirish (5 daqiqa)	1. So'zlar qaysi tamoyillar asosida turkumlarga ajratiladi? 2. So'z turkumi deganda nimani tushunasiz? 3. Boshlang'ich sinflarda dastur talablariga ko'ra qaysi son so'z turkumining qaysi grammatik xususiyatlari o'rganiladi? (1-ilova) 4. Son so'z turkumini o'rganishning ta'limiy va amaliy ahamiyati nimada? 5. Son so'z turkumini o'rganishda qaysi metodlarni samarali deb hisoblaysiz?	Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalarning javobi

<p>3-bosqich Axborot berish (65 daqiqa)</p>	<p>1. Ma'ruza: 20 daqiqa 2. Topshiriq.. 1. K.Qosimovaning "Ona tili o'qitish metodikasi"da son so'z turkumining qaysi belgilari o'rganiladi deyilgan? 2. Boshlang'ich sinflarda sonlar qanday izchillikda o'rganiladi? 3.Sonni o'rganish bo'yicha DTS va dastur talablari ayting. 4.Boshlang'ich sinfda son so'z turkumini suhbat, yarim izlanish; muammoli metod, analitik, sintetik, induktiv metodlardan qaysi birida o'rganish yaxshi samara beradi? 5.Sonni o'rganish necha bosqichga bo'linadi? Bu bosqichlarning vazifalari nimalardan iborat? 6. Sonni o'rganishdagi mashqlar tizimi misollar bilan yoriting. Uning mahokamasi: 10 daqiqa 3. Taqdimot: 5 daqiqa</p>	
<p>4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)</p>	<p>1.Sonlarning ma'no turlarini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarni namoyish qilish. 2.Sanoq sonlarni qo'shimchalar bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarga misollar ko'rsatish. 3. Sonlarni o'rgatishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlardan namunalar namoyish qilish.</p>	

	4.Blits texnologiyasi va test asosida mavzu yuzasidan talabalar bilimini aniqlash	
--	---	--

1- ilova

Ma'ruza mavzusi: **Son so'z turkumini o'tish metodikasi**

2- ilova

Ma'ruza rejasi:

1. Boshlang'ich sinflarda son turkumi yuzasidan o'quvchilarda hosil qilinadigan bilim, ko'nikma, malaka.
2. Boshlang'ich sinflarda sonni o'rganish bosqichlari va izchilligi.
3. Sonni o'rganishda qo'llanadigan metodlar.
4. Son so'z turkumini o'rganishda qo'llaniladigan mashqlar tizimi.

3 -ilova

Son yuzasidan o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim:

Bilim:

- 1.Son, sanoq son, tartib son:
- 2.Necha?.nechanchi?, qancha?, nechanchi? so'roqlari;
- 3.Ikkinchi darajali bo'lak;
4. Ohang yordamida bog'lanish;
5. Shakldosh sonlar.

Ko'nikma:

- 1.Sonning sanoq va tartib ma'nolarini farqlashi.
- 2.Songa necha?, nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlarini bera bilishi.
3. Gap va matn tarkibidan sonni so'roqlari orqali aniqlay bilishi.
4. Sonlarni ko'p, ancha, oz, kam kabi so'zlardan farqlay bilishi.
5. Son bog'lanib kelgan so'z orqali unga so'roq bera olishi. Sonning otga bog'lanib kelishini bilishi.
- 6.Sonning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishini, uni to'lqinli chiziq orqali belgilay olishi.
- 7.Sonlarni to'g'ri talaffuz qila olishi.
8. Sonlardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri va o'rinli foydalana olishi.
9. Sonlarga shakldosh so'zlar topa olishi.

Malaka:

- 1.Sanoq va tartib sonlarning ma'nosini izohlay olishi.
- 2.Sonlarning talaffuzi va yozilishini izohlay olishi.
- 3.Imlo lug'atdan foydalana olishi.
- 4.Sonlarni harfiy shaklda arab va rim raqamlarida imloviy to'g'ri yozisha bilishi.
- 5.Sanoq sonlarni tartib sonlarga, tartib sonlarni sanoq sonlarga aylantira olishi.
- 6.Berilgan son ishtirokida birikma va gap tuza olishi.
- 7.O'qiganlari, kuzatganlari va rasm asosida sonlarni qatnashtirib kichik

hikoyacha tuza olishi.

8. Matndagi sonlarni boshqa miqdor bildiruvchi so'zlar bilan almashtirisha bilishi.

4 -

ilova

Soni o'rgatish metodlari

Suhbat metodi

Induktiv metod

Analitik metod

Aqliy hujum

Tarmoqlash metodi

Deduktiv metod

Sintetik metod

Yarim izlanishli muammoli metod

Mustaqil ish metodi va hokazo.

5 -ilova

Mashqlar tizimi

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga necha?, nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlarini bering. Bu so'zlar qanday ma'no bildirayotganini ayting.

2. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ular qanday ma'noni bildiriyapti?

3. Necha?, nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlari yordamida sanoq va tartibni bildirgan so'zlarni toping.

5. Sanoq va tartib bildirgan so'zlarni narsa va Shaxs bildirgan so'zlar bilan birikma tarzida yozing.

6. Necha?, nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni toping. Ular kimning yoki nimaning sanog'ini yoki tartibini bildirayotganini ayting.

7. Sanoq va tartib bildirgan so'zlarga narsa va Shaxs bildirgan so'zlar orqali so'roq bering va ularni birikma tarzida yozing.

8. Sanoq va tartib bildirgan so'zlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birikma tarzida yozing.

9. Sanoq va tartib bildirgan so'zlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birikma tarzida yozing. Sanoq va tartib bildirgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

10. CHiziqchalar o'rniga sanoq va tartib bildirgan so'zlardan mosini qo'yib yozing.

11. Sanoq va tartib bildirgan so'zlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birikma tarzida yozing. Ularning gapdagi vazifasini ayting.

12. Sanoq bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar toping. Ular ishtirokida

gaplar tuzing. SHakldosh so'zlarning turkumini ayting.

13. Rasm asosida "Sayohatda" mavzusida hikoyacha tuzing. Hikoyangizda sonlardan foydalaning.

6-ilova

Mashqlardan namunalar:

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

_____yigitga _____hunar oz.
_____mayizni _____kishi bo'lib yebdi.

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

2 yaproq 1 tanda,
Kezar yozda chamanda.

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

Pak-pakana bo'yi bor,
_____qavat to'ni bor.

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

	yil
Bir	fasl
	oy
	hafta
	sutka

7 -

ilova

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

Ma'rifat xonasiga o'quvchilar keldilar. Ikkita o'quvchi 2-sinfda o'qiydi. To'rtta o'quvchi 3-sinfda o'qiydi.

O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i asosida **ikkita(nechta?)**, **to'rtta(nechta?)** so'zlari sanoq, **ikkinchi**, **uchinchi(nechanchi?)** so'zlari tartib bildirayotganini aniqlaydilar va guruhlaydilar (sanoq bildiruvchi so'zlar, tartib bildiruvchi so'zlar)

9

-ilova

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

4- sinf, 15- maktab, 22- mart, 2008-yil

10 -ilova

O'n beshinchi maktab, to'rtinchi sinf, yigirma ikkinchi mart, ikki ming sakkizinchi yil

11 -ilova

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

To'rtinchi sinf, yigirmanchi asr, o'ttizinchi aprel.

12 -ilova

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz va u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

Ikki+ov,olti+ov, yetti+ov, uch+ala, to'rt+ala.

13 -ilova

Quyidagi mashqda o'quvchilarga qanday topshiriq berasiz u o'quvchilarni nimaga o'rgatadi?

Uch-uch, yuz-yuz, qirq-qirq.

14 -ilova

Uch soniga shakldosh so'z toping. U nimani bildiriyapti?..

15 -ilova

“Charxpalak metodi“da quyidagi mustaqil ish bajartilishi mumkin.

Quyidagi mashqda o’quvchilarga qanday topshiriq berasiz?

Qanday usulda bajartirasiz?

So’zlar	So’z turkumlari			
	Ot	Sifat	Fe’l	Son
kitob				
shirin				
ikki				
tingladi				
sakkiz				
qalam				
ona				
shodlandi				
o’ttiz ikki				
ulkan				

16 -

ilova

Topshiriq.

Quyidagi so’zlarning qaysi so’z turkumiga tegishliligini aniqlang.

Bajarish usuli.

O’quvchilar guruhlariga bo’linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi.

Topshiriqni bajarganlaridan so’ng ularning ishlari boshqa guruhdagi o’quvchilarga uzatiladi, oxiri xato va kamchiliklari tuzatilgan holda yana shu guruhga qaytib keladi. Keyin o’qituvchi to’g’ri javobni ko’rsatadi.

17 -ilova

“Aql charxi“ metodida uyushtiriladigan mashq.

Quyidagi mashqda o’quvchilarga qanday topshiriq berasiz?

Qanday usulda bajartirasiz?

1-o’quvchi: ikki.

2- o’quvchi: ikki - yetti.

3- o’quvchi: ikki – yetti - sakkiz

4- o’quvchi: ikki - yetti – sakkiz - o’ttiz.

Yoki:

1-o’quvchi: ikkinchi.

2- o’quvchi: ikkinchi - yettinchi.

3- o’quvchi: ikkinchi – yettinchi - sakkizinchi.

4- o’quvchi: ikkinchi - yettinchi – sakkizinchi - o’ttizinchi.

ilova

3-4ta o'quvchi tanlanadi. 1-o'quvchi berilgan topshiriqqa mos so'z aytadi. Masalan, "Tarkibida ikkita bir xil undosh bo'lgan son ayting". 2-o'quvchi 1-o'quvchi aytgan sonni qaytaradi va o'zi ham shunday son topib qo'shadi. 3-4-o'quvchilar o'yinni shu tarzda davom ettiradilar.

19 -ilova

2- sinf o'quvchilarini "Sanoq va tartib bildirgan so'zlar" mavzusi o'rganishga tayyorlang.

20 -ilova

O'quvchilarning oldingi bilimlarini aniqlash.

Biz qaysi so'zlarga so'roq berishni o'rgandik? (Shaxs va narsa, belgi, harakat bildirgan so'zlarga so'roq berishni o'rgandik.)

Kim?, nima? so'roqlari qaysi so'zlarga beriladi?

Qanday?, qanaqa? so'roqlari-chi?

Nima qildi?, nima qilyati? so'roqlari-chi?

Sinf taxtasiga:

Akram daraxt shoxidan uchta shaftoli uzdi.

SHarifa uchinchi partada o'tiradi.

gaplari yoziladi. Bolalar yuqoridagi savollar asosida narsa va Shaxs bildiruvchi so'zlarni belgilaydilar: Akram, daraxt, shaftoli, SHarifa, parta

21 -ilova

2- sinfda "Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar" mavzusini quyidagi o'quv materialini asosida tushuntiring.

Akram daraxt shoxidan uchta shaftoli uzdi.

Sharifa uchinchi partada o'tiradi.

O'qituvchi:

Birinchi gapni o'qing.

SHaftoli so'ziga so'roq bering. U nimani bildiryapti? (U narsani bildiryapti.)

SHaftoli so'zi orqali uchta so'ziga so'roq bering. Uchta so'zi qaysi so'roqqa javob bo'lyapti? (Nechta?) U shaftolining nimasini bildiryapti? U shaftolining belgisini bildiryaptimi yoki harakatini bildiryaptimi? (Yo'q) Bolalar javob bera olmaydi.

O'qituvchi doskadagi uchta so'zining tagiga to'lqinli chiziq chizadi va strelka bilan shaftoli so'ziga bog'laydi. Uchta shaftolining sanog'ini bildiryapti. Shuning uchun nechta? so'rog'iga javob bo'lyapti.

Demak, uchta so'zi sanoqni bildiradigan so'z. U narsaning sanog'ini bildiradi tarzida tushuntiradi.

Shundan so'ng nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladigan holatga o'tiladi.

O'qituvchi:

Ikkinchi gapni o'qing. SHu gapdagi *yil* so'zi orqali uchinchi so'ziga so'roq bering. (nechanchi? yili)

Uchinchi so'zi qaysi so'roqqa javob bo'lyapti? (nechanchi?) Yilning nimasini bildiriyapti? Belgisini bildiriyaptimi? (yo'q). Bolalar javob berolmaydi. O'qituvchi sinf taxtasiga quyidagi birikmalarni yozadi:

birinchi yili

uchinichi yili

ikkinchi yili

Tartib bo'yicha qaysi oldin turadi? (1) birinchi yili; 2) ikkinchi yili; 3) uchinchi yili;) Ko'rdingizmi? 1-, 2-, 3-, yilning, narsaning (predmetning) tartibini bildiriyapti.

Siz nechanchi sinfda o'qiyasiz? Siz qaysi sinfdan keyin turasiz? (1-sinf) qaysi sinfdan oldin turasiz? (2-sinf).

22 -ilova

Ko'rgazmali jadvallar

2- sinfda "Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar" mavzusiga doir darslarda qanday jadvallardan foydalanasiz?

23 -ilova

3- sinfda son so'z turkumini o'rganishda qanday jadvallardan foydalanasiz?

24 -ilova

4- sinfda son so'z turkumini o'rganishda qanday jadvallardan foydalanasiz?

25 -ilova

Aqliy hujum.

Son turkumiga doir so'zlar qaysi janrdagi asarlarda ko'p uchraydi?

26 -ilova

**BILIMLARNI TEKSHIRISH UCHUN
TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Boshlang'ich sinflarda son necha yo'nalishda o'rganiladi?

A. 5 yo'nalishda:

- 1) talaffuzi;
- 2) ma'nosi;
- 3) grammatik shakllari;
- 4) grammatik vazifasi
- 5) imlosi;

V. 4 yo'nalishda:

- 1) leksik-semantik xususiyati;
- 2) talaffuzi va imlosi;
- 3) morfologik shakllari;
- 4) sintaktik vazifasi .

S. 3 yo'nalishda:

- 1) talaffuzi va imlosi;
Har ikki gurux uchun bir xil savol-topshiriqlar kartochkalarga yozilib konvertlarda, guruh sardorlariga beriladi.

Savol-topshiriqlarni mukammal, aniq va tez bajargan guruh g'olib sanaladi. Guruhlar kichik guruhlarga ajralib, savol va topshiriqlarni bo'lib olishadi va

tayyorgarlik ko'radilar. Javoblarini savol yozilgan kartochkalarining orqa tomoniga yoki alohida kartochkaga yozadilar.

1. Egalik qo'shimchalarini tushuntirishning eng qulay metodi qaysi?
2. Egalik qo'shimchalari ustida qanday izchillikda ishlanadi?
3. Egalik qo'shimchalarining so'z o'zagida hosil qiladigan o'zgarishlari.
4. Egalik qo'shimchalarining qanday uslubiy xatoning oldini oladi.

#### **1-guruh uchun topshiriq.**

**1-topshiriq.** Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishi yuzasidan beriladigan bilimlarni tarmoqlash usulida ifodalang.

**2-topshiriq.** Egalik qo'shimchalari yuzasidan hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarni tarmoqlash usulida yoriting.

**3-topshiriq.** Dastur va darslikning muvofiqligini asoslab bering.

#### **4 – topshiriq. 1-guruh uchun savol va topshiriq.**

Darsning otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi va undosh bilan tugagan otlarga qo'shiladigan egalik qo'shimchalarini tushuntirish qismini yoriting.

#### **2-guruh uchun topshiriq.**

Darsda otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi va unli bilan tugaydigan otlarga qo'shiladigan egalik qo'shimchalarini tushuntirish qismini yoriting.

Talabalarga besh daqiqa vaqt beriladi. So'ng ikki guruh bir-birining tushuntirishlari bo'yicha bahs-munozaraga kirishadi, bir-birining xato va kamchiliklarini aytadilar.

**1-topshiriq.** Egalik qo'shimchalari qo'shilishi bilan ot o'zagida yuz beradigan o'zgarishlarni qanday tahlil asosida tushuntirasiz? Tushuntirish yo'lini kuzatish, taqqoslash, bo'g'in-tovush tahlili yordamida bayon qiling.

**2-topshiriq.** Egalik qo'shimchalari yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlashda qanday qo'shimcha ta'limiy vositalardan foydalanasiz? Amaliy ko'rsatib bering. (O'yin, krossvord, test, jadval va h.k.).

**3-topshiriq.** Darslik materiallari ustida ishlash usullarini ochib bering.

**162-mashq.** Nuqtalar o'rniga qavs ichida ko'rsatilgan egalik qo'shimchalarini qo'yib she'rni qo'chiring.

Jajjigina barmoqchalar ... (11sh.)  
Harakatdan to'xtamas bir zum.  
Sen chizgan gul, bayroqchalar ...(11sh),  
Bayram uchun sovg'adir, qiz ...(1) .

Ona ..(11sh.) shunda ochar keng quchoq,  
Go'yo ko'kka yetgandek bosh ...(11sh.).  
Sensan doim inga ovunchoq,



Sen onangning kichik yo'ldoshi ...(111sh.).

#### 4-topshiriq.

**O'qing.** Egallik qo'shimchalari narsa va Shaxsning qaysi Shaxsga tegishlilikini bildiradi?

Jajji, ovunchoq so'zlarining yozilishini yodingizda tuting.

Jajji so'ziga ma'nodosh so'z topib ayting.

#### Har ikkala guruh uchun topshiriq.

**175-mashq.** So'zlarni o'qing. So'zlar o'zagidagi o'zgarishlarni kuzating. CHap tomondagi so'zlar o'zagidagi tovushlar sonini aniqlang. So'ng o'ng tomondagi so'zlar o'zagidagi tovushlar sonini aniqlang. Qanday farqni sezdingiz?

|        |  |         |
|--------|--|---------|
| burun  |  | burnim  |
| og'iz  |  | og'zim  |
| shahar |  | shahrim |
| singil |  | singlim |

So'z o'zagida qaysi tovush tushib qolgan?

**177-mashq.** So'zlarni o'qing. So'z o'zagidagi o'zgarishni tuzating.

|        |  |          |
|--------|--|----------|
| bilak  |  | bilagi   |
| kurak  |  | kuragi   |
| chelak |  | chelagi  |
| bayroq |  | bayrog'i |
| quloq  |  | qulog'i  |

Namuna: bilak + i = bilagi.

So'z o'zagidagi tovush o'zgarishiini ayting. Qaysi tovush boshqa tovushga aylandi? Nima uchun?

**178-mashq.** So'zlarga egallik qo'shimchalaridan birini qo'shib o'qing.

Xalq, xulq, erk, ishtiyoq, ishtirok, nok?

So'z o'zagida o'zgarish bo'ldimi? So'zlarda egallik qo'shimchalaridan birini qo'shib yozing.

**179-mashq.** So'zlarni o'qing. Ularga egallik qo'shimchalaridan birini qo'shib yozing. So'zlarning yozilishini tushuntiring.

Koptok, baliq, maktab, choynak, qo'shiq, ona, zirak, o'rik, tariq, iqdisod.

**180-mashq.** Nuqtalar o'rniga 2 Shaxs birlikdagi egallik qo'shimchalarni qo'yib o'qing va yozing.

Turar boylikka kon tog' ... ,  
Quyish erur chin o'rtoq ... .  
O'ynab oqar sho'x buloq ...  
Mening yurtim, O'zbekiston.

*Z.Ahmedova*

So'z o'zagida qanday tovush o'zgarishi yuz berganini ayting.

**184-mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini ayting.

SHahari bor, odami yo'q,

Daryosi bor, suvi yo'q.

Oppoq sochli boshlari,

Daryo bo'lar yoshlari

Ildiz yerda,

Yulduz ko'kda

Otlari har xil,

Yoshlari bir xil.

**Ko'chiring.** Egalik qo'shimchalarining Shaxs-soni va qanday tovush bilan tugagan otlarga qo'shilganini ayting.

Egalik qo'shimchalari yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlashda qanday qo'shimcha ta'limiy vositalardan foydalanasiz? Amaliy ko'rsatib bering. (O'yin, krossvord, test va h.q.).

**9-topshiriq.** «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusidagi dars fragmentlarini amalda ko'rsating.

- yangi mavzuni tushuntirish (ikkala guruhdan bittadan talaba chiqib ko'rsatadi).

- egalik qo'shimchalarining gapda so'zlarni bir-biriga bog'lanishini tushuntirish dars fragmentini yoriting.

- egalik qo'shimchalari qo'shilishi bilan so'z o'zagida tovush so'z o'zgarishi yuz beradigan hodisa o'rganiladigan dars fragmentini yoriting.

**10-topshiriq.** Kuzatilgan dars fragmentini tahlili uchun metodik tafsiyalar:

- o'quv materiallarining to'g'ri tanlaganligi;

- metodning samaradorligini, o'quvchilar faolligini oshirishdagi o'rni;

- ko'rgazmalilik, ta'limiy vositalardan o'rinli va unumli foydalanish.

- o'quvchining mustaqil izlanishga undalganligi;

- amaliy mashg'ulotning borishi yuzasidan talabalarning fikrini eshitish;

- talabalarning, faoliyatini baholash.

### amaliy mashg'ulot (2 soat)

|              |                                                                                            |
|--------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>MAVZU</b> | <b>«Otlarning kelishiklar bilan qo'llanishi» mavzusini o'rganish darsini tashkil etish</b> |
|--------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|

### Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

|                          |                                                                                                                             |
|--------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqt: 1 soat             | Talabalar soni: 30 ta                                                                                                       |
| Mashg'ulot shakli        | Amaliy mashg'ulot                                                                                                           |
| Amaliy mashg'ulot rejasi | 1.Mashg'ulotni tashkil etish.<br>2.Talabalarda mavzu ustida ishlashga rag'bat uyg'otish.<br>3.Talabalarning mavzu yuzasidan |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | <p>fikr-mulohazalarini, tayyorlagan axborotlarini tinglash.</p> <p>4.Mashg'ulot davomida amalga oshirilgan metodik faoliyatlar muhokamasini tashkil etish.</p> <p>5.Mashg'ulotni yakunlash.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | <p>1.Talabalarning «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusidagi ma'ruzada egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish qo'nikmalarini shakllantirish.</p> <p>1. 2-4–sinf ona tili dasturining egalik qo'shimchalari bo'yicha mazmun-mundariyasi va talablari bilan tanishtirish, uning ona-tili darslik bilan mosligini qiyosiy-tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish.</p> <p>3. Dastur asosida «Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» mavzusini taqvimni tuzishga o'rgatish.</p> <p>4.Talabalarning mavzu bo'yicha izlanishga, mustaqil fikrlashga undash, faolligini oshirish.</p> |
| <p>O'qituvchining vazifasi:</p> <p>1.Otni o'tish izchilligi haqidagi talabalar bilimlarini aniqlash.</p> <p>2.Talabalarning «Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi» mavzusini o'tish bo'yicha nazariy bilimlarni aniqlash.</p> <p>3.Dars namunalarini kuzatish va tahlil qilish.</p> <p>4.Talabalar faoliyatini baholash.</p> | <p>O'quv faoliyatining natijasi</p> <p>Talabalar bilishi kerak</p> <p>1. Kelishik qo'shimchalari yuzasidan o'rgangan dastur talablari va metodik adabiyotlar yuzasida savollarga javob berish.</p> <p>2. Mavzuni o'tish bo'yicha ishlab chiqqan metodik tavsiyalarini, ta'limiy xarakterdagi mashqlarni dars jarayonida yoritib berish.</p> <p>3. Guruhdagi o'rtoqlarning fikr-mulohazalarini tinglash, ularga munosabat bildirish.</p>                                                                                                                                                                                    |
| Ta'lim metodi va texnikasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | <p>Qadamba-qadam metodi, mustaqil ish metodi.</p> <p>.Komp'yuter texnologiyasidan foydalanish: slaydlar.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| Ta'lim vositasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Proektor                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |

|                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                         |
|--------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| Ta'lim shakli                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash |
| Ta'lim sharti                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Auditoriya, TSOdan foydalanish                          |
| Dars bosqichlari va vaqti                              | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Talaba                                                  |
| 1-bosqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa)                      | 1. Amaliy mashg'ulot mavzusini (Otlarning kelishiklar bilan qo'llanishi» mavzusini o'rganish darsini tashkil etish)<br>2. Amaliy mashg'ulot maqsadini<br>3. Amaliy mashg'ulot rejasini e'lon qilish.                                                                                                                                                                   | Eshitadi, yozadi, javob beradi.                         |
| 2-bosqich<br>Bilimlarni aktuallashtirish<br>(5 daqiqa) | <b>Metod.</b> Aqliy hujum, suhbat.<br><b>Maqsad.</b> Talabalar boshlang'ich sinflarda so'z turkumlari, jumladan, ot so'z turkumini o'rganish bo'yicha fikrlarini aniqlash.<br>Aqliy hujum. Talabalar 2 guruhga ajratiladi, ekspert guruhi (3 talabadan iborat) tuziladi. Ular talabalar bilimi, faoliyatini baholab beradi.<br>Talabalar nazariy bilimlarini baholash. | Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalar javobi    |
| 3-bosqich<br>Axborot berish<br>(25 daqiqa)             | 1. Amaliy: 10 daqiqa<br>1. Kelishik qo'shimchalarini o'rganish bo'yicha 4-sinf ona tili dasturi mazmunini va talabalarini o'rganing.<br>2. Otlarning turlanishi buyicha metodist prof.K.Qosimova, T.Ashrapovalarning metodik qarashlarini                                                                                                                              |                                                         |

|                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |  |
|-----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
|                                                     | <p>o'rganing.</p> <p>3.Otlarning kelishiklar bilan qo'llanishini o'rganish bo'yicha «4-sinfda ona tili darslari» metodik qo'llanmasidagi tavsiyalarni o'rganing.</p> <p>4.Kelishik qo'shimchalarini o'rganish darslarining namunaviy ishlanmalarini tayyorlang.</p> <p>5.Darsda foydalanish uchun qo'shimcha ta'limiy vositalar tayyorlang.</p> <p>6.Ot yasovchi qo'shimchalarni o'rganish darslari ishlanmasini yozing.</p> <p>Uning mahokamasi: 10 daqiqa</p> <p>3. Taqdimot: 5 daqiqa</p> |  |
| <p>4-bosqich<br/>Yakuniy bosqich<br/>(5 daqiqa)</p> | <p>1.Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarni namoyish qilish.</p> <p>2.Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarga misollar ko'rsatish.</p> <p>3. Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlardan namunalar namoyish qilish.</p> <p>4.Blits texnologiyasi asosida mavzu yuzasidan talabalar bilimini aniqlash</p>                     |  |

«Lahzada aql charhi» o'yini tashkil etiladi.

Har ikki guruhga savollar yozilgan kartochkalar konvertga solib beriladi.

Talabalardan savollarga tezlik bilan tayyorgarliksiz javob berishlari talab qilinadi.

1- guruh uchun savol-topshiriqlar.

4-sinf ona tili dasturida kelishik qo'shimchalarining qaysi xususiyatlari o'rganiladi deyilgan?

prof.K.Qosimova «Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi» ni qaysi tartibda tushuntirish samarali deb hisoblaydi? Nima uchun ?

kelishik qo'shimchalarini tushuntirishda qanday o'kuv materialini tanlash maqsadga muvofiq?

jo'nalish kelishik qo'shimchalari variantlarining qo'llanishini qanday usulda tushuntirish oson ?

o'rin-payt va chiqish kelishik qo'shimchalarining imlosini tushuntirishda qanday usullardan foydalaniladi?

2-guruh uchun savol-topshiriqlar:

4-sinf ona tili dasturida otlarning kelishiklar bilan qo'llanishi bo'yicha o'quvchilar bilimiga qanday talablar qo'yilgan?

Pedagogik bilim yurtlari talabalari uchun nashr qilingan «Ona tili metodikasi» darsligida otlarning kelishiklar bilan qo'llanishini o'rgatish bo'yicha qanday metodik tavsiyalar berilgan?

Kelishik qo'shimchalari bilan tanishtirishda o'quvchilarning qaysi bilimlariga asoslaniladi?

Qaratqich va tushum kelishiklarining qo'llanishini o'rgatishda qanday holatga asoslaniladi?

Kelishiklarni o'tish jarayonida qanday sintaktik bilimlar shakllantiriladi?

2. Dars fragmentlarini kuzatish.

1-guruh uchun:

**1-topshiriq.** Darsning «Otlarning kelishiklar bilan qo'llanishi» mavzusini tushuntirish fragmentini amaliy yoritib bering .

**2-topshiriq.** Darsning «Otlarning kelishiklar bilan qo'llanishi» mavzusini mustahkamlash fragmentini tashkil qilib bering.

**3-topshiriq.** Ot yasovchi qo'shimchalarni tushuntirish, dars fragmentini yoriting.

2-guruh uchun.


**1-topshiriq.** Kelishik qo'shimchalarini o'tish jarayonida leksik mashqlarni tashkil etish namunasini ko'rsating .

**2-topshiriq.** Kelishik qo'shimchalarini o'rganish jarayonida sintaktik hodisalar ustida ishlash (gapda so'zlarning bog'lanishi, gap bo'laklari) namunasini ko'rsating.

**3-topshiriq.** Darsning ot yasovchi qo'shimchalarni mustahkamlash qismini yoriting

Kuzatilgan dars fragmentlarini tahlil qilish.

4. Darslik materiallari ustida ishleng.



**205-mashq.** Berilgan otga mos tanlab birikma tarzida yozing.

**213-mashq.** Berilgan fe'llarga mazmunan mos keladigan tushum kelishigidagi otni tanlab, birikma shaklida yozing. o'qidi Tomosha qildi.

**217-mashq.** Berilgan tushum kelishigidagi otga mos fe'llar topib, birikma tuzing va yozing.

**220-mashq.** Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'yib ko'chiring.

Anvar bola chog'idan gulzor . . . ( ning, ni ) yaxshi ko'rardi.

Maxdum ... (ni, ning ) oilasiga kelgach, bog'cha (ni, ning ) gulzor qismiga o'zi qaray boshladi. Gulzor ... ( ni,ning ) sug'orish , o'tlar ( ni , ning ) yulish vazifalari ... (ni, ning) o'zi bajardi .Bolalar ... (ni, ning) uyidan gul ko'chat va urug' olib, gulzor ... (ni, ning ) boyitdi.

Yoz kunlari bolalar ... (ni, ning) kapalak va tilla-qo'ng'iz tutishga buyurdi. U ozor bermay, zaxmsiz kapalak keltirgan bola ... (ni, ning) sabog'i ... (ni, ning) o'rgatdi. Kapalak va tilla-qo'ng'izlar ... (ni, ning) gulzorga uchirib yuborardi.

(Abdulla Qodiriydan)

**222-mashq.** Berilgan so'zlarga mos otlar topib, ularni qaratqich yoki tushum kelishigida qo'llab, birikma tuzing.

\_\_\_\_\_ o'qidi, \_\_\_\_\_ bargi, \_\_\_\_\_ yozdi,  
\_\_\_\_\_ hovlisi, \_\_\_\_\_ bog'i, \_\_\_\_\_ ko'rdi.

2 – guruh uchun.

**232-mashq.** Berilgan fe'lga mos ot tanlab, birikma tuzing va yozing.

a

**233-mashq.**

Nuqtalar o'rniga -ga, -ka, -qa qo'shimchalaridan mosini qo'yib o'qing. Jo'nalish kelishigidagi otlarning aytilishi va yozilishidagi farqni tushuntiring.

Yangi yilda o'yimiz,  
O'ssa osmon bo'yimiz,  
Ko'k ... tegsa archamiz,

Ilindi CHo'rtan  
Qarmoq ...  
Kimdir to□qilar

Oy ... qo'nsa sharchamiz,  
 Oy aylansa saroy ...  
 Oyda o'ynasak poyga  
 Minishib yulduz toy ...

Qirg'oq ...  
 Bolalar turdi  
 Oyoq  
 Onajon , to'xtang! Qayoq  
 .. ? !

**238-mashq.** Berilgan fe'lga mos ot tanlab birikma tuzing.

**244-mashq.** Berilgan fe'lga mos otlar toping. Uni chiqish kelishigida qo'llab, so'z birikma tuzing va yozing.

**249-mashq.** Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib o'qing. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

Ubaydullo bobo bugun ish... sal kech qaytdi. - Buvajon! Malika odatdagidek bobosining quchog'i ... otildi. - Jon qizim, senga va'da qilgan narsani olib kelolmadim, - dedi buvasi. - Nega, buvajon? - Kassir bank.. bora olmabdi. -Kassir? Kim u ? - Kassir bankdan pul keltirib, xizmatchilarga tarqatadi. - Voy, kecha biz oyim bilan bankalar .. pomidor tuzladik-ku ! - Banka emas , bank! Bank daromadlar jam bo'ladigan joy. Pulning uyi desam ham bo'ladi.

*Nomoz Sa'dullaev .*

5. Talabalarining ijodiy ravishda tuzib kelgan ta'limiy o'yin, krossvord, testlari ustida ishlash.

6. Mashg'ulotda o'rganilganlar yuzasidan talabalarining fikr-mulohazalarini eshitish.

7. Ekspert guruhi qo'ygan ballarini e'lon qiladi. Darsning yutuq-kamchiliklarini izohlaydi.

|              |                                                                           |
|--------------|---------------------------------------------------------------------------|
| <b>MAVZU</b> | <b>Ot yasovchi qo'shimchalar mavzusini o'tish darsini tashkil qilish.</b> |
|--------------|---------------------------------------------------------------------------|

|                                |                                                                                                                                                                                   |
|--------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'quv vaqti: 1 soat            | Talabalar soni: 30 ta                                                                                                                                                             |
| O'quv mashg'uloti shakli       | Amaliy mashg'ulot bahs-munozara                                                                                                                                                   |
| Muhokama uchun savollar        | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. So'z yasovchi qo'shimchalar, uni til taraqqiyotidagi o'rni.</li> <li>2. So'z yasovchi qo'shimchalariga o'rgatishi izchilligi</li> </ol> |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi. | <ol style="list-style-type: none"> <li>3. So'z yasovchi qo'shimchalar o'rgatish usullari</li> </ol>                                                                               |



|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ot yasovchi qo'shimchalarni o'tish bo'yicha keng va chuqur bilim berish;</li> <li>- boshlandi ot yasovchi qo'shimchalarni o'tish bo'yicha ko'rgazma, tarqatma material, ta'limiy o'yinlar tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>- darslikdagi mashqlar ustida ishlash ko'nikmalarini o'stirish;</li> <li>- o'rganilgan bilim ko'nikmalarni tartibga solishga, umumlashtirishga va zulosalarga o'rgatish;</li> <li>- o'z fikr-qarashlarini bayon etish va himoya qilishini o'rgatish.</li> </ul> | <p>4. Ot yasovchi qo'shimchalar yasagan otlarning ma'nolarini o'rganish.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <p>O'qitishning texnik va uslubiy yo'nalishi</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <p>Mavzu bo'yicha talabalar bilimini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavzuni o'tish bo'yicha o'zining metodik qarashlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish. O'quv faoliyati natijalari.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- so'z yasovchi qo'shimchalarning so'z turkumlari bilan aloqasini anglashlariga, til taraqqiyotidagi o'rnini tushunishlariga erishiladi;</li> <li>- ta'limiy o'yinlar, ko'rgazmali qurollarni, tarqatma materiallarni tayyorlash ko'nikmalarini egallaydilar. Ulardan amaliy foydalanishga o'rganadilar;</li> <li>- dars jarayonida o'z fikr mulohaalarining adabiy nutq me'yorlari asosida ravon, tushunchalarni, izchil bayon etish.</li> </ul> |
| <p>O'qitishning texnik va uslubiy yo'nalishi</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <p>Bahs</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <p>O'qitish vositalari</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | <p>1-4 sinf ona tili darsliklari qo'shimcha metodik adabiyotlar, o'quv dasturi. 1-4 sinf ona tili o'qitish metodikalari.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <p>O'qitish shakli</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | <p>Alohida va jamoa bo'lishb ishlash.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <p>O'qitish sharoiti</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | <p>Maxsus jihozlangan auditoriya</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |

|                        |                                   |
|------------------------|-----------------------------------|
| Monitoring va baholash | Og'zaki so'rov, yozma auditoriya. |
|------------------------|-----------------------------------|

### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

| Bosqichlar va vaqt                           | Faoliyat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                       |
|----------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                              | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | Talabalar                                                                                                                                                                                                             |
| Mashg'ulotga tayyorgarlik                    | <p><b>1.</b> Amaliy mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                          | <p><b>1.</b> Mavzu bo'yicha o'tiladigan dars fragmentlarini tanlab oladilar.</p>                                                                                                                                      |
|                                              | <p><b>2.</b> Mavzuga doir adabiyotlar ro'yxatini tavsiya etadi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                 | <p><b>2.</b> Har bir dars o'tuvchi talabaga ishini ko'rib chiqish uchun taqrizchi tayinlanadi.</p>                                                                                                                    |
|                                              | <p><b>3.</b> Mavzu bo'yicha ekspertlar guruhini takshil etish.<br/>Dars o'tadigan o'quvchilarga maslahatlar beradi.</p>                                                                                                                                                                                                             | <p><b>3.</b> Dars fragmentini o'tgan talabalar faoliyatini muhokama qiladilar, yutuqlarini ko'rsatadi, tavsiyalar beradi, ya'na darsdan leksik, ilmiy pedagogik va metodik, psixologik jihatdan tahlil qiladilar.</p> |
| 1-bosqich.<br>Mashg'ulotga kirish (5 daqika) | <p><b>1.1.</b> Mashg'ulot mavzusini, maqsadlarini, o'quv faoliyati rejalarini, amaliy mashg'ulotning xususiyatlari e'lon qilinadi.<br/><b>1.2.</b> Dars fragmentlarini tahlil qilish tartibini, amaliyotchi o'qituvchining chiqish vaqtini eslatadi (2-ilova). Bahs-munozara, ya'ni tahlil ishtirokchilarini baholashni aytadi.</p> | <p><b>1.1.</b> Mashg'ulotda qatnashuvchi amaliyotchi o'qituvchilar ekspert guruhi bilan tanishadilar.<br/><b>1.2.</b> Aniqlashtiruvchi savollar beradilar, ko'nikmalarni egallaydilar.</p>                            |
| 2-bosqich.<br>Asosiy qism (25 daqika)        | <p><b>2.1.</b> Amaliyotchi o'qituvchining chiqishlarini tashkil qiladi.<br/>- mavzu materiallarini uni o'tish usullarini tuzatib boradi.</p>                                                                                                                                                                                        | <p><b>2.1.</b> Amaliyotchi o'qituvchi o'z dars fragmentini namoish etadi.<br/>guruh a'zolari o'tilgan dars fragmenti yuzasidan savollar beradi. Ijobiy</p>                                                            |

|                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                       |
|---------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                             | <p>Zarurat bo'lganda amaliyotchi o'qituvchini to'xtatib unga o'z munosabatini bildiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- guruh jamoasi ayrim masalalarini guruh jamoasi muhokamasiga qo'yadi.</li> <li>- talabalardan mashg'ulotga qiziqish yo'llarini tashkil qiladi.</li> <li>- har bir amaliyotchi o'qituvchining faoliyatini muhokamaga qo'yadi va umulashtiradi.</li> </ul>                                                                                                                                                        | <p>salbiy o'rinarini aytadi. Takliflari bilan bahs-munozaraga kirishadi.</p> <p><b>2.2.</b> Amaliyotchi talabalarning chiqishlarini baholaydilar.</p> |
| <p>3-bosqich<br/>Yakuniy qism 10 daqiqa</p> | <p><b>3.1.</b> Amaliy mashg'ulotga yakun yasashni tashkil qiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mashg'ulot maqsadining amalga oshirilish darajasini izohlaydi.</li> </ul> <p>Mavzuni o'tish bo'yicha fikrlarni to'ldiradi, aniqlik kiritadi, yangi samarali usullarni tavsiya etadi, tavsiyalarni amaliy ochib beradi. Munozarali qarashlarni hal qilib beradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- amaliyotchi o'qituvchining faoliyatni izohlandi va baholaydi;</li> <li>- muhokama qatnashchilarini baholaydi.</li> </ul> | <p><b>3.1.</b> 1) ekspert guruhleri bir-birlarining faoliyatini baholaydi va izohlaydi;</p> <p>2) vazifani yozib oladilar.</p>                        |
|                                             | <p>Mashg'ulot mavzusi bo'yicha yakuniy xulosalar yasaydi.</p> <p>Mustaqil tayyorlash uchun vazifalar beradi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                       |

**1-ilova. 1.** 3-sinfda so'z tarkibini o'rganish jarayonida so'z yasovchi qo'shimchalarni o'rganish bo'yicha darsfragmentini namoyish eting.

2. 3-sinfda. Ot so'z turkumini o'tish bo'yicha yangi mavzuni tushuntirish dars fragmentini ko'rsating.

3. 4-sinfda ot so'z turkumini o'tish bo'yicha yangi mavzuni tushuntirish dars fragmentini ko'rsating.

### 2-ilova.

1. Darsning o'quv vazifalari mustahkamlash etapida qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlar ishlab chiqing.

2. Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqli tarqatma materiallar tayyorlang.

3. Dars mavzusi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish uchun test tuzing.

4. Mavzuni yuzasidan jadvallar tuzing.

### 3-ilova. Mavzuni mustahkamlashda darslik materiallari ustida ishlash bo'yicha topshiriqlar.

1. Ot yasovchi qo'shimchalar yuzasidan berilgan mashqlar izchilligiga munosabatingizni bildiring.

2. Berilgan mashqlarni kichik guruhlarda taqsimlab olib, ular ustida ishlash yo'lini ochib bering.

### Amaliy mashg'ulotda dars fragmentini namoyish etgan va bahs-munozarada qatnashgan talabalarni baholash mezonlari

| №  | Baholash mezonlari                                                                                                        | Ball |    |    |     |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|----|----|-----|
|    |                                                                                                                           | 30   | 40 | 30 | 100 |
|    |                                                                                                                           | 30   | 40 | 30 | 100 |
| 1. | Amaliy mashg'ulot mavzusining yoritilishi                                                                                 |      |    |    |     |
| 2. | Bayon etishning to'liqligi, aniqligi, ketma-ketligi, mantiqiyliigi.                                                       |      |    |    |     |
| 3. | Qo'llanilmagan ta'limiy vositalar o'quv materiallarining to'g'ri, tanlanganligi va ulardan o'rinli foydalanish.           |      |    |    |     |
| 4. | O'qituvchi mahorati                                                                                                       |      |    |    |     |
| 5. | O'qituvchining nutq madaniyati                                                                                            |      |    |    |     |
| 6. | Xulosalarning aniq ifodalanishi                                                                                           |      |    |    |     |
| 7. | Dars tahlili.<br>a) ijobiy tommlarini ko'rsatish;<br>b) kamchiliklarini ko'rsatish;<br>v) tavsiya berish va uni asoslash. |      |    |    |     |
| 8. | Savollar bilan ishtirok etish, savollar soni.                                                                             |      |    |    |     |
| 9. | Dasr bo'yicha talabining Shaxsiy fikri va ijodkorligi                                                                     |      |    |    |     |

|     |                      |  |  |  |  |
|-----|----------------------|--|--|--|--|
| 10. | Vaqtga rioya qilishi |  |  |  |  |
| 11. | Jami (Eng yuqorisi). |  |  |  |  |

|              |                                                     |
|--------------|-----------------------------------------------------|
| <b>MAVZU</b> | Sifat turkumini o'rganishi darslarini tashkil etish |
|--------------|-----------------------------------------------------|

### Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| Ta'lim vositasi                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Proektor                                                                                        |
| Ta'lim shakli                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash                                         |
| Ta'lim sharti                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Auditoriya, TSOdan foydalanish                                                                  |
| Dars bosqichlari va vaqti                                                           | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Talaba                                                                                          |
| 1-bosqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa)                                                   | 1.Amaliy mashg'ulot mavzusini <b>(Fe'llarning Shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rganish)</b><br>2. Amaliy mashg'ulot maqsadini<br>3.Amaliy mashg'ulot rejasini e'lon qilish.                                                                                                                                                                                                                                                                     | Eshitadi, yozadi, javob beradi.                                                                 |
| 2-bosqich<br>Bilimlarni aktuallashtirish<br>(5 daqiqa)                              | 1.Boshlang'ich sinflarda dastur talablariga ko'ra fe'lning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini, fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'rgatish bo'yicha nimalar berilgan?<br>4. Fe'lning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini , fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'rganishning ta'limiy va amaliy ahamiyati nimada?<br>5. Fe'lning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini , fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'rganishda qaysi metodlarni samarali deb | Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalarning javobi                                        |

|                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |  |
|--------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
|                                            | hisoblaysiz?                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |  |
| 3-bosqich<br>Axborot berish<br>(65 daqiqa) | <p>1. Amaliy: 20 daqiqa<br/>1 Fe'ning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l yasovchi qo'shimchalar qaysi sinfda o'rganiladi va mavzu bo'yicha dastur mazmuni va talablarini o'rganing.</p> <p>2. Fe'ning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'tish mavzu bo'yicha taqvim reja tuzing.</p> <p>3. Fe'ning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l yasovchi qo'shimchalar o'tish bo'yicha metodik adabiyotlarni o'rganing va nazariy savol-javob uchun savol-topshiriqlar tuzing.</p> <p>4. Fe'ning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini, fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'rgatishda qo'llanadigan mashqlarni namoyish qilish.</p> <p>5. Fe'ning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishini, fe'l yasovchi qo'shimchalarni o'rgatishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlardan namunalar namoyish qilish.</p> <p>6. Fe'ning Shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l yasovchi qo'shimchalar o'tish darsi</p> |  |



|                                            |                                                                                                                                       |  |
|--------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
|                                            | ishlanmasini yozing.<br>7.Mavzu bo'yicha<br>ta'limiy vositalar<br>yarating.<br>Uning mahokamasi: 10<br>daqiq<br>3. Taqdimot: 5 daqiqa |  |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | 1.Blits texnologiyasi<br>asosida mavzu yuzasidan<br>talabalar bilimini aniqlash<br>2. Insert jadvalini<br>to'ldirish.                 |  |

1-ilova

**1-topshiriq.** Talabalarga savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatish.

**Savol-topshiriqlar.**

Shaxs-son qo'shimchalarini tushuntirishning qulay metodi qaysi?

Fe'llarda Shaxs-son qo'shimchalari ustida qanday izchillikda ishlanadi?

Fe'llarda Shaxs-son qo'shimchalarining o'rganilishi qanday uslubiy xatoning oldini oalid?

Savol-topshiriqlarni mukammal aniq va tez bajargan talaba ball oladi.


Namuna. Quyidagi «So'zsiz jadval» ni to'ldiring.

Namuna

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |
|  |  |  |

| Shaxslar | Sonlar   |            |
|----------|----------|------------|
|          | Birlik   | Ko'plik    |
| I        | O'qidim  | O'qidik    |
| II       | O'qiding | O'qidingiz |
| III      | O'qidi   | O'qidilar  |

Har bir guruhlarga krossvord tarqatish.



So'z turkumlardan biri.

Mo''tabar zot.

Boshi o'xshar taroqqa.

Dumi o'xshar o'roqqa (*topishmoq*).

Qo'y – echki podasi (*so'zning ma'nosi*).

Ko'plik qo'shimchasi.

Bolalar jurnil.

Milli cholg'u asboblardan biri.

Ushbu krossvordni 1 daqiqada yechish.

Fe'llar Shaxs-son qo'shimchalariga xos xususiyatni tarmoqlash usulidan yoriting.

Namuna

**2-topshiriq.** Fe'llarda Shaxs-son qo'shimchalari yuzasidan o'quvchi bilimni mustahkamlashda qanday qo'shimcha ta'limiy vositalardan foydalanasiz? Amaliy ko'rsatib bering.

**3-topshiriq.** Fe'llarning Shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanishi mavzusidagi dars fragmentlarini amaliy ko'rsating.

- yangi mavzuni tushuntirish (uchala guruhdan bittadan talaba chiqib amaliy ko'rsatadi);

- fe'llarda Shaxs-son qo'shimchalarining gapda so'zlarni bir-biriga bog'lanishdagi vazifasini tushuntirish dars fragmentini yoritish.

#### **4-topshiriq.** Kuzatilgan dars fragmentlari tahlili.

Tahlil uchun metodik tavsiyalar.

- o'quv materialining to'g'ri tanlanganligi;  
- metodning samaradorligini o'quvchilar faolligini oshirishdagi o'rni;  
- ko'rgazmalilik, ta'limiy vositalardan o'rinli va unumli foydalanish;  
- o'quvchilarni mustaqil izlanishiga undalganligi va ular uchun sharoitning yaratilish;

- xulosalarning aniqligi va asoslanganligi;  
- leksik va imloviy mashqlarning tashkil etilishi;  
- o'qituvchining nutqi aniqligi va izchilligi.

#### **5-topshiriq.** Darslik materiallari ustida ishlash usullarini ochib bering.

**384-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan fe'llarga so'roq bering.

**388-392-397-mashqlar.** Nuqtalar o'rniga Shaxs-son qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chirish.

#### **6-topshiriq.** Guruhlar bir-biriingizning darsdagi faoliyatingizni izohlang.

- bir-biringizdan nimalarni o'rgandingiz?  
- dars oldiga qo'yilgan maqsadga erishilmaganlik darajasi va o'qituvchi faoliyatini izohlang;  
- guruhning va guruhdagi faol talabalarni baholang va izohlang;

### **amaliy mashg'ulot**

|                     |                                                                  |
|---------------------|------------------------------------------------------------------|
| <b>1-<br/>MAVZU</b> | <b>Gap va uning turlarini o'rganish darslarini tashkil etish</b> |
|---------------------|------------------------------------------------------------------|

#### **1.12. Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi**

|                          |                                                                                                                                                                                                                                                  |
|--------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqt: 2 soat             | Talabalar soni: 30 ta                                                                                                                                                                                                                            |
| Mashg'ulot shakli        | Amaliy mashg'ulot                                                                                                                                                                                                                                |
| Amaliy mashg'ulot rejasi | Mashg'ulotni tashkil etish.<br>Talabalarda mavzu ustida ishlashga rag'bat uyg'otish.<br>Talabalarning gap, gapning turlari fikr-mulohazalarini, tayyorlagan axborotlarini tinglash.<br>Mashg'ulot davomida amalga oshirilgan metodik faoliyatlar |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | <p>muhokamasini tashkil etish.<br/>Mashg'ulotni yakunlash.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <p>O'quv mashg'ulotning maqsadi</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <p>1. Talabalarning «Gap mavzusini o'tish. Gap ustida ishlash» mavzusidagi ma'ruzada egallangan nazariy bilimlarini aniqlash va mustahkamlash.</p> <p>2. Gap ustida ishlash bo'yicha metodik adabiyotlardan berilgan ma'lumotlar bilan tanishtirish.</p> <p>3. Talabalarni dastur asosida boshlang'ich sinflarida sintaktik elementlar ustida ishlashni o'rganish uchun ajratilgan soatlar bo'yicha taqvim-reja tuza olishga, gap, darak gap, buyruq gap haqida tushuncha hosil qilish metodlarini talay bilishga, mashqlar tizimini ishlab chiqishga, uchun til hodisalarini tanlay bilishga o'rganish.</p> <p>4. Talabalarni gap mavzusini o'tish bo'yicha maktab amaliyotiga tayyorlash.</p> |
| <p>O'qituvchining vazifasi:</p> <p>1. Talabalarning bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, fe'l zamonlari haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash .</p> <p>2. Talabalarda "Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar", "«Fe'l zamonlari»ni o'rganishning ahamiyati va ular ustida ishlash bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilish</p> <p>3. Talabalarni boshlang'ich sinflarda bo'lishli-bo'lishsiz fe'llar, fe'l zamonlarini o'rganish izchilligi, dastur talablari, Shaxs-son kategoriyalarini o'rganish usullari, mashqlar tizimi bilan tanishtirish.</p> <p>4. Ma'ruza davomida talabalarning faoliyatini kuzatish va baholash (5 ball asosida).</p> | <p>O'quv faoliyatining natijasi</p> <p>Talabalar bilishi kerak</p> <p>1. Gap ustida ishlash yuzasidan o'rganilgan dastur talabali va metodik adabiyotlar yuzasidan savollarga javob berish.</p> <p>2. Gap, gapning ma'no turlari bo'yicha ishlab chiqqan metodik tavsiyalarini, ta'limiy xarakterdagi mashqlarni dars jarayonida yoritib berish.</p> <p>3. 3-4-sinflarda gap, darak gap, buyruq gap mavzusini o'tishga tayyorlanishi.</p> <p>4. Pedagogik texnologiya asosida dastur ishlanmasini yaratish</p> <p>5. Guruhdagi o'rtoqlarining fikr-mulohazalarini tinglash, ularga munosabat bildirish.</p>                                                                                     |
| <p>Ta'lim metodi va texnikasi</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <p>Suhbat, muammoli izlanish,</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |

|                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                          |
|--------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
|                                                        | mustaqil ish metodi. Kompyuter texnologiyasidan foydalanish: slaydlar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                          |
| Ta'lim vositasi                                        | Proektor                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                          |
| Ta'lim shakli                                          | Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                          |
| Ta'lim sharti                                          | Auditoriya, TSOdan foydalanish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                          |
| Dars bosqichlari va vaqti                              | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Talaba                                                   |
| 1-bosqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa)                      | <p>1. Amaliy mashg'ulot mavzusini (Fe'llarning Shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rganish)</p> <p>2. Amaliy mashg'ulot maqsadini</p> <p>3. Amaliy mashg'ulot rejasini e'lon qilish.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | Eshitadi, yozadi, javob beradi.                          |
| 2-bosqich<br>Bilimlarni aktuallashtirish<br>(5 daqiqa) | <p>1. «Lahzada aql charxi» o'yini tashkil etiladi. Har guruhga savollar yozilgan kartochkalar konvertga solib beriladi. Talabalardan savollarga tezlik bilan tayyorgarliksiz javob berishlari talab qilinadi.</p> <p>2.Gap. Darak gap. Buyruq gaplarini boshlang'ich sinflarda o'rganish izchilligini aniqlash.</p> <p>3.Gap. Darak gap. Buyruq gap mavzularini soatlarga bo'lib chiqish.</p> <p>4.Yangi mavzu o'rganiladigan, dars mustahkamlanadigan dars fragmentlarini tayyorlang.</p> <p>5.Qo'shimcha o'quv materiallari, ko'rgazmali qurol: jadval, rasm, test kabilar tayyorlang.</p> | Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalarning javobi |

|                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |  |
|-----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| <p>3-bosqich<br/>Axborot berish<br/>(65 daqiqa)</p> | <p>1. Seminar mashg'uloti:<br/>20 daqiqa<br/>1.Gap ustida ishlash bo'yicha 1-2-sinflar va 3-4 sinf ona tili dasturining va talabalarini o'rganing.<br/>2.Gap, gapning turlari bo'yicha metodist professor Q.Qosimova, T.Ashrapovalarning metodik qarashlarini o'rganing.<br/>3.Gaplarning qo'llanilishi va ular ustida ishlash bo'yicha 1-sinf, 2-sinf, 3-sinf, 4-sinfda ona tili darslari metodik qo'llanmasidagi tavsiyalarni o'rganing, ularga munosabatingizni bildiring.<br/>4.Gap, gapning turlarini o'rganish darslari texnologiyasini yaratish.<br/>5.Darsda foydalanish uchun qo'shimcha ta'limiy vositalar tayyorlang. (krossvord, rebus ...)<br/>6.Gap mavzusini o'tish, gap ustida ishlash darslari ishlanmasini yozing.<br/>Uning mahokamasi: 10 daqiqa<br/>3. Taqdimot: 5 daqiqa</p> |  |
| <p>4-bosqich<br/>Yakuniy bosqich<br/>(5 daqiqa)</p> | <p>2. Testlar tuzing va ularni guruhlaro almashtirib yeching.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |  |

### 1-ilova

Tashkiliy qism.Talabalar 3 guruhga ajratiladi, ekspert guruhi (3 talabadan iborat) tuziladi. Ular talabalar bilimi, faoliyatini baholab boradi. Talabalarning javobini izohlab, to'ldirib turadi.

Mashg'ulotning borishi.1. «Lahzada aql charxi» o'yini tashkil etiladi. Har guruhga savollar yozilgan kartochkalar konvertga solib beriladi. Talabalardan savollarga tezlik bilan tayyorgarliksiz javob berishlari talab qilinadi.

1-guruh uchun savol va topshiriqlar.

- 1-2 sinf ona tili dasturida gaplarni o'rganish bo'yicha o'quvchilar bilimiga qanday talablar qo'yilgan?

- oliy o'quv yurtlari uchun nashr qilingan «Ona tili metodikasi» darsligida gaplarning xususiyatlarini o'rgatish bo'yicha qanday metodik tavsiyalar berilgan?

- 1-2 sinfda gaplar, gaplarning turlari mavzu ustida ishlashda o'quvchilarning qaysi bilimlariga asoslaniladi?

- darak gap so'roq, undov gaplarni qanday usulda tushuntirish yaxshi samara beradi?

2-guruh uchun savol topshiriqlar.

- professor qosimova «Gaplar matnlarda qo'llanishi va gaplar ustida ishlash» ni qaysi tartibdatushuntirish samarali deb hisoblaydi? Nima uchun?

- 3-sinf ona tili dasturida gap va ularning qaysi xususiyatlari o'rganiladi deyilgan?

- gap ustida ishlanganda va tushuntirganda qanday o'quv materialini tanlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz?

- darak gap, so'roq, undov gaplarni qanday usulda tushuntirish yaxshi samara beradi?

3-guruh uchun savol-topshiriqlar.

- 4 sinf ona tili dasturida gaplarni o'rganish bo'yicha o'quvchilar bilimiga qanday talab qo'yilgan?

- pedagogik bilim yurtlari talabalari uchun nashr qilingan «Ona tili metodikasi» darsligida gaplarning xususiyatlarini o'rgatish bo'yicha qanday metodik tavsiyalar berilgan?

- 4-sinfda gapning turlari mavzu ustida ishlashda o'quvchilarning qaysi bilimlariga asoslaniladi.

- gaplarni o'tish jarayonida qanday sintaktik bilimlar shakllantiriladi?

- gap va uning turlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda qanday amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi?

2. Dars fragmentlarini kuzatish.

1-guruh uchun 1-topshiriq.

Gaplar, gapning xususiyatlari ustida ishlash dars fragmentini amaliy yoritib bering.

2-topshiriq. Darsning gap, gapning turlari mavzusini mustahkamlash fragmentini tashkil qilib bering.

3-topshiriq. Gap mavzusini o'tishda uyushtiriladigan grammatik o'yinlarni tashkil qilib bering.

2-guruh uchun 1-topshiriq.

Gap mavzusini o'rganish jarayonida mashqlarni bajarish usuli namunasini ko'rsating.

2-topshiriq. Gap mavzusini o'rganish jarayonida sintaktik hodisalar ustida ishlash (gapda so'zlarning bog'lanishi, gap bo'laklari) namunasini ko'rsating.

3-topshiriq. Gap mavzusini mustahkamlash darsida qilinadigan biror ish turini o'tkazish usulini yoriting.

3-guruh uchun ham shu xildagi topshiriqlar beriladi.


3. Kuzatiladigan dars fragmentlarini tahlil qilish.

4. Darslik materiallari ustida ishlash.

1-guruh uchun.

Darslikdagi (4-sinf).

3, 6, 7, 8, 9, 10, 12, 15-mashqlarni bajarish usulini ochib bering,



2-guruh uchun.

Darslikdagi (4-sinf), 17, 18, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26 mashqlarni bajarish usulini yoritib bering.

Sxemali mashqlar tuzing.

Talabalar ijodiy ravishda tuzib kelgan ta'limiy o'yin, krossovr, testlar ustida ishlash.

Mashg'ulotda o'rganilganlar yuzasida talabalarning fikr-mulohazalarini eshitish.


Ekspert guruhi qo'ygan ballarini e'lon qiladi. Darsning yutuq-kamchiliklarini izohlaydi.

2-ilova

2-ilova. Talabalar tayyorlab kelgan ta'limiy vositalar ustida ishlash.

Namuna. **rasm**

Rasmning orqasiga gap yoziladi. Rasm qismlariga bo'lingan holatda bo'ladi. Agar gap to'g'ri tuzilsa rasm butun va to'g'ri chiqadi.



So'zlardan tashkil topgan nutq birligi.

Biror fikrini ifodalash oxiriga nuqta

qo'yiladigan gap.

Oxiriga «?» belgisi qo'yiladigan gap.





Buyruq gapning oxiriga qo'yiladigan belgi.

3. Talabalar tuzgan rejalashtirish ustida ishlash.

4. Dars fragmentlarini kuzatish va tahlil qilish.

5. Darslik materiallari ustida ishlash usulini yoritish.

3-sinfda gap mavzusi (gap, darak gap, buyruq gap) yuzasidan mashqlar 66, 67, 68, 69, 70, 71, 72, 73 (gap).

Darak gap – 74, 76, 77, 78, 79-mashqlar.

So'roq gap – 80, 82, 83, 84, 85, 86, 87, 88, 89, 90-mashqlar.

Undov gap – 92, 93, 94, 95, 96, 98, 99-mashqlar.

4-sinfda gap mavzusini yuzasidan mashqlar 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18-mashqlar.

Bu mashqlarni talabalar bo'lib olib, o'rgatish usulini yoritib beradi.

|              |                                                                                           |
|--------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>MAVZU</b> | <b>Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini o'rganish darslarini tashkil qilish</b> |
|--------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|

### **Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi**

|                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqt: 2 soat                 | Talabalar soni: 30 ta                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| Mashg'ulot shakli            | Amaliy mashg'ulot                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| Amaliy mashg'ulot rejasi     | 1. Gap bo'laklarini o'rganish bo'yicha nazariy savol-javob.<br>2. Gap bo'laklarini o'rganish bo'yicha ona tili dasturi tahlili.<br>3. Gap bo'laklariniga oid mavzularning taqvim rejasi ustida ishlash.<br>4. Gap bo'laklariniga oid mavzulardagi dars ishlanmalari taqdimoti.<br>5. Mavzuga doir ta'limiy vosita ustida ishlash.<br>6. Talabalar faoliyatini baholash. |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi | Talabalarni dastur asosida boshlang'ich sinflarda sintaktik elementlari ustida ishlashni o'rganish uchun ajratilgan soatlar buyicha taqvim-reja tuza olishga, ega, kesim, undalma tushunchalarini hosil qilish metodlarini                                                                                                                                              |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------|
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | tanlay bilishga, mashqlar tizimini ishlab chiqishga til hodisalari bo'yicha o'yin mashqlar tanlay bilishiga o'rgatish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                                 |
| <p>O'qituvchining vazifasi:</p> <p>1.Gap bo'laklari ustida ishlash bo'yicha talabalarga savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va talabalarga berish.</p> <p>2.Gap bo'laklari ustida ishlash bo'yicha metodik adabiyotlar ro'yxatini tuzish.</p> <p>3. Gap bo'laklari mavzusini mustahkamlashda o'yin, test, krossvord, diktant, ta'limiy o'yinlar, ko'rgazmali qurollar tayyorlashni o'rgatish.</p> <p>4.Ega kesim, undalma mavzularini o'rganish dars ishlanmasini tayyorlash bo'yicha maslahatlar berish.</p> <p>4.Ma'ruza davomida talabalarning faoliyatini kuzatish va baholash (5 ball asosida).</p> | <p>O'quv faoliyatining natijasi</p> <p>Talabalar bilishi kerak</p> <p>1.1-4-sinflarda gap bo'laklarini o'rganish mavzusini o'tishga tayyor bo'lishi.</p> <p>2.Talabalarning gap bo'laklari ustida ishlash bo'yicha metodik adabiyotlar ro'yxatini tuzib kelishi, mavzusini mustahkamlashda o'yin, test, krossvord, diktant, ta'limiy o'yinlar, ko'rgazmali qurollar tayyorlab kelishi.</p> <p>3.Pedagogik texnologiya asosida dars ishlanmasini yaratish.</p> <p>4.Amaliy mashg'ulotda faol ishtirok etish va ishlanmasini amaliy ijro etish.</p> |                                 |
| Ta'lim metodi va texnikasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Suhbat,muammoli izlanish, mustaqil ish metodi.Kompyuter texnologiyasidan foydalanish: slaydlar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                 |
| Ta'lim vositasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Proektor                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                 |
| Ta'lim shakli                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | Yakka tartibdagi savol-javob, kichik guruhlarda ishlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                 |
| Ta'lim sharti                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | Auditoriya, TSOdan foydalanish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                 |
| Dars bosqichlari va vaqti                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Talaba                          |
| 1-bosqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <p>1. Amaliy mashg'ulot mavzusini</p> <p>(Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini o'rganish darslarini tashkil qilish)</p> <p>2. Amaliy mashg'ulot maqsadini</p> <p>3. Amaliy mashg'ulot rejasini e'lon qilish.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Eshitadi, yozadi, javob beradi. |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | tushuntirishda o'qituvchini ko'ztish va o'quvchilar faolligini o'rganish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                                                 |
| O'qituvchining vazifasi:<br>1. Talabalarni nutq o'stirish bo'yicha DTS va ona tili dasturi bilan tanishtirish.<br>2. Darslarni ko'zatishtirish uchun sharoit yaratish.<br>3. Darslarni ko'zatishtirish uchun ko'rsatmalar berish.<br>4. Seminar mashg'uloti davomidagi talabalarning faoliyatini ko'zatishtirish va baholash (5 ball asosida). | O'quv faoliyatining natijasi<br>Talabalar bilishi kerak<br>1. Nutq o'stirishning maqsad va vazifalarini va ahamiyatini.<br>2. Nutq o'stirish yo'nalishlari va o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablarni<br>3. Nutq o'stirishda o'quv materialiga qo'yiladigan talablarni                                                                                                                   |                                                                 |
| Ta'lim metodi va texnikasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | Suhbat,, mustaqil ish metodi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                 |
| Ta'lim vositasi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | Dars jarayoni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                 |
| Ta'lim shakli                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Jamoalar bilan savol-javob, kichik guruhlarda ishlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                 |
| Ta'lim sharti                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Auditoriya, TSOdan foydalanish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                 |
| Dars bosqichlari va vaqti                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Talaba                                                          |
| 1-bosqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa)                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | 1. Seminar mavzusini<br><b>( O'quvchilar nutqini ko'zatishtirish vatahlil qilish)</b><br>2. Seminar mashg'uloti maqsadini<br>3. Seminar mashg'uloti rejasini e'lon qilish.                                                                                                                                                                                                                   | Eshitadi, ko'zatishtiradi, yozadi, tahlil qiladi, javob beradi. |
| 2-bosqich<br>Bilimlarni aktallashtirish<br>(5 daqiqa)                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 1. Ona tilidan o'tiladigan mavzularni o'rganish darslariga qanday metodik talablar qo'yilishini ishlab chiqing.<br>2. Ona tilidan qanday mavzular nutq o'stirishda muhim sanalishini o'rganish, talablar qo'yilishini yozing, (o'yinlar, testlar, ko'rgazmali qurollar).<br>3. Nutq o'stirishda qanday metodlardan foydalanish mumkin ekanini aniqlang.<br>4. Nutq o'stirish uchun darslikda | Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalarning javobi        |

|                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |  |
|--------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
|                                            | berilgan mashqlar tizimiga va topshiriqlar mazmuniga munosabatingizni yozma bildiring.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |  |
| 3-bosqich<br>Axborot berish<br>(65 daqiqa) | 1. Talabalarning ko'zatgan darslarida nutq o'stirish bo'yicha qilingan ishlar turini aniqlash<br>2. Darslarning metodik talablar javob berishini izohlatish.<br>3. Ona tilidan o'rganilgan mavzu bilan bog'liq ravishda nutq o'stirishning uyg'unligini ilmiy-metodlik jihatdan izohlatish.<br>4. Ko'zatilgan dars tahlili.<br>5. Ko'zatilgan darslar bo'yicha tavsiyalar berish.<br>6. Talabalarni baholash. |  |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | Umumlashtirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |  |

## 1-ilova

### **Ona tili va o'qish darsini nutq o'stirish buyicha ko'zatishtirish yo'zasi bilan metodik ko'rsatmalar**

1. Sifat *so'z* turkumi tushunchasini xosil qilishda o'quvchilarning oldingi bilimlarga qay tarzda, qay darajada asoslanilganligi.

2. Mavzuga bog'liq holda nutq o'stirishda o'quvchilar faolligini oshirish uchun qaysi metod va usullar bilan foydalanilganligi.

3. Nutq o'stirish uchun to'zilgan savol- topshiriqlarning aniqligi, mantiqiyliigi, tushunarliigi, izchililigini baxolab boring.

5. Matnni tahlil qilish kunlik masalasining shakllantirilishi

6. Predmetlarni tasvirlashda belgi bildiruvchi so'zlar vazifasining ochib berilishi va shu asosda lug'atining boyitilishi

7. Sifat yo'zasi bilan lugaviy mashqlarning tashkil etilishi.

8. Sifatlardan nutqda urinish foydalanish kunlik masalasini o'stirish ustidagi ishlar

9. Sifatlarning imloviy shakli ustida ishlash

10. Yozma, mustaqil va ijodiy ishlarning tashkil etilishi

11. Rang bildiruvchi sifatlar buyicha suxbatda o'quvchilar faolligini oshirilishi

12. Ta'm bildiruvchi sifatlarni o'rganishda o'quvchilar lugaviy boyligining axvoli ya'ni nechta ta'm bildiruvchi sifatni bilishi

13. Xil-xususiyat so'zi ma'nosini yoritilishi

14. Sifatlarning ma'no turlarini o'rgatishda jadvallardan foydalanish
15. O'quvchilarning sifatlarni ma'no turlarini o'zlashtirishni aniqlash usuli

Talabalar uchun topriqlar:

1. Sifatlarning ma'no turlari buyicha lugaviy mashqlar ishlab chiking.
2. «O'qish kitobi»dagi matnlar asosida xususiyat bildiruvchi sifatlarni buyicha tarkatma materiallar tayyorlang.
3. «Matndagi sifatlarga asoslanib rasm chizing» shartiga doir matn tanlang.
4. Uy xayvonlari va yovvoyi xayvonlarning xususiyatini ochib berish buyicha o'quvchilarga ko'rsatmalar tayyorlang.

### seminar mashg'uloti (2 soat)

|                      |                                                                               |
|----------------------|-------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1 –<br/>MAVZU</b> | <b>Sintaktik mavzular o'rganiladigan darslarni ko'zatish va tahlil qilish</b> |
|----------------------|-------------------------------------------------------------------------------|

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Vaqti: 2 soat                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Talabalar soni: 15 ta                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| Mashg'ulot shakli                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <b>Seminar mashg'uloti</b>                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| Seminar mashg'uloti rejasi                                                                                                                                                                                                                                                                           | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Konstruktiv mashqlar va ijodiy mashqlar tashkil etilgan ona tili darslarini ko'zatish.</li> <li>4. Ko'zatilgan dars tahlili.</li> <li>5. Ko'zatilgan darslar bo'yicha tavsiyalar berish.</li> <li>6. Talabalarni baholash.</li> </ol>                     |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi                                                                                                                                                                                                                                                                         | Talabalarning «Nutq o'stirishda sintaktik mashqlar» mavzusidagi ma'ruzada egallangan ilmiy-metodik bilimlarini ta'lim jarayonida ko'zatish orqali amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish. Mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda o'qituvchini ko'zatish va o'quvchilar faolligini o'rganish    |
| O'qituvchining vazifasi:<br><ol style="list-style-type: none"> <li>1. Darslarni ko'zatish uchun sharoit yaratish.</li> <li>3. Darslarni ko'zatish uchun ko'rsatmalar berish.</li> <li>4. Seminar mashg'uloti davomidagi talabalarning faoliyatini ko'zatish va baholash (5 ball asosida).</li> </ol> | O'quv faoliyatining natijasi<br>Talabalar bilishi kerak<br><ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sintaktik mashqlarning maqsad va vazifalarini.</li> <li>2. Konstruktiv mashqlar va ijodiy mashqlar tashkil etilgan usullarini egallashi.</li> <li>3. Konstruktiv mashqlar va ijodiy</li> </ol> |

|                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                          |
|--------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
|                                                        | mashqlarni tashkil etishda ko'rgazmali qurollar, ta'limiy o'yinlardan foydalana bilishni.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                          |
| Ta'lim metodi va texnikasi                             | Suhbat,, mustaqil ish metodi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                          |
| Ta'lim vositasi                                        | Dars jarayoni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                          |
| Ta'lim shakli                                          | Jamo bilan savol-javob, kichik guruhlarda ishlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                          |
| Ta'lim sharti                                          | Auditoriya, TSOdan foydalanish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                          |
| Dars bosqichlari va vaqti                              | O'qituvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Talaba                                                   |
| 1-bosqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa)                      | 1.Seminar mavzusini<br><b>(Sintaktik mavzular o'rganiladigan darslarni ko'zatish va tahlil qilish)</b><br>2. Seminar mashg'uloti maqsadini<br>3. Seminar mashg'uloti rejasini e'lon qilish.                                                                                                                                                                                                                                             | Eshitadi, ko'zatadi, yozadi,tahlil qiladi, javob beradi. |
| 2-bosqich<br>Bilimlarni aktuallashtirish<br>(5 daqiqa) | 1. Namunaviy mashqlar, konstruktiv mashqlar va ijodiy mashqlarni tashkil etishga qanday metodik talablar qo'yilishini ishlab chiking.<br>2. Namunaviy mashqlar, konstruktiv mashqlar va ijodiy mashqlar tashkil etishda metodlardan foydalanish mumkin ekanini aniqlang.<br>4. Mavzularni mustahkamlash uchun darslikda berilgan namunaviy mashqlar, konstruktiv mashqlar va ijodiy mashqlar tizimiga munosabatingizni yozma bildiring. | Muhokama uchun savol-topshiriqlarga talabalarning javobi |
| 3-bosqich<br>Axborot berish<br>(65 daqiqa)             | 1.Talabalarning seminar mashg'ulotining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish mavzusi<br>2. Talabalarni namunaviy mashqlar, konstruktiv mashqlar va ijodiy mashqlar tizimiga qo'yiladigan metodik talablar                                                                                                                                                                                                                           |                                                          |

|                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                        |  |
|-----------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
|                                                     | <p>bilan tanishtirish.</p> <p>3. Namunaviy mashqlar, konstruktiv mashqlar va ijodiy mashqlar tashkil etiladigan darslarni ko'zatish.</p> <p>4. Ko'zatilgan dars tahlili.</p> <p>5. Ko'zatilgan darslar bo'yicha tavsiyalar berish.</p> <p>6. Talabalarni baholash.</p> |  |
| <p>4-bosqich<br/>Yakuniy bosqich<br/>(5 daqiqa)</p> | Umumlashtirish                                                                                                                                                                                                                                                         |  |



## AMALIY MASHG‘ULOT ISHLANMASI

### I-Mashg‘ulot (4 soat)

#### Mavzu: Ot so‘z turkumini o‘rganish darslari.

##### Reja:

1. Shaxs va narsani bildirgan so‘zlar. 1- sinf.
2. Shaxs va narsa nomini bildirgan so‘zlar. 2- sinf.
3. Ot so‘z turkumi. Otlar birlik va ko‘plirda. 3- sinf.
4. Otlarni egalik qo‘shimchalar bilan qo‘llash. 4- sinf.

##### Adabiyotlar:

1. Ta’lim taraqqiyoti. Umumiy o‘rta ta’lim. Davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim ona tili dasturi. Sharq. 1999 yil.
2. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti. Toshkent. 2005 yil.
3. G‘afforova va boshqalar. Ona tili I-sinf. Sharq. 2005 yil.
4. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. “O‘qituvchi”. 2003 yil.
5. Fuzailov S. va boshqalar. Ona tili III-sinf. Toshkent. 2003 yil.
6. Ikromova va boshqalar. Ona tili IV-sinf. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2003 yil.
7. G‘ulomova X. va boshqalar. I-sinfda ona tili darslari. Toshkent. Sharq 2003 yil.
8. Qosimova K. Neymatova A. II-sinfda ona tili darslari. “O‘qituvchi kitobi”. Toshkent. Cho‘lpon 2004 yil.
9. Xudoyberganov M. va boshqalar. III-sinfda ona tili darslari. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2004 yil.
10. G‘ulomova X. va boshqalar. IV-sinfda ona tili darslari. Toshkent. “O‘qituvchi” 2003 yil.
11. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. “Nashr” 2009 yil.

O‘qituvchi dastlab talabalarga ot so‘z turkumini o‘rganishdagi izchillik haqida ma’lumot beradi. I sinfda shaxs va narsani bildirgan so‘zlar mavzusi bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Shaxs va narsani bildirgan so‘zlar kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishi so‘roqlar yordamida aniqlanadi. O‘qituvchilar nutqini shaxs va narsani bildirgan so‘zlar bilan boyitish aytib o‘tiladi. Darsning turi yangi bilim beruvchi tipida bo‘ladi. Darsning jihozi gullar, daraxtlar, turli kasb egalari tasvirlangan rasmlar bo‘lishi mumkinligi haqida talabalarga tushuncha beriladi. Dars davomida saylanma diktant o‘tkazish mumkin. Bundan o‘quvchilarga so‘zlar ichidan o‘quv qurollari nomi yozish, boshqa so‘zlarni tashlab ketish tushuntiriladi. Uy, kitob, olma, daftar, chizg‘ich, qalam, darslik bilan ishlash orqali o‘quvchilar tushunchasi mustahkamlanadi.

I-sinfda ona tili kitobidan 100, -101, -102-mashqlar shartiga ko‘ra og‘zaki va yozma bajarilishi haqida talabalarga ma’lumot beriladi. II-sinfda shaxs va narsani nomini bildirgan so‘zlar kishilarning ismi va familiyasi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlar, shahar va qishloq, ko‘cha va daryo nomlarida bosh harf mavzulari 16-soat dars mobaynida o‘quvchilarga aytib o‘tiladi. Namuna sifatida dars reja konspektini tuzib tafsiya etiladi.

**Mavzu:** Kishilarning ism va familiyasida bosh harf.

**Maqsad.** Kishilarning ismi va familiyasida bosh harfni ishlatish ko'nikmasini o'stirish. Darsning borishi:

I. Uy vazifani tekshirish.

1. Mashq ko'rib chiqiladi.

2. O'qish kitobidan qaysi yozuvchilar ismini yozdingiz deb so'raladi va 4-5 o'quvchiga alifbo tartibida yozganlar o'qitiladi.

II. Kishilarning ismi va familiyasida bosh harf bilan boshlab yozuv ko'nikmasini o'stirish yuzasidan mashq.

1. Nuqtalar o'rniga bolalar ismini qo'yib yozgan javoblar 2-3 o'quvchiga o'qitiladi. 188-mashq.

2. Uzlüksiz berilgan matndagi gaplar chegarasini qanday aniqlab yozganlarini o'qib tushuntiradilar. 189-mashq.

3. "Onangiz va otangizning familiyasi va ismini ayting" degan vazifani bajaradilar va daftarlariga yozadilar.

III. Darsni yakunlash.

IV. Uyga vazifa 190-mashq.

Keyin talabalarga mustaqil ravishda 3-sinfda ot so'z turkumi, otlar birlik va ko'plikda, ot yasovchi qo'shimchalar mavzusiga oid dars reja konspekti ustida ishlaydilar. 3-sinf ona tili darsligidagi mavzuga oid mashqlar bajariladi.

**229-mashq.** Berilgan otlarga ot yasovchi –chi, -kor, -zor, -loq qo'shimchalaridan mosini qo'yib otlar hosil qiling. Ijod+kor, pardozchi, gallakor, archazor, atlaschi, chamanzor, suvoqchi, qumloq.

Shu tartibda mashqlar bajartiriladi. 4-sinfda talabalarga otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, otlarning kelishik qo'shimchalar bilan tuslanishi mavzulari o'tilishi haqida ma'lumot beriladi. Otlarning egalik qo'shimchalar bilan qo'llanishini o'rgatish mavzusi o'quvchilar uchun murakkab jarayon hisoblanishi aytib o'tiladi. Chunki, bu mavzu o'rganilganga qadar o'quvchilar shaxs tushunchasi bilan hali tanishtirilmagan bo'ladilar. Bu mavzuni o'tishdan oldin o'quvchilarga egalik so'zini leksik ma'nosini tushuntirish lozim ekanligi talabalarga aytib o'tiladi.

Shuningdek otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi mavzusini o'tishdagi izchillik haqida o'qituvchi talabajarga ma'lumot beradi. Ya'ni bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi.

1. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish.

2. Ko'plikda otlarning turlanishini o'rganishi .

3. Har – bir kelishikning xususiyatlarini alohida va u bilan bo'g'liq holda, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish. Talabalar 4-sinf ona tili darsligidagi mashqlar ustida ishlaydilar. Shunday qilib talabalar boshlang'ich sinflarda ot yaxlit holda, o'rganilishi va uni o'rganish o'quvchilar shu so'z turkumining belgilarining vazifasini o'zlashtirishga shuningdek, ularda kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishini bilib oladilar.

**Savol va topshiriqlar.**

- 1.1-sinf o'chilariga shaxs va narsani bildirgan so'zlar mavzusini o'tishda qanday usullardan foydalanasiz. Misollar yordamida tushuntiring.
2. Shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlar mavzusini o'tishdagi eng qulay usul haqida tushuncha bering.
3. Ot yasovchi qo'shimchalar mavzusiga oid dars ishlanmasini yozing.
4. Egalik va kelishik qo'shimchalari ko'proq ishtirok etgan biror matn tanlang. Ular asosida tarqatma tayyorlang. Mavzu bo'yicha dars ishlanmasini tuzing.

## **2- Mashg'ulot (4-soat)**

Son so'z turkumini o'rganish darslari.

### **Reja:**

- 1.Sanoqni bildirgan so'zlar. 1- sinf.
- 2.Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar. 2- sinf.
3. Son so'z turkimi, sonlarning otlar bilan bog'lanishi. 3- sinf.
4. Son. Sonlarning yozuvda ifodalanishi.4- sinf.

### **Adabiyotlar.**

- 1.Ta'lim taraqqiyoti.Umumiy o'rta ta'lim.Davlat ta'lim standarti.Boshlang'ich ta'lim ona tili dasturi.Sharq.1999 yil.
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti. Toshkent.2005 yil.
- 3.Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. "O'qituvchi".2003 yil.93-96-bet.
- 5.Fuzailov S. va boshqalar. Ona tili III-sinf. Toshkent.2003 yil. 102-106-betlar.
- 6.Ikromova va boshqalar. Ona tili IV-sinf. Toshkent. "O'qituvchi".2003 yil.
- 7.Qosimova K.Neymatova A. II-sinfda ona tili darslari. "O'qituvchi kitobi". Toshkent.Cho'lpon 2004 yil. 108-111-bet,
- 8.Xudoyberganov M. va boshqalar.III-sinfda ona tili darslari. Toshkent. "O'qituvchi".2004 yil. 101-107- betlar.
- 9.G'ulomova X. va boshqalar.IV-sinfda ona tili darslari. Toshkent."O'qituvchi"2003 yil. 119- 128-betlar.

O'qituvchi talabalar bilan savol - javob qilish orqali son so'z turkumi haqidagi nazariy bilimlarni mustahkamlab oladi.

Sonni o'rganish tizimi son haqidagi materialni leksik grammatik tomonidan sinfdan - sinfga o'tgan sayin boyitib murakkablashtirib borishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich ta'limda son 3 yo'nalishda o'rganiladi.

1. Sonlarning talaffuzi va ma'nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Son boshlang'ich sinflarda quydagi izchilliklarda o'rganiladi.

2-sinfda nechta?, qancha?, so'roqlariga javob bo'lib shaxs va narsaning sanog'ini, nechanchi? So'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsaning tartibini bildiradi.

Nechta? qancha yoki nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan bunday so'zlar shaxs va narsalarning nomini bildirgan so'zlarga bog'lanib ularning sanog'i yoki tartibni ifodalashi amaliy o'zlashtiriladi va keyingi sinflarda sonning so'z turkimi sifatida o'rganishga o'quvchilar tayyorlanadi.

## Dars ishlanmasi

Mavzu: Nechta? qancha? yoki nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar.

Maqsad: Sanoq va tartibni bildirgan so‘zlarni aniqlash va ulardan nutqda ongli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish.

Darsning borishi:

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Sanoqni va tartibni bildirgan mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib matnni yozish.  
261-mashq
3. Maqolalar ustida ishlash. Sanoqni bildirgan so‘zlarni aniqlash 262-263-mashqlar.
4. O‘yin “Qancha qoldi?”

To‘qqiz vagon bor poyezd

Chiqdi janub tomonga.

To‘qqiz tadan televizor

Yuklangan har vagonga.

Qirqda televizorni

Jizzax, Samarqand oldi.

Xo‘sh qancha televizor

Termiz shahriga qoldi.

B.Omonov.

O‘quvchilar she‘rni o‘qiydilar. Sanoqni bildirgan so‘zlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga yozadilar. (Qancha?) To‘qqiz vagon, (Qancha?) Qirqta televizor. Javob. (Qancha?) Qirq bitta televizor qoldi.

264-mashqdagi “Pul” matni orqali iqtisodiy bilim beriladi. Matn o‘qilib, savollarga javob beriladi. So‘ng grammatik topshiriq bajartiriladi.

V. Darsni yakunlash.

VI. Uyga vazifa. 265-mashq. Sheyriy topishmoqni ko‘chiring. Sanoqni bildirgan so‘zlarni savollar berib aniqlang.

3-sinfda “Son-so‘z turkumi” tushunchasi kiritiladi. O‘quvchilarga son predmetning miqdorini bildirishini otga bog‘lanib kelishi yordamida aniqlash ko‘nikmasi o‘stiriladi. Bularni o‘rganishda sonning leksik xususiyatlariga asoslanishi talabalarga aytib o‘tiladi.

## Dars ishlanmasi

Mavzu: Son- so‘z turkumi.

Darsning maqsadi: Shaxs narsalarning sanog‘ini bildirgan so‘zlarni gap tarkibidan ajratish, ularga so‘roq berishga o‘rgatish, sonlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zlar bilan yozish malakasini rivojlantirish, o‘quvchilarda do‘stlik -o‘rtoqlik, mehnat, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash.

Darsning turi: bilimlarni hisobga oluvchi, yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozi: turli narsalarni tasvirlovchi rasmlar.

Darsning borishi.

1. Darsga qadar doskaga yozib qo‘yilgan quyidagi matn o‘qitiladi.  
Sinfimizda o‘ttizta o‘quvchi bor. Ular o‘n besh qiz, o‘g‘il boladan iborat. Men uchinchi partada, Husan to‘rtinchi partada o‘tiramiz. Sinfimizdagi yigirma o‘quvchi besh bahoga, o‘n o‘quvchi to‘rt bahoga o‘qiydi. Ularning hammasi bir- birini hurmat qiladi.

- Sizning sinfingizda nechta o‘quvchi bor?
- Siz bir-biringiz bilan qanday munosabatdasiz?
- O‘qishda, ishda o‘rtog‘ingizda qanday yordam berasiz?

Yuqoridagi gaplarni o‘qib savollar yordamida sonlar aniqlanadi va xulosalanadi.

Darslik bilan ishlash 261-mashqni bajarish orqali son haqidagi bilimlar mustahkamlanadi. Mashqda berilgan gaplar o‘qitilib, har qaysi gapdagi shaxs va narsaning sanog‘ini bildirgan so‘zlar aniqlanadi. Ular bilan bog‘langan so‘zlar birgalikda aytiladi.

3.Mustaqil ish.

Mustaqil ish uchun topshiriq. Matn doskaga yoziladi O‘quvchilar narsalarning sonini bildirgan so‘larninig tagiga to‘lqinli chiziq -chiziq chiziladi.

4.Husnixat mashqlari.

O‘quvchilar matnni doskadan husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko‘chirib yozadilar. Savollar yordamida matn mazmuni ochiladi.

5.Darsni yakunlash.

6.Uyga vazifa 262-mashq.

7.Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va reyting ballari e‘lon qilinadi.

4-sinfda sanoq va tartib sonlarning harf, rim va arab raqamlari bilan yozilishi qo‘sh undoshli sonlarning, grammatik shakllangan sonlarning (ikkov, o‘ntacha, beshtadan) imlosi sonlarning gramm, kloggramm, metr, letr, so‘m, tiyin so‘zlari bilan qo‘llanishi va shu so‘z bilan bitta so‘roqqa javob bo‘lishi o‘rganiladi. O‘quvchilarning sonlarning otga bog‘lanishi, so‘roqlar yordamida sonni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirish ko‘nikmalari o‘stiriladi.

O‘qituvchi yordamida talabalar bilan dars ishlanmalari tuziladi. 4-sinf ona tili darsligidagi mashqlar ustida ishlanadi.

### **3- mashg‘ulot (4 soat)**

Sifat so‘z turkimini o‘rganish darslari.

#### **Reja:**

- 1.Belgini bildirgan so‘zlar. I- sinf.
- 2.Narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlar. II- sinf.
- 3.Sifat so‘z turkimi. Sifatlarni otlarga bog‘lanishi. Sifat yasovchi qo‘shimchalar.III- sinf.
- 4.Sifat. IV- sinf.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta‘lim standarti. Toshkent.2005 yil.
- 2.Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. “O‘qituvchi”.2003 yil. 86-93 bet
- 3.Fuzailov S. va boshqalar. Ona tili III-sinf. Toshkent.2003 yil. 94-98 bet
- 4.Ikromova va boshqalar. Ona tili IV-sinf. Toshkent. “O‘qituvchi”.2003 yil. 92-104 bet.
- 5.G‘ulomova X. va boshqalar.I-sinfda ona tili darslari. Toshkent. Sharq 2003 yil. 97- 103 bet.

6.Qosimova K.Neymatova A. II-sinfda ona tili darslari. "O'qituvchi kitobi". Toshkent.Cho'lpon 2004 yil. 100-108 bet.

7.Xudoyberganov M. va boshqalar.III-sinfda ona tili darslari. Toshkent. "O'qituvchi".2004 yil. 93-100 bet.

8.G'ulomova X. va boshqalar.IV-sinfda ona tili darslari. Toshkent."O'qituvchi"2003 yil. 101-119betlar.

Sifatni o'rganish tizimi, materalni leksik va grammatik izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1 va 2- sifda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday? qanaqa? so'rog'ini berishga o'rgadilar. 3-sinfda sifat so'z turkimi sifatida o'rganiladi. 4- sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosida

boshlang'ich sinflarda sifat quydagi izchillikda o'ganiladi.

1. Sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-2 sinf)

Dars ishlanmasi (1- sinf)

Mavzu: Belgini bildirgan so'zlar.

Darsning maqsadi: Belgini bildirgan so'zlar haqida tushuncha berish, belgini bildirgan so'zlarga beriladigan savollar belgini bildirgan so'zlar bilan bog'lanishi haqida tushuntirish. Dars davomida keltirilgan misollar orqali ekologik tarbiya berish.

Darsning turi:Yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: ko'rgazmali suhbat.

Darsning jihozi: turli narsalarning belgisi aks etgan rasmlar, kesma harflar.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

Mavzu o'quvchilarning harsalarning belgisini anglatadigan so'zlar haqidagi daslabki mashg'ulot hisoblanib, kelajakda o'rganiladigan sifat so'z turkumlari haqidagi bilimga asos bo'ladi. Bu darsda narsalarning o'quvchilarga yaqqol tanish, aniq belgilari ni misol qilib olib, rasmlar asosida ko'rsatish kerak.

1. 137-mashq. Topishmoq o'qitiladi. Topishmoqda nima haqida so'z yuritilgani so'raladi, topishmoq javobi bo'lgan sabzini qaysi belgisiga ko'ra aniqlangani so'raladi.Ajratilgan so'zlar o'qitiladi.Ana shu so'zlarga so'roq beriladi. Belgini bildirgan so'zlarni narsa bildirgan so'zlar bilan birgalikda ko'chiradilar.Mashqni xattaxtda o'quvchilar tomonidan o'qituvchi na'munasi asosida bajarilishi tavsiya etiladi:

Qizil yuzli pari, mayda o'rim sochlari, ochiq maydonda, yalang maydonda.

2. 138-mashq.Mashq yuzasidan avval og'zaki topshiriq, yani qanday? So'rog'iga javob berish bajariladi. Belgini bildirgan so'zlar aniqlangandan so'ng savollarga yozma ravishda javob yoziladi.

Qanday? bog' - Mevali bog'.

Qanday? gullar- Oq, pushti gullar.

Qanday? mevalar-Shirin va mazali mevalar.

3.Ijodiy diktand.

...asal, ..... olma

... paxta, ...darax

O'quvchilar nima bildirgan so'zlar yoniga mos belgi bildirgan so'zlarni yoniga mos belgi bildirgan so'zlarni yozib qo'yishlari shart.

4.139-mashq.

**Eslatma:** chiroyli yozuvga e'tibor berish.

Belgi bildirgan so'zlarning tagiga chizishni o'rgatish. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum narsa o'ziga xos belgi xususiyatiga ega bo'lishi aytib o'tadi.

Masalan: Shirin qovun, qiziq ertak

Qanday dala? – keng dala.

Qanday suv? – tiniq suv.

Mashqni davomini o'quvchilar mustaqil bajaradilar.

5.140-mashq. Berilgan belgini bildirgan so'zlarga mos shaxs yoki narsani bildirgan

So'zlarni yozish o'qituvchi mashqni mustaqil uyga bajarishga tayyorlaydi.

O'quvchilarga yozishda qiynaladigan so'zlarni tushuntirib, amaliy yordam beradi.

6. Darsni yakunlash shaxs yoki narsani bildirgan so'zlarga qanday so'roq beriladi?

Bergini bildirgan so'zlarga –chi? belgini bildirgan so'zlar qaysi so'zlar bilan bog'lanadi? Belgini bildirgan so'zlarni qanday belgilaymiz?

2. Sifat haqida tushuncha berish va shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (3-4- siniflar).

Daftardagi dars ishlanma yoziladi.

Topshirqlar.

1. II sinf bo'yicha 1 soatlik dars ishlanmasi yozish.

2. IV sinf bo'yicha dars ishlanmasi yozish.

#### **4- Mashg'ulot (4- soat).**

**Mavzu:** Fe'l so'z turkumini o'rganish darslari.

#### **Reja.**

1. Harakat bildirgan so'zlar. I-sinf.
2. Narsa va harakatni bildirgan so'zlar. II-sinf.
3. Fe'l so'z turkumi. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. III-sinf.
4. Fe'l. Fe'l zamonlari. IV-sinf.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ta'lim taraqqiyoti. Umumiy o'rta ta'lim. Davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim ona tili dasturi. Sharq. 1999 yil.

2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti. Toshkent. 2005 yil.

3. G'afforova va boshqalar. Ona tili I-sinf. Sharq. 2005 yil.

4. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. "O'qituvchi". 2003 yil. 75-86 bet

5. Ikromova va boshqalar. Ona tili IV-sinf. Toshkent. "O'qituvchi". 2003 yil. 131-153 bet.

6. G'ulomova X. va boshqalar. I-sinfda ona tili darslari. Toshkent. Sharq 2003 yil. 89-96 bet.

7. Qosimova K. Neymatova A. II-sinfda ona tili darslari. "O'qituvchi kitobi". Toshkent. Cho'lpon 2004 yil. 89-98. betlar.

8.Xudoyberganov M. va boshqalar.III-sinfda ona tili darslari. Toshkent. “O‘qituvchi”.2004 yil. 108-114 betlar.

9.G‘ulomova X. va boshqalar.IV-sinfda ona tili darslari. Toshkent.“O‘qituvchi”2003 yil.

10.Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. “Nashr” 2009 yil. 129-149 betlar

Dastlab o‘qituvchi talabalarga boshlang‘ich sinflarda fe‘l ustida ishlashdagi izchillik, bo‘limlar orasidagi bog‘lanish dastur materialining hajmi uning har bir sinfda o‘rganish usullari va vastrollar hamda shu so‘z turkumini o‘rganish vazifasi uning lingvistik xususiyatlari kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanishi haqida tushuncha beradi.

1-sinfda fe‘l ustida ishlashlashga tayyorgarlik savod o‘rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o‘quvchilarning diqqati e‘tibori fe‘lning leksik ma‘nosiga qaratiladi.

2-sinfda shaxs va narsalarning harakatini belgilangan so‘zlar bilan tanishtiriladi.

#### Dars ishlanmasi (2-sinf)

Mavzu: Shaxs va narsalarning harakatini bildirgan so‘zlar.

Maqsad: Shaxs va narsalarning harakatini bildirib nima qildi? Nima qilyapti? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar bilan tanishtirish; shaxs va narsalar harakatini bildirgan so‘zlar beriladigan so‘roq bilan shu so‘zning ma‘nosini taqqoslash ko‘nikmasini o‘stirish.

Darsning borishi.

1.Kim?, nima? So‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar yuzasidan takrorlash. Biz so‘z bilan ayting va kim? So‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni chap tomonga, nima? So‘rog‘iga javob bo‘lgan soz‘larni o‘ng tomonga ustun shaklida yozing.

1.Bolalar ta‘lim – tarbiya oladigan o‘quv yurti (Maktab) 2. Maktabda o‘qiydigan bola (o‘quvchi) 3. Go‘za ekilgan dala (Paxtazor) 4. Paxta yetishtiruvchi dehqon (Paxtakor) 5. Mevali daraxtlar ekilgan joy (Bog‘) 6. Bog‘ni parvarish qiladigan odam (Bog‘bon).

Namuna: Kim? O‘quvchi. Nima? Maktab.

O‘quvchilar bajarigan ish tekshiriladi.

Kim? Nima? So‘rog‘ga javob bo‘lgan nimalarni bildiradi. O‘qituvchi mavzuni xulosalaydi. Demak kim? so‘rog‘iga javob bo‘gan so‘zlarni shaxsni nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan narsalarning nimani bildiradi.

1.Yangi mavzuni tushuntirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga 211-mashqni topshiriqlar tartibida bajarishni aytadi. Rasm asosida gaplar tuziladi. Narsa va shaxs harakatini bildirgan so‘zlar xattaxtaga yozib boriladi. O‘quvchilar mashqni bajarish orqali shaxs va narsalarning harakatini bildirgan so‘zlar nima qildi? Nima qilyapti? Nima qiladi? So‘roqlarga javob bo‘lishini bilib oladilar.

2. 212-213mashqlarni bajarish.

212-mashqni bajarishda “Qishda” sarlavhali matn o‘qiladi va nima qildi?, nima qildilar? nima qilyapti? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar aniqlanadi.

213-mashqni bajarish orqali o‘quvchilarga topishmoqni javobini topadilar. Topishmoqning javobini topishda qaysi so‘zlar yordam berdi. Ular qanday



so‘roqqa javob bo‘ladi? Bu so‘zlar nimani bildiradi? Savollariga o‘quvchilar javob beradilar va daftarga yozadilar.

Nima qiladi? suyiladi, quyiladi, pishadi, tushadi, ketadi.

4. Darsni yakunlash.

Darsda nimalarni bilib oldingiz? Nimalarni o‘rgandingiz?

1. Uyga vazifa. 214-mashq. Harakatni bildirgan so‘zlarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

Qishda kunlar (nima qiladi?) isiydi.

Qor ko‘p (nima qiladi?) yog‘adi.

Suvlar (nima qiladi?) muzlaydi.

## **Dars ishlanmasi**

### **Fe‘l mavzusini o‘tish.**

Darsning maqsadi: Narsalarning harakatini bildirgan so‘zlar haqidagi bilimlarini boyitish, fe‘l haqidagi tushunchalarini kengaytirish, so‘roqlar yordamida gap va matndan fe‘lni topishga ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, kasbga yunaltirish, tabiatga muhabbat uyg‘otish, uni asrashga rag‘batni paydo qilish; fe‘llarning ko‘chma ma‘nolarini anglash va ulardan nutqda foydalanishlariga erishish.

Darsning turi: Yahgi bilim berish.

Dars metodi: Aqliy hujum muommoli, tizimli o‘qitish.

1. Darsni tashkil etish:

O‘quvchilarning darsga qiziqishini uyg‘otish uchun mavzuga doir topishmoq she‘rdan o‘qib berildi. O‘quvchilar topishmoqning nima haqda ekanini topib bugungi o‘rganiladigan mavzuni aniqlaydilar.

Ma‘nosidan anglashilar harakat

Harakatdan kelar sog‘liq barakat.

“Sening”, “noaniq”, “quvoning”. Uch so‘zdan harakatni toping.

Turadi, yuradi, kuladi, aytadi, qaytadi. Bu so‘zlarning ma‘nosini kim aytadi?

Topishmoq – she‘rlar o‘quvchilarning tilga sezgirligini ham oshiradi. Dars jarayonida zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirishni ta‘minlaydigan motivni yuzaga keltiradi. O‘quvchilarning she‘r yuzasidan quyidagicha javob beriladilar. Bugun harakat bildirgan so‘zlarni o‘rganamiz.

“Quvoning” harakat bildirgan so‘z.

Turadi, yuradi, kuladi, aytadi so‘zlari harakatning ma‘nosini bildiradi.

O‘qituvchi: O‘ylang, harakatni kimlar yoki nimalar bajaradi.

O‘quvchilar:

-Bolalar -Odamlar.

Musobaqa.

1-guruhga topshiriq: Odamlarga xos harakatni bildirgan so‘zlarni ayting.

2-guruhga topshiriq: Jonivorlarga xos harakatni bildirgan so‘zlarni ayting.

Har bir guruh o‘quvchilari doskaga yozib beradi. Bu so‘zlarning imlosini qay darajada bilishlarini va husnixat bilan yozishlarini ham aniqlash imkonini beradi.

2. Darslik bilan ishlash:

Doskaga darslikdagi 273-mashq matni yozib qo'yiladi:

Shifokor bemorni (nima qildi?) davoladi.

Qor tinmay (nima qilyapti?) yog'yapti.

Matn ustida ishlash

1-topshiriq: Gaplarni o'qing. Nechta gap o'qidingiz? Gaplar qanday harf bilan boshlangan? Ularning oxirida qaysi tinish belgisi qo'yilgan? Nima uchun?

2-topshiriq: Gapdan qavs ichidagi so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlarni toping. Ularning qanday ma'no bildiriyapti? Bu so'zlarning tagiga nechta chiziq chizasiz? Nima uchun?

3-topshiriq: Yog'yapti so'ziga qaysi so'ziga qarama – qarshi ma'no bildiradi (yog'yapti – tinyapti)

4-topshiriq: Da'vo, davoladi so'zlarning ma'nosida farq bormi?

Davo-bemorning shifo topishi uchun qo'llaniladigan dori-darmon.

Davoladi – dori – darmonlar bilan kasalini bartaraf etish.

Bu muommoli savolga o'quvchilar shu sinfda "So'z turkumlari" tushunchasini hosil qilgan darsida eshitgan fe'l atamasini aytib javob beradilar. O'qituvchi topshiriqlarni oldindan tuzib olib, so'ng dars o'tish kerak. O'qituvchi: Men fe'l o'yladim. U nimani bildiradi? Men shaxsni o'yladim. U qaysi so'z turkumiga kiradi?

2. 174-mashq. Mustaqil ish vazifa qilib beriladi.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Fe'llarning nimani harakatini bildirayotganini aniqlang.

O'quvchilar 1-gapda yaratadi

2-gapda ko'tardi

3-gapda tushdi

Narsaning harakatini bildiriyapti deb aytadilar.

2-topshiriq: Matnni kuzating. Oylang. Matndagi qaysi so'zlarning yozilishga xato qilishingiz mumkun?

Ajoyib- oxirgi b undoshini deb, I unlini tushrib qoldirib yozishim mumkun

.Sababi b p tarzida talaffuz qiliyapti, qisqa aytiliyapti.

Koinotda-o va I orasida y yozib qo'yish mumkin. Chunki aytilishda y tovushi ishlatilyapti.

"Uchun" so'zi ham shunday 2-bo'g'indagi u tovushi I tarzida talaffuz qilinayapti, uni I qilib hato yozib qo'yish mumkin.

O'qituvchi keyingi darsda shu so'zlardan lug'at, diktant olishini e'lon qiladi.

Saylanma diktant.

I-topshiriq. Men matnni o'qiyman. Siz undagi fe'l so'z turkumiga doir so'zlarnigina tanlab ajratib olib yozasiz.

Uning uy ishlarida kampirga ko'maklashadi. Bolalarni yuvintiradi.

Eski-tuski keyimlarni yamaydi. Kechqurun sho'rva, atala-umoch, moshxo'rda kabi ovqatlarni pishiradi.

II-topshiriq. Ko'maklashadi so'zida ma'nodosh fe'llarni topib yozing. (Qarashadi, yordamlashadi)

III-topshiriq. Topgan ma'nodosh so'zlaringizning har biri ishtirokida bittadan gap tuzib yozing.

4.Uyga vazifa. 275-mashqni shartiga ko‘ra bajaring.

2.Darsda o‘tilganlarni umumlashtirib yakunlash. Bugungi dars savollari sizga ma’qulmi? Nima uchun?

Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?

6.O‘quvchilar bilimini baxolash.

Topshiriqlar:

1.Boshlang‘ich sinflarda fe‘l so‘z turkumi yuzasidan o‘quvchilarga qanday bilimlar beriladi va ular qanday izchillikka shakllantiriladi?

2.IV sinfda fe‘l mavzusini o‘tishga oid dars ishlanmasi tuzing.

### **5- Mashg‘ulot (4- soat).**

**Mavzu:**Ona tili darslarida ta’limiy diktantlar.

**Raja.**

1.Ta’limiy diktantlarning tashkil etish usullari.

2.Tekshirish diktantlari darsi.

3. Tekshirish diktantlari darsi tashkil etish usullari.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti. Toshkent.2005 yil.

2.Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. “O‘qituvchi”.2003 yil. 86-93 bet

3.Fuzailov S. va boshqalar. Ona tili III-sinf. Toshkent.2003 yil. 94-98 bet

4.Ikromova va boshqalar. Ona tili IV-sinf. Toshkent. “O‘qituvchi”.2003 yil. 92-104 bet.

5.G‘ulomova X. va boshqalar.I-sinfda ona tili darslari. Toshkent. Sharq 2003 yil. 97- 103 bet.

6.Qosimova K.Neymatova A. II-sinfda ona tili darslari. “O‘qituvchi kitobi”. Toshkent.Cho‘lpon 2004 yil. 100-108 bet.

7.Xudoyberganov M. va boshqalar.III-sinfda ona tili darslari. Toshkent. “O‘qituvchi”.2004 yil. 93-100 bet.

8.G‘ulomova X. va boshqalar.IV-sinfda ona tili darslari. Toshkent.“O‘qituvchi”2003 yil. 101-119betlar.

# MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

1. Boshlang'ich ta'limi bo'yicha yangi tahrirdagi DTS (2005) dan ona tili ta'limi sohasiga oid mavzularni o'qib o'rganish
2. 1-4 sinf ona tili darslaridan ot so'z turkumiga oid mashqlarni ishlab chiqish
3. 1-4 sinf ona tili darsligidan son so'z turkumiga oid mashqlarni ishlash.
4. Ot mavzusiga oid bir soatlik dars ishlanmasini yozish
5. Fe'l mavzusiga oid dars konspektini tuzish.
6. 1-4 sinf ona tili darsligidan Harakatni bildirgan so'zlarga oid mashqlarni ishlab chiqish
7. 3-4 sinf ona tili darsligidan fe'l so'z turkumiga oid mashqlarni ishlash
8. 1-4 sinf ona tili darsligidan sifat so'z turkumiga oid mashqlarni bajarish
9. Dars konspektini tuzish.
10. XXI-asr yoshlar asri mavzusida ijodiy matn tuzish
11. Q. Abdullayevaning "Diktantlar to'plami" kitobi bilan tanishish va o'z fikrlarini berish
12. Maktabda ta'limiy diktantlarni tekshirish. Diktantlarni tashkil etish va amalga tatbiq qilish mavzusida ijodiy matn
13. "Qishlog'imning bugungi jamoli" mavzusida ijodiy matn
14. "Mustaqillik buyuk ne'mat" mavzusida ijodiy matn
15. IV –sinf ona tili darsligi bilan ishlash
16. Boshlang'ich ona tili darsligidan sinonim va antonim, ko'p ma'noli so'zlar mavzusiga oid mashqlarni ishlash
17. III-sinf ona tili darslaridagi bayon mavzulari ustida ishlash
18. II-sinf ona tili darslaridagi bayon mavzulari ustida ishlash
19. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun insho mavzularini tanlash
20. "Men sevgan adib" mavzusida insho yozish
21. IV- sinf ona tili darslida berilgan bayon mavzulariga oid reja tuzish
22. Til va jamiyat.
23. Ona tilidan yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari.
24. Til va tafakkur.
25. Ona tilidan o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari.
26. Til va nutq.
27. Ona tilidan bilim va malakalarni umumlashtirish darslari.
28. Til va faoliyat.
29. Ona tilidan bilim va malakalarni tekshirish darslari.
30. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili o'rgatishning lingvistik asoslari.
31. Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari.
32. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'rgatish mazmuniga umumiy tavsif.
33. Nutq turlari. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar.

34. Fonetika va grafika asoslarini o‘rganish metodikasi.
35. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda boshqa fanlarning o‘rni.
36. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar , ularning yozuvda ifodalanishi.
37. Lug‘at ustida ishlash metodikasi.
38. Ona tilidan dars konspektini tuzish.
39. Bo‘g‘in. Urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar.
40. So‘z ma‘nosini tushuntirish.

### **Ijodiy matn mavzulari**

1. „ Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti “ mavzusida 14-16 gapdan iborat bog‘li matn yarating.
2. „ Mustaqillik – buyuk ne‘mat “ mavzusida 12-14 gapdan iborat ijodiy matn yarating.
3. „ O‘zbekiston – Vatanim manim “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn yarating.
4. „ Mening birinchi o‘qituvchim “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn yarating.
5. „ Baxtimiz qomusi “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
6. „ Navro‘z - umumxalq bayrami ” mavzusida 12-14 gapdan iborat ijodiy matn yarating.
7. „ Men do‘stimni nima uchun qadrlayman ” mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
8. „ Yurtim kelajagi haqida o‘ylarim “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
9. „ Quriyotgan dengiz “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
10. „ Ona - ulug‘ zot “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
11. „ Sevimli romanim “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
12. „ Saxiylik haqida “ 12-14 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
13. „ Mustaqillik ramzlari “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
14. „ Oltin kuz saxovati “ mavzusida 12-14 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
15. „ Til - millat ruhi “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn yarating.
16. „ Universitetimiz bog‘i “ mavzusida 12-14 gapdan iborat matn tuzing.
17. „ Kutubxona – nurxona “ mavzusida 14-16 gapdan iborat matn yarating.
18. „ Ona tili o‘qitish metodikasidan olgan taassurotlarim “ mavzusida 14- 16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.
19. „ Mening ish kunim “ mavzusida 14-16 gapdan iborat matn yarating.

20. „ Men sevgan adib “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.

21. „ XXI asr – yoshlar asri “ mavzusida 12-14 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.

22 „ Qishlog‘imning bugungi jamoli “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.

23. „ El sevgan san‘atkor “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.

24. „ So‘z ko‘rki - maqol “ mavzusida 12-14 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.

25. „ Erk uchun kurashganlar “ mavzusida 14-16 gapdan iborat ijodiy matn tuzing.

### **III oraliq nazorat ishi uchun “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha test topshiriqlari**

#### **1. Ona tili darslarining tiplari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Yangi materialni o‘rgatish va mustahkoamlash ; o‘tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish ; bilim va malakalarni umumlashtirish ; bilim va malakalarni tekshirish
- B) O‘tilgan mavzuni so‘rash , yangi mavzuni bayon qilish, yangi mavzuni mustahkamlash
- D) O‘quvchilar bilimini baholash , o‘quvchilar bilimini kengaytirish va mustahkamlash
- E) O‘tilgan mavzuni so‘rash , uy vazifasi ustida ishlash, yangi bilim berish

#### **2. Jufti bor jarangli undoshlar berilgan qatorni aniqlang.**

- A) y , l    B) m , n    D) d , g    E) r , ng

#### **3. Jufti yo‘q jarangli undoshlar qaysi qatorda berilgan?**

- A) z , j    B) b , d    D) l , r    E) g , v

#### **4. Qaysi qatorda jufti bor jarangsiz undoshlar joylashtirilgan?**

- A) sh , p    B) q , h    D) g , g’    E) A va D javoblar to‘g‘ri

#### **5. Diktant so‘zining ma‘nosi -**

- A) aytib bermoq , aytib turmoq , so‘zlamoq , gapirmoq
- B) o‘ylamoq , fikrlamoq , yozmoq , o‘qimoq
- D) o‘tkazmoq , eshittirmoq , izlamoq , chizmoq
- E) to‘g‘ri javob berilmagan

#### **6. Ta‘limiy diktant turlarining soni –**

- A) 5 ta    B) 6 ta    D) 7 ta    E) 8 ta

#### **7. 3-sinfda lug‘at diktandagi so‘zlar soni -**

- A) 8 so‘z    B) 10 – 12 so‘z    D) 12 – 15 so‘z    E) 17 -19 so‘z

#### **8. 4-sinfda lug‘at diktandagi so‘zlar soni –**

- A) 12 – 15 so‘z    B) 10 – 12 so‘z    D) 14 – 16 so‘z    E) 8 – 10 so‘z

#### **9. 2-sinfda lug‘at diktandagi so‘zlar soni –**

- A) 12 – 15 so‘z    B) 10 – 12 so‘z    D) 8 so‘z    E) to‘g‘ri javob berilmagan

#### **10. 2-sinfda o‘quv yili oxirida tekshirish diktantidagi so‘zlar soni –**

- A) 25 – 30 ta    B) 45 – 55 ta    D) 55 – 65 ta    E) 35 – 45 ta

#### **11. 4-sinfda o‘quv yilining birinchi yarmi oxirida tekshirish diktantidagi so‘zlar soni**

– A) 25 – 30 ta

- B) 65 – 70 ta    D) 55 – 65 ta    E) 45 – 55 ta

#### **12. 3-sinfda o‘quv yilining oxirida tekshirish diktantidagi so‘zlar soni -**

- A) 35 – 45 ta    B) 45 – 55 ta    D) 55 – 65 ta    E) 65 – 70 ta
- 13. Saylanma diktantni qaysi sinflarda o‘tkazish maqsadga muvofiq?**  
 A) 1-sinfda    B) 3 - 4 – sinfda    D) 2-sinfda    E) 1- 2 - sinfda
- 14. Diktant maqsadiga ko‘ra necha turli bo‘ladi?**  
 A) 4    B) 3    D) 7    E) 2
- 15. 1 – 4 – sinflarda ta‘limiy diktantning qaysi turidan keng foydalaniladi?**  
 A) Ijodiy diktant    B) Saylanma diktant    D) Erkin diktant    E) Izohli diktant
- 16. 1-sinf Ona tili darsligining muallifi –**  
 A) Qosimova K. va boshqalar    B) Fuzailov S. va boshqalar  
 D) Ikromova R. va boshqalar    E) G‘afforova T. va boshqalar
- 17. 2-sinf Ona tili darsligining mualliflari –**  
 A) Ikromova R. va boshqalar    B) Qosimova K. va boshqalar  
 D) G‘afforova T. va boshqalar    E) Fuzailov S. va boshqalar
- 18. 3-sinf Ona tili darsligining mualliflari -**  
 A) Fuzailov S. va boshqalar    B) Ikromova R. va boshqalar  
 D) Qosimova K. va boshqalar    E) G‘afforova T. va boshqalar
- 19. 4-sinf Ona tili darsligining mualliflari –**  
 A) G‘afforova T. va boshqalar    B) Qosimova K. va boshqalar  
 D) Fuzailov S. va boshqalar    E) Ikromova R. va boshqalar
- 20. „O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ qachon tasdiqlangan?**  
 A) 1993-yil 2-sentabr    B) 1995-yil 21-dekabr    D) 1995-yil 24-avgust    E) 1996-yil 1-sentabr
- 21. „Matnning umumiy mazmunini saqlagan holda ayrim so‘z yoki so‘z birikmalarini boshqa so‘z yoki so‘z birikmalari bilan almashtirib yozish“ ta‘limiy diktantning qaysi turiga xos?**  
 A) Lug‘at diktant    B) O‘z diktant yoki yoddan yozuv    D) Erkin diktant    E) Ko‘rsatish diktanti
- 22. „Xususiy xato“ –**  
 A) ko‘pchilik o‘quvchilarda uchraydigan xatolardir    B) ayrim o‘quvchilarda uchraydigan xatolardir  
 D) bunday xatolar yo‘q    E) A va B javoblar to‘g‘ri
- 23. Diktantda qaysi xatolar hisobga olinmaydi?**  
 A) o‘quvchilarga o‘rgatilmagan qoidalar yuzasidan qilingan xatolar;  
 B) gap oxirida nuqta qo‘yilmagan bo‘lsa-yu , keyingi gapni bosh harf bilan yozsa;  
 D) gap ma‘nosini buzmaganda biror so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirib yozsa;  
 E) A , B , D javoblardagi holatlarda
- 24. „1-sinfda ona tili darslari“ nomli o‘quv-metodik qo‘llanmaning mualliflari –**  
 A) Xudoyberganova M. va boshqalar    B) Qosimova K. va boshqalar  
 D) Shodmonqulova D. va boshqalar    E) G‘ulomova X. va boshqalar
- 25. „2-sinfda ona tili darslari“ nomli o‘quv-metodik qo‘llanmaning mualliflari –**  
 A) Qosimova K. va boshqalar    B) Shodmonqulova D. va boshqalar  
 D) Xudoyberganova M. va boshqalar    E) G‘ulomova X. va boshqalar
- 26. „3-sinfda ona tili darslari“ nomli o‘quv-metodik qo‘llanmaning mualliflari –**  
 A) G‘ulomova X. va boshqalar    B) Xudoyberganova M. va boshqalar  
 D) Qosimova K. va boshqalar    E) Shodmonqulova D. va boshqalar
- 27. „4-sinfda ona tili darslari“ nomli o‘quv-metodik qo‘llanmaning mualliflari –**  
 A) Xudoyberganova M. va boshqalar    B) G‘ulomova X. va boshqalar  
 D) Shodmonqulova D. va boshqalar    E) Qosimova K. va boshqalar

- 28. „ Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi “ nomli qo‘llanmaning muallifi kim?**
- A) Roziqov O. B) Qosimova K. D) Ikromova R. E) Shodmonqulova D.
- 29. O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan talablar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
- A) mazmundor , mantiqiylik B) aniq , boy , tushunarli D) ifodali , to‘g‘ri  
E) yuqorida ko‘rsatilganlarning barchasi
- 30. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan , tugallangan mavzuni ifodalaydigan , mantiqiy va grammatik qoidalar asosida tuzilgan , mustaqil , tugallangan va o‘zaro bog‘langan , ma‘noli qismlarga bo‘linadigan nutq –**
- A) hikoya deyiladi B) bog‘lanishli nutq deyiladi D) ichki nutq deyiladi E) tashqi nutq deyiladi
- 31. O‘qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma‘lum tayyorgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalash –**
- A) inshodir B) bayondir D) hikoyadir E) ertakdir
- 32. Insho material manbaiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?**
- A) 2 turga B) 5 turga D) 3 turga E) 4 turga
- 33. Insho janriga ko‘ra –**
- A) hikoya tarzidagi insho B) tasvir tarzidagi insho D) muhokama tarzidagi insho  
E) yuqorida sanalganlarning barchasi
- 34. Rasm asosidagi inshoning nechta turi mavjud?**
- A) 2 ta turi B) 3 ta turi D) 4 ta turi E) 5 ta turi
- 35. Og‘zaki yoki yozma insho ustida ishlash necha bosqichga bo‘linadi?**
- A) 2 bosqichga B) 3 bosqichga D) 4 bosqichga E) 5 bosqichga
- 36. Nutqiy xatolar –**
- A) lug‘aviy-uslubiy xatolar B) morfologik-uslubiy xatolar D) sintaktik-uslubiy xatolar  
E) yuqorida sanalganlarning barchasi
- 37. Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasining asosiy yo‘nalishlari nechta?**
- A) 2 ta B) 3 ta D) 4 ta E) 5 ta
- 38. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi –**
- A) lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi B) olinma so‘zlar deyiladi  
D) iboralar deyiladi E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 39. Ikki jildlik „O‘zbek tilining izohli lug‘ati “ dagi so‘zlar miqdori –**
- A) 50 000 B) 65 000 D) 60 000 E) 55 000
- 40. Besh jildlik „O‘zbek tilining izohli lug‘ati “ dagi so‘zlar miqdori –**
- A) 60 000 B) 70 000 D) 75 000 E) 80 000
- 41. Talaffuzi , yozilishi har xil bo‘lgan , bir umumiy tushuncha ( ma‘no ) ifodalaydigan so‘zlar –**
- A) ma‘nodosh ( sinonim ) so‘zlardir B) shakldosh ( omonim ) so‘zlardir  
D) zid ma‘noli ( antonym ) so‘zlardir E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 42. Berilgan javoblar orasidan undalmaga berilgan ta‘rifning eng to‘lig‘i va to‘g‘risini belgilang.**
- A) Undalma gapning boshi , o‘rtasi , oxirida keladi.  
B) So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni ifodalagan so‘zga undalma deyiladi.  
D) So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni ifodalagan so‘zlarga undalma deyiladi.  
E) Undalma gapning o‘rtasida kelgan bo‘lsa , uning ikki tomoniga vergul qo‘yiladi.
- 43. Berilgan gaplarning qay birida murakkab va shaxsga qaratilgan undalma qatnashgan?**
- A) O‘g‘lim , dadangning ishi ko‘payib ketdi. B) Bahor , ketma bizning bog‘lardan.



- D) Quyosh , nurlaringni to‘ka ber tinmay.  
E) Ey aziz bolalar , Vatanga munosib posbon bo‘lib yetishing.
- 44. Keltirilgan qoidalarning qay birida undalmaning o‘rni to‘liq ko‘rsatilgan?**  
A) Undalma gapning boshida keladi. B) Undalma gapning boshi , o‘rtasi , oxirida keladi.  
D) Undalma gapning oxirida keladi. E) Undalma gapning o‘rtasida keladi.
- 45. Punktuaitsiya qanday prinsiplarga asoslanadi?**  
A) semantik prinsipga B) sintaktik prinsipga  
D) intonatsion prinsipga E) yuqorida sanalganlarning barchasi
- 46. „ Punktuaitsiya ham , yozuv kabi , kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi“. Matn muallifini aniqlang.**  
A) Abdurahmonov G‘. B) Shoabdurahmonov Sh. D) Nazarov K. E) Egamberdiyev B.
- 47. „, Tinish belgilari fikrni aniq va tez uqib olishga hamda o‘zgalarga uqtirishga yordam beradi “. Matn muallifi kim?**  
A) Shoabdurahmonov Sh. B) Nazarov K. D) Abdurahmonov G‘. E) Egamberdiyev B.
- 48. Imloviy ( orfografik ) mashqlarga qaysilar kiradi?**  
A) grammatik-imloviy ( orfografik ) tahlil B) ko‘chirib yozuv; diktantlar  
D) leksik-grammatik tahlil; bayonlar E) yuqorida sanalganlarning barchasi
- 49. Ko‘rib idrok qilingan so‘z , gap , matnni yozma shaklda berish –**  
A) ko‘chirib yozuvdir B) diktantdir D) saylanma diktantdir E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 50. Boshlang‘ich sinflarda insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun qancha vaqt ajratiladi?**  
A) 5 – 10 daqiqa B) 10 – 15 daqiqa D) 15 – 20 daqiqa E) 20 – 25 daqiqa
- 51. Ona tili mashg‘ulotlarini tashkil etishda qanday reja turlaridan foydalaniladi?**  
A) Yillik va yarim yillik reja B) Choraklik reja D) Mavzuiy reja  
E) yuqorida sanalganlarning barchasi
- 52. Talaffuzga asoslangan yozuv qoidalari qaysi prinsipga kiradi?**  
A) Shakliy B) Morfologik D) Fonetik E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 53. So‘zning eng kichik , bo‘linmaydigan ma‘noli qismi –**  
A) o‘zak morfemadir B) affiksial morfemadir D) morfemadir E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 54. So‘zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda qanday belgilarga asoslanadi?**  
A) leksik ma‘nosi B) morfologik D) sintaktik E) yuqorida sanalganlarning barchasi
- 55. Boshlang‘ich sinflarda „ Sifat “ mavzusi qanday izchillikda o‘rganiladi?**  
A) sifat bilan dastlabki tanishtirish  
B) sifat haqida tushuncha berish  
D) shu grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim sifatning yozilishini o‘zlashtirish  
E) yuqorida sanalganlarning barchasi
- 56. 1-sinfda o‘quv yili oxirida tekshirish diktantidagi so‘zlar soni –**  
A) 25 – 30 so‘z B) 35 – 45 so‘z D) 15 so‘z E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 57. 4-sinfda o‘quv yilining oxirida tekshirish diktantidagi so‘zlar soni –**  
A) 45 – 55 ta so‘z B) 55 – 65 ta so‘z D) 65 – 70 ta so‘z E) 75 – 80 ta so‘z
- 58. Diktantlar maqsadiga ko‘ra necha turli bo‘ladi?**  
A) 3 turli B) 5 turli D) 7 turli E) 2 turli
- 59. Ovozdor ( sonor ) tovushlar berilgan qatorni aniqlang.**  
A) b , d , j B) k , g , g‘ D) m , n , l E) f , p , t

- 60. O‘zbek tilida qaysi harflar ikkitadan nutq tovushini ifodalaydi?**  
 A) ch , ng    B) sh , h    D) j , s    E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 61. Tutuq belgisi qaysi o‘rinlarda qo‘llanilishini belgilang.**  
 A) So‘z bo‘g‘inlarini ajratib ko‘rsatish uchun;  
 B) So‘zda a , e , u unli tovushlaridan so‘ng ovoz biroz tutilib , shu unlining cho‘ziqroq talaffuz qilinishini ifodalash uchun;  
 D) Sh harflari ikki tovushni ifodalagani uchun;  
 E) A , B va D javoblardagi o‘rinlarda
- 62. Xato yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.**  
 A) Ota-ona , katta-kichik                      B) Otayu-ona , kattayu-kichik  
 D) Ota-yu ona , katta-yu kichik    E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 63. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga amal qilingan so‘zlar qatorini ko‘rsating.**  
 A) Ya-ngi , de-ngiz , lan-gar    B) Ing-liz , ko‘n-gil , so‘n-gi  
 D) Ton-gi , uzan-gi , bir-in-chi    E) A va B javoblar to‘g‘ri
- 64. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga amal qilinmagan so‘zlar qatorini aniqlang.**  
 A) Ikir-chikir , qop-qop , u-bu    B) Ra‘-no , ma‘-no , mudo-faa  
 D) Ko‘-ngil , to-ngi , so‘ng-gi    E) Sin-gil , ken-gash , den-giz
- 65. U harfi o‘rniga o‘ harfini qo‘yib ma‘nosini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan so‘zlar qatorini belgilang.**  
 A) Bur , qul , qush    B) Tur , ulush , qum    D) Sur , buz , bug‘u    E) Tuz , tutun , tush
- 66. Qaysi qatordagi so‘zlarda „ ng “ harflar birikmasi bitta tovushni ifodalashga xizmat qilgan?**  
 A) Mangu , tanga , menga    B) Senga , unga , bunga    D) Ingliz , kongress , Ngiliy  
 E) Kengash , yangi , yengi
- 67. Lablangan unilarni aniqlang.**  
 A) a , I    B) e , o    D) o‘ , u    E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 68. O‘rta keng unililar qaysi qatorda joylashganini aniqlang.**  
 A) i , u    B) o , o‘    D) a , e    E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 69. Tor unililar berilgan qatorni belgilang.**  
 A) o , o‘    B) i , u    D) a , e    E) D va B javoblar
- 70. Keng unililar qatorini aniqlang.**  
 A) i , u    B) a , e    D) o , o‘    E) A va D javoblar
- 71. Lablanmagan unililar qatorini belgilang.**  
 A) i , e    B) o‘ , u    D) to‘g‘ri javob berilmagan  
 E) o‘zbek tilida bunday unililar yo‘q
- 72. Jarangsiz undosh tovushlar berilgan qatorni aniqlang.**  
 A) v , g , l , r    B) m , n , d , z    D) s , sh , ch , x    E) b , j , g‘ , ng
- 73. Jarangli undosh tovushlar berilgan qatorni belgilang.**  
 A) k , t , s    B) q , h , p    D) ch , sh , x    E) y , g , r
- 74. Bo‘g‘inga noto‘g‘ri ajratilgan so‘zlar qatorini aniqlang.**  
 A) So‘-ngi , si-ngil , tong-gi    B) Ko‘ng-li , lan-gar , in-gliz    D) Yan-gi , ko‘n-gil , ing-liz  
 E) To-ngi , mang-lay , tan-ga
- 75. Xato yozilgan so‘zlar qatorini belgilang.**  
 A) shox , shoh , uxlamog    B) uhlamoq , hol , xol    D) xo‘sh , hush , es-hushli  
 E) xushhabar , xushyor , baxodir
- 76. Imlo belgilari soni to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.**  
 A) 5 ta    B) 4 ta    D) 3 ta    E) 2 ta
- 77. Sonlarning imlosi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**  
 A) 25 dekabr 2008 yil    B) XII-sessiya  
 D) III-sinf                      E) 2009-yilning 10-yanvari

- 78. Yonma-yon keladigan undoshlar imlosi imlo qoidalarining nechanchi moddasida berilgan?**  
 A) 34-modda B) 7-modda D) 31-modda  
 E) 5-modda
- 79. So‘zboshida qo‘llanmaydigan harfiy birikmani belgilang.**  
 A) sh B) ng D) ch E) o‘zbek tilida bunday birikma yo‘q
- 80. Qaysi qatordagi so‘zlar to‘g‘ri yozilgan?**  
 A) hashak , raxmat B) lovilla , gurilla  
 D) Qayyum , Ayyub E) shovilla , bulduruq
- 81. O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida ikki undosh kelsa , ular keyingi satrga –**  
 A) ko‘chirilmaydi  
 B) birgalikda ko‘chiriladi  
 D) biri oldingi satrda qoldirilib , ikkinchisi ko‘chiriladi  
 E) o‘zbek tilida bunday qoida yo‘q
- 82. Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi –**  
 A) birgalikda ko‘chiriladi  
 B) biri qoldirilib , ikkinchisi ko‘chiriladi  
 D) bunday qoida yo‘q  
 E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 83. Yildan yilga , tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida , ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar –**  
 A) chiziqcha bilan yoziladi B) ajratib yoziladi D) to‘g‘ri javob berilmagan
- 84. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko‘pdan ko‘p , tekidan tekin , yangidan yangi kabilar**  
 A) ajratib yoziladi B) chiziqcha bilan yoziladi D) to‘g‘ri javob berilmagan
- 85. Marosim , afsona kabilarni bidiruvchi qo‘shma otlar –**  
 A) qo‘shib yoziladi B) ajratib yoziladi D) chiziqcha bilan yoziladi E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 86. Takror taqlid so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan ot va fe‘llar –**  
 A) ajratib yoziladi B) chiziqcha bilan yoziladi D) qo‘shib yoziladi  
 E) o‘zbek tilida bunday holat uchramaydi
- 87. Taqlid so‘zlardan fe‘l yasovchi -illa qo‘shimchasi so‘z tarkibida v va u tovushi bo‘lganda –**  
 A) -illa aytiladi va shunday yoziladi B) -ulla aytiladi va shunday yoziladi  
 D) bunday qoida yo‘q E) to‘g‘ri javob berilmagan
- 88. Qaysi so‘zlarga I , II shaxs egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda bir y tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi?**  
 A) mavqe , mavzu B) orzu , bobo D) parta , maktab E) kitob , qalam
- 89. Qaysi olmoshlarga -ni , -ning , -niki qo‘shimchalari qo‘shilganda n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi?**  
 A) Kim , nima , qayer B) Men , sen D) U , bu , o‘sha E) Hamma , barcha
- 90. Qaysi olmoshlarga -da , -dan , -day , -dagi , -ga , -gach , -cha qo‘shimchalari qo‘shilganda n tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi?**  
 A) barcha , hamma B) bu , shu D) men , biz E) kim , nima
- 91. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.**  
 A) dardi bedavo , nuqtayi nazar B) tekidan-tekin , ko‘pdan-ko‘p  
 D) tomdan-tomga , qizigandan-qizidi E) yangidan-yangi , dardi sar
- 92. Qaysi qatorda chiziqcha noto‘g‘ri qo‘llangan?**  
 A) kutaman-a , yashang-e B) to‘ppa-to‘g‘ri , qip-qizil  
 D) uyma-uy , rang-barang E) tomdan-tomga , tekidan-tekin
- 93. Qaysi qatorda bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga amal qilingan?**

- A) Qar-DU , O‘z-MU , a-da-biy      B) sin-gil , ko‘n-gil , ton-gi  
D) sing-lim , ko‘ng-li , tong-gi      E) pesh-ayvon , o-qi-la , mu-do-faa

**94. Yonma-yon keladigan unililar imlosi imlo qoidalarining nechanchi moddasida berilgan?**

- A) 4-moddasida      B) 11-moddasida      D) 7-moddasida      E) 31-moddasida

**95. Yuklama-qo‘shimchalarning qaysilari so‘zlarga qo‘shib yoziladi?**

- A) -e , -ey      B) -ov , -gina      D) -chi , -a      E) -ku , -da

**96. Yuklama-qo‘shimchalarning qaysilari so‘zlarga chiziqcha yordamida yoziladi?**

- A) -mi      B) -oq      D) -gina      E) -ku

**97. Xatosiz yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.**

- A) O‘rta Chirchiq , Ko‘hna Urganch      B) yangiyo‘l , to‘rtko‘l , xalqobod  
D) foto-apparat , elektro-texnika      E) suv osti , bayram oldi

**98. -(a)r ( inkori -mas ) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar**

- A) ajratib yoziladi      B) qo‘shib yoziladi      D) chiziqcha bilan yoziladi  
E) o‘zbek tilida bunday holat uchramaydi

**99. Murakkab son qismlari –**

A) qo‘shib yoziladi      B) ajratib yoziladi      D) to‘g‘ri javob berilmagan      E) A va B javoblar to‘g‘ri

**100. O‘zbekiston Respublikasining „ Davlat tili haqida “ gi Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida “ gi Qonuni qabul qilingan sanani aniqlang.**

- A) 1995-yil 21-dekabr      B) 1995-yil 24-avgust      D) 1993-yil 2-sentabr      E) to‘g‘ri javob berilmagan

#### Ochqich

- |       |       |       |        |
|-------|-------|-------|--------|
| 1. A  | 26. B | 51. E | 76. D  |
| 2. D  | 27. D | 52. D | 77. E  |
| 3. D  | 28. B | 53. D | 78. D  |
| 4. A  | 29. E | 54. E | 79. B  |
| 5. A  | 30. B | 55. E | 80. D  |
| 6. E  | 31. B | 56. D | 81. B  |
| 7. B  | 32. D | 57. E | 82. A  |
| 8. A  | 33. E | 58. E | 83. B  |
| 9. D  | 34. B | 59. D | 84. A  |
| 10. E | 35. B | 60. D | 85. A  |
| 11. B | 36. E | 61. E | 86. D  |
| 12. D | 37. D | 62. B | 87. B  |
| 13. B | 38. A | 63. A | 88. A  |
| 14. E | 39. D | 64. E | 89. B  |
| 15. A | 40. E | 65. A | 90. B  |
| 16. E | 41. A | 66. E | 91. A  |
| 17. B | 42. D | 67. D | 92. E  |
| 18. A | 43. E | 68. B | 93. D  |
| 19. E | 44. B | 69. B | 94. D  |
| 20. D | 45. E | 70. B | 95. B  |
| 21. D | 46. B | 71. A | 96. E  |
| 22. B | 47. D | 72. D | 97. A  |
| 23. E | 48. E | 73. E | 98. B  |
| 24. E | 49. A | 74. D | 99. B  |
| 25. A | 50. D | 75. E | 100. A |

# GLOSSARIY

**Амалий ишлар методи** – ўзлаштирилган билимларни амалиётда қўллаш кўникмаларини шакллантирувчи усул.

**Ахлоқ** (лотинча «moralis» - хулқ-атвор маъносини билдиради) - ижтимоий муносабатлар ҳамда шахс хатти-ҳаракатини тартибга солувчи, муайян жамият томонидан тан олинган ва риоя қилиниши зарур бўлган хулқ-атвор қоидалари, мезонлари йиғиндиси.

**Ахлоқий тарбия** – муайян жамият томонидан тан олинган ва риоя қилиниши зарур бўлган тартиб, одоб, ўзаро муносабат, мулоқот ва хулқ-атвор қоидалари, мезонларини ўқувчилар онгига сингдириш асосида уларда ахлоқий онг, ахлоқий фаолият кўникмалари ва ахлоқий маданиятни шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараён; ижтимоий тарбиянинг муҳим таркибий қисми.

**Ақлий тарбия** - шахсга табиат ва жамият тараққиёти тўғрисидаги билимларни бериш, унинг ақлий (билиш) қобилияти, тафаккури ва дунёқарашини шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараён; ижтимоий тарбиянинг муҳим таркибий қисми.

**Бакалаврият** - мутахассисликлар йўналиши бўйича фундаментал ва амалий билим берадиган, таълим олиш муддати камида тўрт йил давом этадиган таянч олий таълим.

**Баҳо** – таълим олувчиларга уларнинг таълим олиши, билимларни ўзлаштиришга нисбатан ижодий ёндошишини рағбатлантириш мақсадида таъсир кўрсатиш воситаси.

**Билим** – шахснинг онгида тушунчалар, схемалар, маълум образлар кўринишида акс этувчи борлиқ ҳақидаги тизимлаштирилган илмий маълумотлар мажмуи.

**Билим олиш** – борлиқни идрок этиш, ўрганиш, машқ қилиш ва муайян тажриба асосида хулқ-атвор ҳамда фаолият кўникма, малакаларининг мустаҳкамланиб, мавжуд билимларнинг такомиллашиб, бойиб бориш жараёни.

**Билиш** - объектив борлиқнинг инсон онгида акс этиш шакли; илмий билимларни ўзлаштириш жараёни.

**Бошланғич таълим** - ўқувчиларга мураккаб бўлмаган илмий билимларни бериш асосида уларда ўқиш, ёзиш ва ҳисоблашга оид дастлабки билим, кўникма ҳамда малакаларни шакллантириш асосида уларда шахсий гигиена ва соғлом турмуш тарзи элементларини ҳосил қилиш босқичи.

Бошланғич таълим педагогикаси – бошланғич синфлар ўқувчиларини тарбиялаш, уларга таълим бериш, уларнинг ўзига хос психологик ҳамда физиологик хусусиятларини тадқиқ этиш, шунингдек, уларни интеллектуал, маънавий-ахлоқий ва жисмоний жиҳатдан камолотга етказиш масалаларини ўрганади.

**Ватанпарварлик** (лотинча «patriotes» – ватандош, «patris» – ватан, юрт) - шахснинг ўзи мансуб бўлган миллат, туғилиб ўсган ватани тарихидан ғурурланиши, бугуни тўғрисида қайғуриши ҳамда унинг порлоқ истиқболига бўлган ишончини ифода этувчи юксак инсоний фазилат.

**Вербал** – билим (маълумот, ахборот)ларни сўз ёрдамида (оғзаки) етказиб бериш, ифода этиш.

**Гносеология** (юнон тилидан gnosis – билим, онг, ўрганиш) – билиш, илмий билимларнинг шаклланиши, хусусиятлари, қонуниятлари, услублари, илмий тафаккур шакллари, шунингдек, инсонга хос бўлган борлиқни англаш қобилияти ҳақидаги назария, таълимот.

**Давлат рамзлари** - муайян миллат, элатнинг этнопсихологик хусусиятлари, қарашлари, орзу-умидлари, интилишлари ва мақсади, ҳудудий, ижтимоий-ғоявий бирлик моҳиятини англатишга хизмат қилувчи тасвирий белгилар мажмуи.

**Давлат таълим стандарти** – 1) таълим олиш шаклидан қатъий назар битирувчилар эришишлари зарур бўлган таълим даражасини белгиловчи асосий ҳужжат; 2) ўқув фани бўйича таълимнинг якуний натижаларини белгиловчи асосий ҳужжат; 3) таълим дастурлари мазмунининг минимуми, ўқувчилар томонидан бажариладиган ўқув ишларининг максимал ҳажми, шунингдек, битирувчиларнинг тайёргарлик даражаларига қўйилувчи талаблар.

**Дарс** - бевосита ўқитувчи раҳбарлигида муайян ўқувчилар гуруҳи билан олиб бориладиган таълим жараёнининг асосий шакли.

**Дарслик** – муайян фан бўйича таълим мақсади, ўқув дастури ва дидактик талабларга мувофиқ белгиланган илмий билимлар тўғрисидаги маълумотларни берувчи манба.

**Дидактика (таълим назарияси)** – (юнонча «didaktikos» “ўргатувчи”, «didasko» – “ўрганувчи”) - таълимнинг назарий жиҳатлари (таълим жараёнининг моҳияти, тамойиллари, қонуниятлари, ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти мазмуни, таълим мақсади, шакл, метод, воситалари, натижаси, таълим жараёнини такомиллаштириш йўллари ва ҳоказо муаммолари)ни ўрганувчи фан.

**Дидактика тамойиллари** (лотин тилидан «principium» - ҳар қандай назариянинг асосий, бошланғич, дастлабки ҳолати) – таълимни ташкил этишга қўйилган меъёрий талабларни ифодаловчи, шунингдек, таълим жараёнининг асосий мақсади ва қонуниятларига мувофиқ унинг дастлабки ҳолатини белгиловчи қарашлари.

**Дидактик ташҳис мақсади** – ўқув жараёнининг самарадорлигини аниқлаш, баҳолаш ва таҳлил қилиш.

**Дидактик тизим** (юнонча «systema» – яхлит, қисмларда ташкил топган, бирлаштириш) – маълум мезонлари асосида таълим жараёнининг яхлит ҳолатини белгилаш, ажратиб кўрсатиш.

**Дидактик ўйин** – ўрганилаётган объект, ҳодиса ва жараёнларни моделлаштириш асосида ўқувчининг билишга бўлган қизиқиши ва фаоллик даражасини рағбатлантирувчи ўқув фаолияти тури.

**Дунёқараш** - табиат, жамият, тафаккур ҳамда шахс фаолияти мазмунининг ривожланиб боришини белгилаб берувчи диалектик қарашлар ва эътиқодлар тизими.

**Жазолаш** - тарбияланувчининг хатти-ҳаракати ва фаолиятига салбий баҳо бериш усули.

**Жамоа** (лотинча «коллективус» сўзининг таржимаси бўлиб, йиғилма, омма, биргаликдаги мажлис, бирлашма, гуруҳ каби маъноларни англатади) - бир неча аъзо (киши)лардан иборат бўлиб,

ижтимоий аҳамиятга эга умумий мақсад асосида ташкил топган гуруҳ.

**Жорий назорат** – таълим жараёнида ўқувчилар томонидан ўқув дастурида белгиланган муайян мавзуларни ўзлаштирилиш бўйича билим, кўникма ва малакалари даражасини аниқлаш, баҳолаш шакли.

**Идрок** – аниқ мақсадга йўналтирилган англаш жараёни.

**Ижтимоий адаптация** (юнонча adapto - мослашиш) – аномал болалар индивидуал ёки гуруҳли хулқларининг ижтимоий кадриятлар ва хулқ-атвор қоидалари тизимига мос келиши.

**Ижтимоийлашув** – ижтимоий муносабатлар жараёнида фаол иштирок этиши асосида шахснинг ҳаёт ва ишлаб чиқариш жараёнига мослашуви.

**Ижтимоий онгни шакллантирувчи методлар** - ўқувчиларда маънавий-ахлоқий сифатлар, эътиқод ҳамда дунёқарашни шакллантириш мақсадида уларнинг онги, ҳис-туйғуси ва иродасига таъсир кўрсатиш усуллари.

**Изоҳлаш** (тарбия методи сифатида) – тарбияланувчига ҳиссий-оғзаки таъсир этиш усули.

**Илмий дунёқараш** - узлуксиз, изчил равишда мавжуд фанлар асосларини пухта ўзлаштириб бориш, ижтимоий муносабатлар жараёнида фаол иштирок этиш натижасида барқарорлашган дунёқараш шакли.

**Илмий тафаккур** – инсон ақлий фаолиятининг юксак шакли саналиб, ижтимоий воқеа-ҳодисалар, жараёнларга нисбатан илмий ёндашув.

**Ёш хусусиятлари** - муайян бир ёш даврига хос бўлган анатомик, физиологик (жисмоний) ва психологик хусусиятлар.

**Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш** - мутахассисларнинг касб билимлари ва кўникмаларини янгилаш ҳамда чуқурлаштириш мақсадида ташкил этилувчи таълим босқичи.



**«Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури»** - «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг қоидаларига мувофиқ, миллий тажрибанинг таҳлили ҳамда таълим тизимидаги жаҳон миқёсидаги ютуқлар асосида тайёрланган ҳамда юксак умумий ва касб-ҳунар маданиятига, ижодий ва ижтимоий фаолликка, ижтимоий-сиёсий ҳаётда мустақил равишда мўлжални тўғри ола билиш маҳоратига эга бўлган, истиқлол вазифаларини илгари суриш ва ҳал этишга қодир кадрларнинг янги авлодини шакллантириш мазмунини белгилаб берувчи юридик ҳужжат.

**Кадрлар тайёрлаш миллий модели** - шахс, давлат ва жамият, узлуксиз таълим, фан ва ишлаб чиқариш каби таркибий қисмларнинг ўзаро ҳамкорлиги, улар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик асосида «юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи юқори малакали кадрларни тайёрлаш Миллий тизими» моҳиятини акс эттирувчи андоза, лойиҳа Унинг таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат:

**шахс** – кадрлар тайёрлаш тизимининг бош субъекти ва объекти, таълим соҳасидаги хизматларнинг истеъмолчиси ва уларни амалга оширувчи;

**давлат ва жамият** – таълим ва кадрлар тайёрлаш тизими фаолиятини тартибга солиш ва назорат қилишни амалга оширувчи кадрларни тайёрлаш ва уларни қабул қилиб олишнинг кафиллари;

**узлуксиз таълим** – малакали, рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг асоси бўлиб, таълимнинг барча турларини, давлат таълим стандартларини, кадрлар тайёрлаш тизимининг тузилмаси ва унинг фаолият кўрсатиш муҳитини ўз ичига олади;

**фан** – юқори малакали мутахассислар тайёрловчи ва улардан фойдаланувчи, илғор педагогик ва ахборот технологияларини ишлаб чиқарувчи;

**ишлаб чиқариш** – кадрларга бўлган эҳтиёжни, шунингдек, уларнинг тайёргалик сифати ва савиясига нисбатан қўйиладиган талабларни белгилайдиган асосий буюртмачи, кадрлар тайёрлаш тизимини молиявий ва моддий-техникавий жиҳатдан таъминлаш жараёнининг фаол иштирокчиси.

**Касб-хунар коллежи** - ўқувчиларнинг касб-хунарга мойиллиги, билим ва кўникмаларини чуқур ривожлантирувчи, танлаб олинган касб-хунар бўйича бир ёки бир неча ихтисосни эгаллаш имконини яратиш мақсадида тегишли давлат таълим стандартлари доирасида ўрта махсус, касб-хунар таълимини берувчи, юридик мақомга эга таълим муассасаси.

**Категория** - фаннинг моҳиятини очиб берувчи энг муҳим, асосий тушунча.

**Кўникма** – шахснинг муайян ҳаракат ёки фаолиятни ташкил эта олиш қобилияти.

**Кўргазмали методлар** - предмет, ҳодиса ёки жараёнлар моҳиятини табиий ҳолатда намойиш қилиш, уларнинг макетларини кўрсатишда қўлланилувчи усуллар.

**Лицей (коллежда) маъруза** – ўқув материални ўқувчиларнинг идрок этиш фаолиятларини фаоллаштириш услублари билан биргаликда давомли оғзаки баён этиш (80-90 минут), берилаётган материалнинг схематик моделини тузиш (асосий фикрни тезис ёки лойиҳа кўринишида ёзиб олиш) ва бошқалар.

**Лойиҳалаштириш (режалаштириш)** - ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини бошқариш дастурини яратиш.

**Магистратура** - аниқ мутахассислик бўйича фундаментал ва амалий билим берадиган, бакалаврият негизида таълим муаддати камида икки йил давом этадиган олий таълим.

**Маданият** («cultura» сўзидан олинган бўлиб, парвариш қилиш, ишлов бериш маъносини билдиради) – ижтимоий тараққиёт давомида инсонларнинг фаолияти туфайли қўлга киритилиб, уларнинг ижтимоий эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилувчи моддий ва маънавий бойликлар тизими.

**Мазмун** (таълим (билим олиш) мазмуни) – таълим жараёнида шахс томонидан ўзлаштирилиши зарур бўлган илмий билим, амалий кўникма, малака, фикрлаш ҳамда фаолият усуллари тизими.

**Мактабгача таълим** - боланинг соғлом, ҳар томонлама камол топиб шаклланишини таъминловчи, унда ўқишга интилиш ҳиссини

уйғотувчи, уни мунтазам таълим олишга тайёрловчи ҳамда бола олти-етти ёшга етгунча давлат ва нодавлат мактабгача таълим муассасалари ва оилаларда амалга оширилувчи таълим босқичи.

**Мактабгача таълим педагогикаси** – мактабгача таълим ёшидаги болаларни тарбиялаш, уларни интеллектуал, маънавий-ахлоқий ва жисмоний жиҳатдан камолотга етказиш масалаларини ўрганади.

**Мактабдан ташқари таълим** - маданий-эстетик, илмий, техникавий, спорт ва бошқа йўналишларда йўлга қўйилувчи, болалар ҳамда ўсмирларнинг таълимга бўлган, яқка тартибдаги, ортиб боровчи талаб-эҳтиёжларини қондириш, уларнинг бўш вақти ва дам олишини ташкил этиш мақсадида ташкил этиладиган таълим босқичи.

**Малака** – муайян ҳаракат ёки фаолиятни бажаришнинг автоматлаштирилган шакли.

**Материални оғзаки баён қилиш методлари** – ўқув материали моҳиятини оғзаки (ҳикоя, тушунтириш, мактаб маърузаси каби шаклларда) ёритишда қўлланилувчи усуллар.

**Мафкура** (арабча «мафкура» - нақтаи назар ва эътиқодлар тизими, мажмуи) – жамиятдаги муайян сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий, диний, бадий, фалсафий, илмий қарашлар, шунингдек, маънавий-ахлоқий юксаклиш, маърифий-тарбиявий ишларнинг ривожини таъминловчи, уларнинг мақсад ва йўналишларини аниқлашда етакчи ўрин тутувчи ғоялар тизими.

**Машқ ва ўргатиш (фаолиятда машқлантириш) методлари** – муайян машқёрдамида болалар фаолиятини оқилона, мақсадга мувофиқ ва ҳар томонлама пухта ташкил қилиш, уларни ахлоқ меъёрлари ва хулқ-атвор қоидаларини бажаришга одатлантириш усуллари.

**Маълумот** – таълим-тарбия натижасида ўзлаштирилган ва тизимлаштирилган билим, ҳосил қилинган кўникма ва малакалар ҳамда таркиб топган дунёқараш мажмуи.

**Маънавият** (арабча «маънавият» - маънолар мажмуи) – моҳиятига кўра ижтимоий тараққиётга ижобий таъсир ўтказувчи фалсафий,

хуқуқий, илмий, бадий, ахлоқий, диний тасаввур, тушунча ва ғоялар мажмуи.

**Маърифат** – шахс онгига илмий билим, ахлоқ қоидалари ҳамда ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи хуқуқий меъёрларни сингдириш, таълим-тарбияни такомиллаштириш, миллий мерос ва умуминсоний қадриятларни ўрганиш, уларни тарғиб этиш мақсадида амалга ошириладиган тадбирлар тизими.

**Маъруза** – йирик ҳажмдаги ўқув материални оғзаки баён қилиш шакли.

**Метод** - юнонча таржимаси «тадқиқот, усул, мақсадга эришиш йўли» каби маъноларни англатади.

**Методика** (фан сифатида)– хусусий фанларни ўқитишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганади.

**Мунозара** (тарбия методи сифатида) - тарбияланувчиларга ҳиссий-оғзаки таъсир кўрсатиш асосида уларда маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантиришга йўналтирилган баҳс-мунозара усули.

**Назорат** (таълим жараёнида)– таълим олувчининг билим, кўникма ва малакалари даражасини аниқлаш, ўлчаш ва баҳолаш жараёни.

**Олий таълим** - ўрта махсус, касб-ҳунар таълими негизига асосланиб, икки босқич (бакалаврият ҳамда магистратура)да ташкил этиладиган ҳамда мутахассисликлар йўналишлари бўйича халқ хўжалигининг турли соҳаларига олий маълумотли мутахассисларни тайёрлаб берувчи таълим босқичи.

**Олий ўқув юртидан кейинги таълим** - жамиятнинг олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларга бўлган эҳтиёжларини қондириш, шахснинг ижодий таълим – касб-ҳунар манфаатларини қаноатлантиришга қаратилиб, олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларида аспирантура, адъюнктура ва докторантурада таълим олиш, шунингдек, мустақил тадқиқотчилик фаолиятини ташкил этиш асосида амалга ошириладиган таълим босқичи.

**Оралик назорат** – ўқувчилар томонидан ўқув материалнинг муайян боб ёки бўлимлари бўйича ўзлаштирилган билим, кўникма ва малакалари даражасини аниқлаш, баҳолаш шакли.

**Педагогик технология** – таълим ва тарбия жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш, технологик ёндашув асосида таълим ва тарбия жараёнининг самарадорлигини ошириш муаммоларини ўрганади.

**Рағбатлантириш** - тарбияланувчининг хатти-ҳаракати ва фаолиятига ижобий баҳо бериш асосида унга ишонч билдириш, кўнгилни кўтариш ва уни қўллаб-қувватлаш усули.

**Ривожланиш** – шахснинг физиологик ва интеллектуал ўсишида намоён бўладиган миқдор ва сифат ўзгаришлар моҳиятини ифода этувчи мураккаб жараён.

**Рейтинг** (баҳолаш, тартибга келтириш, классификациялаш) - муайян ҳодисани олдиндан белгиланган шкала бўйича баҳолаш.

**Синф** - ёши ва билими жиҳатидан бир хил бўлган, маълум ўқувчилар гуруҳи.

**Сухбат** – савол ва жавоб шаклидаги диалогик таълим методи.

**Тамойил** (юнонча «principium») – бирор-бир назариянинг асоси, негизи, асосий бошланғич қоидаси; бошқарувчи ғоя, фаолиятнинг асосий қоидаси; умумлаштирилган талаб.

**Тарбия** – муайян, аниқ мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида шахсни ҳар томонлама ўстириш, унинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини таркиб топтириш жараёни.

**Тарбия жараёни** - ўқитувчи ва ўқувчи (тарбиячи ва тарбияланувчи)лар ўртасида ташкил этилувчи ҳамда аниқ мақсадга йўналтирилган самарали ҳамкорлик жараёни.

**Тарбия мазмуни** - шахснинг шаклланишига қўйилувчи ижтимоий талаблар моҳияти.

**Тарбия методи** (юнонча «методос» – йўл) – тарбия мақсадига эришиш йўли; тарбияланувчиларнинг онги, иродаси, туйғулари ва хулқига таъсир этиш усуллари.

**Тарбия назарияси** – педагогиканинг муҳим таркибий қисми; тарбиявий жараён мазмуни, шакл, метод, восита ва усуллари ҳамда уни ташкил этиш муаммоларини ўрганади.

**Тафаккур** (ижтимоий воқеа-ҳодисаларнинг онгда тўлақонли акс этиши, инсон ақлий фаолиятининг юксак шакли).

**Ташҳис** – дидактик жараён кечадиган барча шароитларни ойдинлаштириш, унинг натижаларини белгилаш.

**Таълим** – ўқувчиларга назарий билимларни бериш асосида уларда амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, уларнинг билиш қобилиятларини ўстириш ва дунёқарашларини тарбиялашга йўналтирилган жараён.

**Таълим ва тарбия мазмуни** – шахснинг ақлий ва жисмоний қобилиятини ҳар томонлама ривожлантириш, дунёқараши, одоби, хулқи, ижтимоий ҳаёт ва меҳнатга тайёрлик даражасини шакллантириш жараёнининг моҳияти.

**Таълим воситалари** – таълим самарадорлигини таъминловчи объектив (дарслик, ўқув қўлланмалари, ўқув қуроллари, харита, диаграмма, плакат, расм, чизма, диопроектор, магнитофон, видеомагнитофон, ускуна, телевизор, радио, компьютер ва бошқалар) ва субъектив (ўқитувчининг нутқи, намунаси, муайян шахс ҳаёти ва фаолиятига оид мисоллар ва ҳоказолар) омиллар.

**Таълим жараёни** – ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ташкил этилувчи ҳамда илмий билимларни ўзлаштиришга йўналтирилган педагогик жараён.

**Таълим менежери** – таълим муассасаси фаолиятини замонавий менежмент қонуниятларига мувофиқ бошқарувчи мутахассис.

**Таълим методлари** – таълим жараёнида қўлланилиб, унинг самарасини таъминловчи усуллар мажмуи.

**Таълим муассаси Устави** – таълим муассасасига раҳбарлик моҳиятини ёритувчи ҳамда унинг фаолиятини бошқариш тизимини аниқловчи ҳужжат.

**Таълим концепциялари** (лотин тилидан «conceptio» – тизим) – таълим-тарбия мазмуни, истиқболини ёритувчи яхлит қарашлар тизими; узлуксиз таълим тизимининг турли босқичларида

таълим муассасалари фаолияти йўналиши, мақсад ва вазифаларини белгилашнинг алоҳида усули.

**Таълим мазмуни** – давлат таълим стандартлари асосида белгилаб берилган ҳамда маълум шароитда муайян фанлар бўйича ўзлаштирилиши назарда тутилган илмий билимлар моҳияти.

**Таълим мақсади** (ўқиш, билим олиш мақсади) – таълимнинг аниқ йўналишини белгилаб берувчи етакчи ғоя.

**Таълим натижаси (таълим маҳсули)** – таълим якунининг моҳиятини қайд этувчи тушунча; ўқув жараёнининг оқибати; белгиланган мақсадни амалга ошириш даражаси.

**Таълимни бошқариш** – таълим муассасаларининг фаолиятини йўлга қўйиш, бошқариш, назорат қилиш ҳамда истикболларини белгилаш масалаларини ўрганади.

**Таълимнинг синф-дарс тизими** - дарс шаклида муайян ўқувчилар гуруҳи билан ўқув режасига мувофиқ тузилган аниқ жадвал бўйича олиб бориладиган таълим жараёни.

**Таълим тизими** – давлат сиёсатининг асосий тамойиллари асосида ёш авлодга таълим-тарбия бериш йўлида фаолият юритувчи барча турдаги таълим муассасалари мажмуи.

**Таълим шакли** – таълим жараёнининг ташкилий тузилмаси.

**Тизим** (мустақил тушунча сифатида) - ўзаро боғланган кўплаб элементлар (таркибий қисмлар) ўртасидаги мустаҳкам бирлик ва ўзаро яхлитлик.

**Тест** - аниқ мақсад асосида муайян ҳолат даражасини сифат ва миқдорий кўрсаткичларда белгилашга имкон берувчи синов воситаси.

**Топшириқ** - ўқувчиларда меҳнат, ижтимоий хулқ ва ҳаётий тажриба кўникмаларини шакллантириш мақсадида қўлланиладиган усул.

**Тушунтириш** - ўқув материали мазмунини исбот, таҳлил, умумлашма, таққослаш асосида баён қилиш.

**Тўғарак** - ўқувчиларнинг қизиқиш ва қобилиятларини ривожлантириш мақсадида синфдан ёки мактабдан ташқари шароитда уюштирилувчи қўшимча таълим шакли.

**Умумий ўрта таълим** - ўқувчиларнинг фан асослари бўйича мунтазам билим олишларини, уларда билим ўзлаштириш эҳтиёжини, асосий ўқув-илмий ва умуммаданий билимларни, миллий ва умумбашарий қадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий фазилатларни, меҳнат кўникмаларини, ижодий фикрлаш ва атроф-муҳитга онгли муносабатда бўлишни ва касб танлаш кўникмаларини шакллантириш босқичи.

**Университет** - кадрлар тайёрлаш ва билимларнинг кенг соҳалари бўйича олий ва олий ўқув юртидан кейинги таълим дастурларини амалга оширувчи, юридик мақомга эга таълим муассасаси.

**Усул** - муайян ўқув материални ўзлаштиришда қўлланилаётган асосий таълим методи билан бирга иккинчи бир таълим методининг айрим элементларидан фойдаланиш.

**Фаолият** - шахс томонидан табиий ва ижтимоий мақсадга мувофиқ ташкил этилувчи кундалик, ижтимоий ёки касбий ҳаракатларнинг муайян шакли, кўриниши.

**Шахс** - психологик жиҳатдан тараққий этган, шахсий хусусиятлари ва хатти-ҳаракатлари билан бошқалардан ажралиб турувчи, муайян хулқ-атвор ва дунёқарашга эга бўлган жамият аъзоси.

**Якуний назорат** – таълим олувчиларнинг чорак ёки ярим йиллик учун белгиланган ўқув материаллари бўйича ўзлаштирилган билим, кўникма ва малакалари даражасини аниқлаш, баҳолаш шакли.

**Ўқитувчи (педагог)** – педагогик, психологик ва мутахассислик йўналишлари бўйича махсус маълумот, касбий тайёргарлик ва маънавий-ахлоқий сифатларга эга ҳамда таълим муассасаларида фаолият кўрсатувчи шахс.

**Ўқиш** – маълум усуллар ёрдамида ташкил этилган билимларни ўрганиш жараёни; ўқувчилар томонидан ўқув фаолияти усулларини эгаллаб олишга йўналтирилган фаолият.

**Ўқув дастури** – муайян ўқув фани бўйича билим, кўникма ва малакалар мазмуни, умумий вақтнинг мавзуларни ўрганилиши бўйича тақсимланиши, мавзуларнинг кетма-кетлигини белгилаш



ҳамда уларнинг ўрганилиш даражасини ёритувчи меъёрий ҳужжат.

**Ўқув режаси** – таълим муассасида ўқитиладиган ўқув фанларининг тартиби, уларнинг ўқув йили бўйича тақсимланиши, ҳар бир ўқув фанига ажратиладиган ҳафталик ва йиллик ўқув соатлари, шунингдек, ўқув йили тузилишини белгиловчи меъёрий ҳужжат.

**Ўқув фани** – таълим муассасаларида ўқувчиларнинг ёш, идрок этиш имкониятларига мувофиқ уларга муайян фан соҳаси бўйича умумий ёки мутахассислик билимларини бериш, кўникма ва малакаларни шакллантиришни таъминловчи манба.

**Ўқувчилар жамоаси** – ижтимоий-фойдали аҳамият касб этувчи умумий мақсад ва биргаликдаги фаолиятга асосан жипслашган ўқувчилар бирлашмаси, гуруҳи.

**Ўқув қўлланмаси** – 1) маълум ўқув фанлари бўйича методик материаллар, тушунтиришлар, тавсияларни ёритувчи ҳамда ўқитувчи ёки ўқувчилар учун мўлжалланган манба; 2) муайян фан бўйича тайёрланган ҳамда методик жиҳатидан ўқув-тарбиявий жараёнда бевосита фойдаланиш имконини берувчи қўшимча ўқув материаллари.

**Ҳикоя** – ўқитувчи томонидан мавзуга оид далил, ҳодиса ва воқеаларнинг яхлит ёки қисмларга бўлиб, тасвирий воситалар ёрдамида образли тасвирлаш йўли билан ихчам, қисқа ва изчил баён қилиниши.

**Ҳисобга олиш** – таълимнинг муайян даврида ўқувчилар ва ўқитувчи фаолиятини умумлаштириш, ҳулосалаш.

**Ҳуқуқий онг** - муайян жамиятнинг моддий ҳаёт тарзи билан белгиланадиган тасаввур, идрок, тафаккур ва эътиқодлар тизими бўлиб, ижтимоий-психологик ҳодиса сифатида мураккаб тузилишга эга.

**Ҳуқуқий тарбия** - шахс томонидан ўзлаштирилган назарий-ҳуқуқий билимлар негизида ҳуқуқий фаолиятни ташкил этиш кўникма ва малакаларини ҳосил қилиш, унда ижобий ҳуқуқий сифатларни қарор топтириш ва ҳуқуқий маданиятни шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараён.

## **Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro'yxati**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
3. Матчанов С., Фуломова Х., Юлдашева Ш., А. Нисанбаева. Ана тилин оқыту әдістемесі. –Т.: ТДПУ, 2013. – 277 б.
4. Рахматуллаева Л.И. Методика преподавания родного языка родного языка. –Т.: Учебное пособие. Молия Иктисод, 2007.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti. –T.: Yangiyo'l poligraf service, 2010. – 42-46 b.
2. Uzviylashtirilgan o'quv dasturi. –T.: Yangiyo'l poligraf service, 2010. – 46-68 b.
3. Abdullayeva Q. va boshq. O'qish kitobi (2-sinf uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2010. – 192 b.
4. Abdullayeva Q. va boshq. 2-sinfda o'qish darslari. –T.: O'qituvchi, 2009. – 266 b.
5. Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2009. – 266 b.
6. Umarova M., Sh.Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: Cho'lpon, 2008. – 240 b.
7. Umarova M, Sh.Hakimova. O'qish darslari (3-sinf uchun). –T.: Cho'lpon, 2008. – 126 b.
8. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. □ T.: O'qituvchi, 2003.
9. Qosimova Q. "2-sinflarda ona tili darslari", T. "O'qituvchi", 1998 yil.
10. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2009. – 127 b.
11. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. –T.: Sharq, 2003. – 126 b.
12. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili (2-sinf uchun darslik). – T.: Cho'lpon, 2013. -127 b.
13. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili (3-sinf uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2013. -143 b.
14. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. (4-sinf uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2013. -190 b.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

## MUNDARIJA

| <b>№</b> | <b>Majmua komponenti</b>                                           | <b>sahifasi</b> |
|----------|--------------------------------------------------------------------|-----------------|
| 1        | Sillabus                                                           | 6               |
| 2        | Ma'ruza matni                                                      | 23              |
| 3        | Prezentatsiya                                                      | 195             |
| 4        | Tarqatma material                                                  | 218             |
| 5        | Amaliy mashg'ulotlar uchun material                                | 248             |
| 6        | Seminar mashg'ulotlar uchun material                               | 305             |
| 7        | Glossariy                                                          | 332             |
| 8        | Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari ro'yxati | 349             |